ISSN: 2181-3914

XXI ASR TILSHUNOSLIGI: tahlil va talqin

VOLUME 3 ISSUE 3 OCTOBER, 2025



TAHRIRIYAT HAY'ATI

Bosh muharrir
Murodova Nigora Qulliyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Editor – in – chief
Murodova Nigora Kulliyevna
doctor of philological sciences, professor

Bosh muharrir o'rinbosari
Yusubova Rano Norboyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Deputy Editor-in-Chief
Yusubova Rano Norboyevna
doctor of philological sciences, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Kalonov Muhiddin Bahriddinovich — *Iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

Xujjiyev Sodiq Oltiyevich — *Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Narzikulova Dilnoza Xoshimjonovna — *Pedagogika fanlari doktori, professor*

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Aynur Öz Özcan - filologiya fanları doktori, professor (Turkiya)
Nadir Mammadli- filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon)
Ra'no Sayfullayeva- filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
Azamat Pardayev - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
Mehri Abuzalova - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
Qo'ysin To'xtayeva - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
O'rolboy Oripov - filologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston)
Manzura Ernazarova - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
Gulchehra Boltayeva - filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Ra'no Davlatova – filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Botir Zaripov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
Alijon Allaberdiyev – filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Fazliddin Najmiddinov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
Xolbibi Qurbonova- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
Feruza Jumayeva- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)
Ra'no Sharopova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Gulnoza Ernazarova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)
Gulsanam Norova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Nasiba Yarashova - filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Navro'z Rahmonov- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)
Omongul Xolibekova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)
Dildora Agzamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Erkin Musayev – Katta o'qituvchi (O'zbekiston)
Bobir Maxammadov – filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Tahririyat bilan bog'lanish:
Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy
Web-site: http://sciencejournals.uz
Tel: +998(97) 378 – 34 -45

Editorial staff of the journal:
Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city
Web-site: http://sciencejournals.uz
Tel: +998(97) 378 – 34 -45

MUNDARIJA / CONTENT

Ernazarova Manzura..... **5**
Grammatik ma'noning nutqiy voqelanishida lisoniy va pragmatik omillar

Yusubova Ra'no..... **14**
Kodlashtirish lingvopoetik kategoriya sifatida

Raupova Laylo, Yusubova Ra'no..... **23**
O'zbek tilshunosligining iqbolli olimasi

Allaberdiyev Alijon..... **26**
Buxoro o'g'uz shevasining o'rganilish tarixidan

Zaripov Botir..... **34**
"Qadriyat" mazmuniy maydoni sistemasining periferiyasi

Жумаева Феруза..... **44**
К вопросу о субстантивации в русском и узбекском языках

Мардонова Феруза..... **51**
Особенности употребления многочленных сложноподчинённых предложений в романе «война и мир»

Nuritdinova Ra'no **56**
Karmana mikrotoponimiyasining lug'aviy asoslari

Sharopova Ra'no..... **63**
Urbanizatsiya va til o'zgarishlari: sotsiolingvistik tahlil

Ernazarova Gulnoza..... **68**
Ma'danshunoslik terminlarining pragmatik xususiyatlari

Eshboltayev Bobur..... **72**
Bolalarning reklama matnlarini yaratishdagi lingvistik imkoniyatlari

Niyozova Hulkar..... **77**
Zebo Mirzo she'riyatida o'xshatishlarning lingvopoetik tahlili

Bobojonova Shaxnoza..... **81**
The Social-Cultural and Communicative Aspects of Educational Discourse

Maxammadiyeva Diyora..... **86**
Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmon she’riyatidagi korpusning ahamiyati

Yusubova Umida..... **99**
Fonatsion noverbal vositalar semantikasi

Saitxanova Dinara..... **105**
Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda o‘lkashunoslik materiallari ustida ishlashda autentik materiallardan foydalanish

Abduqaxxorov Sardorbek..... **112**
Bilimlarni kognitiv modellashtirish vositalari: elektron ensiklopedik lug‘at uchun mezonlar va muvofiqlik modeli

Ziyayeva Dilnoza..... **121**
The use of speech verbs in Uzbek and English

Mamatkulova Saidaxon..... **128**
Ingliz va o‘zbek tillarida “muhabbat / love” konseptining lingvokognitiv tuzilishi: sevgi va sub’ektning makoniy munosabati

Jo’rayeva Muhayyo **135**
Stilistik va sintaktik vositalarning badiyiy matnda intensivlikni oshirishdagi o‘rni

Nematullayeva Gulandom..... **140**
Poetik matnda pragmatik omilning voqelanishi

GRAMMATIK MA'NONING NUTQIY VOQELANISHIDA LISONIY VA PRAGMATIK OMILLAR

Manzura Ernazarova,
Navoiy davlat universiteti,
professor, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Tilning lisoniy tizimida uning grammatik imkoniyatlari muhim o'rin tutadi. Nutqni shakllantirishda esa grammatik vositalar boshqa lisoniy birliklar orasida alohida mavqega ega. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar markazidagi asosiy izlanishlar grammatik ma'noning lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida zamonaviy metodologik tamoyillarga tayangan holda tavsiflash hamda nazariy xulosalar chiqarishni belgilaydi. Binobarin, grammatik ma'noni lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida tilshunoslikning so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: grammatik ma'no, lisoniy va pragmatik omillar, til, lison, nutq, formal, substantsial, sinergetik, geterogen, fluktuatsiya, bifurkatsiya, bifurkator.

Аннотация. В языковой системе языка важное место занимают его грамматические возможности. В формировании речи грамматические средства занимают особое место среди других языковых единиц. Основным направлением исследований в центре современных научных изысканий является описание грамматического значения в целостности лингвистических и прагматических факторов на основе современных методологических принципов и формулирования теоретических выводов. Поэтому необходимо изучать грамматическое значение в контексте лингвистических и прагматических факторов, используя новейшие достижения языкознания.

Ключевые слова: грамматическое значение, лингвистические и прагматические факторы, язык, лингвистика, речь, формальный, содержательный, субстанциональный, гетерогенный, флуктуация, бифуркация, бифуркатор.

Annotation. In the linguistic system of the language its grammatical possibilities play an important role. In forming speech the grammatical means have a distinctive position among other language units. The basic investigations in the centre of modern scientific researches define the grammatical meaning depending on the modern methodological principles in the integrity of linguistic and pragmatic factors and works out theoretical conclusions. Therefore, it is necessary to research the grammatical meaning in the integrity of linguistic and pragmatic factors by using the latest achievements of linguistics.

Keywords: grammatical meaning, linguistic and pragmatic factors, tongue, language, speech, formal, substantial, synergetic, heterogenic, fluctuation, bifurcation, bifurcator.

Kirish. Har qanday lisoniy birlik nutqda voqelanar ekan, avvalo, uning umumiy lisoniy mohiyati boshqa yondosh lisoniy omillar yordamida muayyanlashadi. Xususan, polisemantik leksemalarning sememalari morfologik va sintaktik sathlar ta'sirida

farqlanadi hamda nutqqa chiqish uchun tayyor holga keladi. Nutqiy vaziyat esa unga qo‘shimcha ottenkalar beradi, ba’zan morfologik va sintaktik (lisoniy) omillar kuchsizlik qilgan hollarda ularning vazifasini o‘z zimmasiga oladi – lisoniy omillarga pragmatik omillar hamkorlik qiladi.

Grammatik ma’no nutqiy voqelanishi uchun boshqa yondosh sathlar ta’siri va ko‘magiga kuchli ehtiyoj sezadi. Bunda lisoniy sistemaning yaxlitligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, har qanday morfologik shakl nutqqa chiqishida u shakllantirayotgan leksemaning ma’noviy mohiyati (leksik omil), hosil qilingan so‘zshakl bilan birikayotgan boshqa so‘zshakl (sintaktik omil) muhim rol o‘ynaydi. Ammo bu omillar hech qachon pragmatik omilsiz yuzaga chiqmaydi – undan xoli bo‘lolmaydi. Demak, grammatik ma’no lisoniy mohiyat sifatida leksik, sintaktik va pragmatik omillar yaxlitligida nutqqa ko‘chadi. Ta’kidlash joizki, bu omillar teng kuchli emas, birining ahamiyati ortishi bilan boshqasi susayadi. Ya’ni har bir sath birligi nutqiy voqelanishida uch omil mavjud bo‘lib, ularning yaxlitligi uchburchakka, har bir omil esa uning bir burchagiga qiyoslanishi mumkin. Bir burchakning kengayishi boshqasining torayishi asosida sodir bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, grammatik ma’noning nutqdagi o‘rnini leksik, sintaktik va pragmatik omillardan ayri holda talqin etish mumkin emas. Lisoniy birliklar va tiklangan lisoniy strukturaning tadqiq darajasi ularning nutqiy voqelanishini shu yo‘sinda o‘rganishni taqozo etmoqda.

Grammatik ma’no nutq tarkibida qaralganida nutqning geterogen tabiatli sistema ekanligi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligida bo‘lishi hamda shu xususiyati asosida lisoniy sistemadan farqlanishi, grammatik ma’no lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligida voqelanishi, bunda lisoniy omillar kuchayganida nolisoniy omillarning susayishi, nolisoniy omillar kuchayganida esa lisoniy omillar susayishiga e’tibor qaratildi. Lisonning nutqiy voqelanishini o‘rganishdagi antropotsentrizm va diskursiv tahlil tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Nutqiy sistemada lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi masalasi jahon tilshunosligida P.Grays, J.R.Serl, D.Frank, T.A.Deyk van, I.M.Kobozeva, S.D.Katsnelson, A.A.Leontev, L.V.Щerba, N.D.Arutyunova, V.V.Bogdanov, N.I.Formanovskaya, M.S.Kagan, L.P.Krisin, A.M.Bushuy, o‘zbek tilshunosligida S.Ibrohimov, R.Qo‘ng‘urov I.Qo‘chqortoev, G‘.Abdurahmonov, T.A.Bushuy, Sh.Safarov, Sh.Iskandarova, S.M.Mo‘minov, B.X.Rahmatullaeva, M.Kamolova, R.M.Avezdjanova, D.M.Teshaboeva, Z.H.Utesheva, Z.A.Akbarova kabi lingvistlarning ishlarida uchraydi. Ular nutqiy sistemadagi turli omillarning hamkorligini bevosita yoki bilvosita qayd etishgan.

Grammatik ma’noning nutqiy voqelanishida lisoniy hamda pragmatik omillar hamkorligi va muvofiqligi masalasini ilmiy asoslashda N.D.Arutyunova, D.U.Ashurova, V.V.Bogdanov, Ye.S.Kubryakova, V.G.Gak, Sh.Safarov, J.Ostin, G.G.Pocheptsov kabi qator nazariyotchi tilshunoslarning hamda H.Ne’matov, M.A’lamova, Sh.Shahobiddinova, B.Mengliev, B.Bahriddinova, O.Shukurov kabi o‘zbek tilshunoslarining ilmiy-nazariy qarashlari metodologik asos bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Nutqiy ma’no beqarorligi lisoniy ma’no barqarorligi bilan xarakterlanadi. Beqarorlik nutqiy sistemaning dinamikligi va rivojlanuvchanligini ta’minlaydi. Beqarorlik tamoyili sinergetik sistemalarning yashash shartidir.

Nutqiy jarayonda sistema holatining fluktuatsiya holati (o‘zgarishi) turli omillar ta’sirida yuz berishi mumkin. U lisoniy ham, nolisoniy ham bo‘ladi. Lekin bularning barchasi so‘zlovchining intentsiyasi va pragmatik omillarning muvofiqlashuviga bo‘ysunadi. Subyektiv intentsiya pragmatik vaziyatni hisobga olgan holda nutq jarayonini boshqaradi.

Xususan, grammatik ko‘rsatkich grammatik ma’no ifodalaydimi yoki o‘zi birikayotgan mustaqil leksemalarning substantsial tabiatida mavjud tegishli ma’nolarni ro‘yobga chiqaradigan, katalizator vazifasini o‘taydigan yordamchi vositami degan muammo garchi yechimini topishi nomuqarrar bo‘lsa-da, mavjud ekanligi fikrimizning dalilidir. Chunki, masalan, so‘z turkumlarining tasniflovchi kategoriyalariga [6,18] mansub lug‘aviy shakl yasovchilarning faqat muayyan so‘z turkumlari doirasidagina shakl yasashi va muayyan bir ma’nolarni ifodalashi ularda ushbu ma’nolarning mavjudligiga ma’lum darajada shubha uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, aloqa-munosabat kategoriyalarining lug‘aviy ma’noga daxldor mohiyatga ega emasligi va shu boisdan barcha so‘z turkumlari uchun umumiyligi kabilar ham fikrimizga dalil bo‘la oladi. Demak, grammatik shakl ma’nolarining an’anaviy talqinlarda boshqa sath birliklariga bog‘liq qilib qo‘yilishi umumiy lisoniy substantsiyalarning voqelanishi uchun hamkorlikning zarurligiga, hamkorlik esa lisoniy va nolisoniy omillar mushtarakligida bo‘lishiga olib keladi.

Lisoniy birlik o‘zi mansub sistemaning unsuri bo‘lish bilan birga o‘zi ham shakl va ma’noning birligidan iborat yaxlitlik – sistema. Masalan, ko‘plik son shakli birlik son bilan birga son kategoriyasini tashkil qiladi. Ular bir sistemaning ikki unsuri sifatida zidlik hosil qilib, mavjudlik kasb etadi. Ammo o‘z o‘rnida ko‘plik son ko‘rsatkichi [-lar] shakl va ma’noning yaxlitligidan iborat sistema. Bu sistemaning nutqiy voqelanishi, ya’ni nutqiy sistemadan unsur sifatida o‘rin olishi va o‘zi ham bu dinamik sistemaning tarkibida mikrosistema sifatida mavjud bo‘lishi sinergetik qonuniyatlar asosida yuz beradi. Birinchidan, ko‘plik son ko‘rsatkichining umumiy grammatik ma’nosi [11,13] nutqqa chiqish jarayonida parchalanadi – dastlab oraliq grammatik ma’nolarga, oraliq grammatik ma’nolar esa, o‘z navbatida, xususiy grammatik ma’nolarga ajraladi, ya’ni polifurkatsiya hodisasi yuz beradi, parchalangan xususiy grammatik ma’nodan faqat bittasi voqelanadi. Son kategoriyasi [-lar] shaklining umumiy grammatik ma’nosi «miqdoriy noaniqlik va sifatiy bo‘linuvchanlik» bo‘lib, u «ko‘plik», «jamlik» «bog‘liqlik yoki o‘xshashlikka asoslangan ko‘plik» oraliq grammatik ma’nolariga ajralishi manbalarda ta’kidlanadi.

Xullas, grammatik shaklning umumiy grammatik ma’nosini bevosita «parchalayotgan» vositani matnning ushbu hajmi va holatida aniqlab bo‘lmaydi. Demak, fluktuatsiya sababini aniqlash uchun lisoniy omillar bilan cheklanish yetarli emas.

Fluktuatsiya va buning natijasidagi bifurkatsiya sababi lisoniy omillar bo‘lgan holatlar nutqda ko‘plab uchraydi, albatta. Ammo shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, grammatik ma’no bifurkatsiyalanishining asos va sabablari bilan uni aniqlash

masalasini qorishtirmaslik kerak. Masalan, kitoblar so‘zshaklida «oddiy ko‘plik» yoki «o‘xshashlik asosidagi ko‘plik» ma’nolaridan qaysi biri voqelanayotganligi biz uchun noma’lum va uni tashqi omil – matn yordamida aniqlashimiz mumkin. Ammo grammatik ko‘rsatkichning qaysi ma’nosi voqelanayotganligi kuzatishlarimiz va ongimizdan tashqarida ob’ektiv reallik sifatida mavjud, ya’ni voqelanish sodir bo‘lgan, sistemaning o‘zi o‘zini tashkil qilgan.

Tilshunoslar grammatik ma’noning fluktuatsiyaga uchrashi va bifurkatsiyalanishida hamkorlik tendentsiyasini sinergetik metodologiyasiz bo‘lsa-da, ancha teran tahlil qilganlar. Lekin bundagi hamkorlikni faqat lingvistik nigoh bilan ko‘rish lisoniy omillarning rolini kuchaytirish va mutlaqlashtirishni keltirib chiqaradi. Masalan, turkiy tillarning o‘ziga xos xususiyat va ontologik belgilaridan biri bo‘lgan egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosining parchalanishi va nutqiy voqelanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi fluktuativ kuchlar sifatida lisoniy omillar ahamiyati kuchaytirilgan holatlar talaygina. Umuman olganda, morfologik shakllar grammatik ma’nolarining nutqiy voqelanishida fluktuativ kuch sifatidagi lisoniy omillarning o‘rni ancha tadqiq etilganligi bilan xarakterli. Ammo hodisani sinergetik nuqtai nazardan o‘rganish, umumiy ma’noning parchalanish jarayonini o‘zi-o‘zini tashkil etuvchilik va o‘z-o‘zidan rivojlanuvchanlik jihatidan baholash sinergetik lingvistikaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Grammatik shakllar umumiy grammatik ma’nosining nutqiy voqelanishi – bo‘linishi va yuzaga chiqishida lisoniy omillarning o‘ziga xos o‘rni bor. Ular grammatik ma’noning fluktuatori va bifurkatori sifatida ko‘p hollarda ustuvor qiymatga ega bo‘ladi. Lekin bu ularning imkoniyatlarini mutlaqlashtirishga olib kelmasligi kerak. Chunki sinergetiklik jonli sistemalarning asosiy sifatlaridan biri ekan, lisoniy omillar harakatda bo‘lgan o‘rinlarda nolisoniy omillar betaraflashuvi va sistemaning jonsiz unsurlari sifatida passiv maqomda bo‘lishlari mumkin emas.

Nutqiy sistema tarkibiga kirayotgan lisoniy unsurning o‘z mudroq holatidan chiqib, mavjud lisoniy sistem muvozanatni buzishi va yangi dinamik sistema tarkibiga kirib, yangi muvozanat va murosa «to‘ri»ga tushishi muhit bilan bog‘liq ravishda ro‘y berar ekan, bunda muhit lisoniy va nolisoniy qatlamlarning bir-biriga o‘zaro singib ketishidan tashkil topadi. Grammatik vositalarning umumiy grammatik ma’nosini shu yo‘sinda qarab, pragmatik omillar faol fluktuator bo‘lgan holatlarga e’tibor beramiz.

Tahlil va natijalar. Pragmatik muhit tashkil etuvchilari miqdoran rang-baranligi va keng qamrovliligi bilan xarakterlanadi. Shaxs, vaziyat, sharoit orasida shaxs omili, kommunikantlarning tabiati va mavqei, o‘zaro munosabati kabilar muhim ahamiyatga ega. Birgina shaxsning nutqiy holati jinsiy tafovut, fe’l, saviya, ijtimoiy mavqe, yosh, ma’lumot, mutaxassislik, sog‘liq, kayfiyat kabi ko‘rinishlardan iborat bo‘lib, ularning har biri lisoniy birliklar, xususan, grammatik shakllarning nutqiy voqelanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi – ba’zan fluktuatsiya darajasida, ba’zan undan quyi maqomda turadi. Ayrim misollarga murojaat qilamiz. “O‘tkan kunlar” romanida shunday epizod mavjud:

Homid qo‘lini bo‘shatishka tirishar ekan, Otabek salmoqqina qilib dedi:

– Ortiqcha oshiqmangiz, Homidboy, men sizning xanjarlik qo‘lingizni bo‘shataman hozir, ammo shungacha siz bilan ikki og‘iz so‘zim bor!

Homid hanuz qo‘lini bo‘shatishg‘a kuchanar edi.

–Kuchanmangiz, Homidboy!

–Mard yigit bo‘lsang qo‘limni qo‘y!

–Oshiqma, qo‘yaman! – dedi Otabek... Xanjarli qo‘li bilan tuynukka ishorat qilib Otabek so‘z boshladi: – Siz mendan ham yaxshiroq bilasizki, shu uyda sizni allaqancha mashaqqatlarg‘a solg‘an, cheksiz jonivorliqlar ishlatkan va hisobsiz tillalar to‘kdirgan, nihoyat, shu daqiqag‘a keltirib to‘xtatkan birav uxlaydir. Agarda sizning manim tilimdan yozib bergan taloq xatingiz durust hisoblanmasa, bu uxlag‘uvchi mening halol rafiqam bo‘lib, ikki yildan beri men ham uning ko‘yida sargardonman. Demak, siz bilan mening oramizda shu birav uchun kurash boradir. Lekin siz shu choqqacha manim ustimdan muvaffaqiyat qozonib keldingiz: qora choponchi deb dor ostlarig‘acha olib bordingiz, Musulmonqul qo‘lig‘a topshirdingiz, bu ishlaringiz foydasiz chiqg‘ach, ismimdan taloqnoma yozib, ikki yillab rafiqamdan ayirib turishka muvaffaq bo‘ldingiz… Endi menga javob beringiz-chi: bu yomonliklaringizda siz haqlimi edingiz?

–Haqli edim! – dedi Homid va siltab xanjarlik qo‘lini bo‘shatib chalqancha yiqildi…[1, 248-249]

E’tibor qilinsa, Otabek nutqida Homidga nisbatan bir grammatik shakl ikki xil ko‘rinishda, nomutanosib qo‘llangan: bir o‘rinda oshiqmangiz, kuchanmangiz shaklida, ikkinchi bir o‘rinda oshiqma ko‘rinishida. Oshiqmangiz, kuchanmangiz fe’l shakllarida shaxs-son shakli qavatlangan, bunda u «tarixiylik», «kitobiylik», «ko‘tarinkilik», «saroy muhitiga xoslik», «rasmiylik», «sun’iylik», «hurmat» kabi ma’no xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Otabek bilan Homidning munosabati ma’lum, bu munosabatning shakllanishiga, Otabek ta’kidlaganidek, Homidning unga qarshi «cheksiz jonivorliqlar ishlatkan»i, «hisobsiz tillalar to‘kdirgan»i, qora choponchi deb dor ostigacha olib borgani, Musulmonqul qo‘liga topshirgani, nomidan taloqnoma yozib, ikki yillab rafiqasidan ayirib turganligi kabi xatti-harakatlari sabab bo‘lgan. Qolaversa, Otabekning Homidni Kumushning yotog‘iga qarab lahm kovlayotgan holatida uchratib turishi uning nutqida «kitobiylik», «ko‘tarinkilik», «saroy muhitiga xoslik», «rasmiylik», «hurmat» ma’nolari bo‘lishini taqozo qilmaydi va yuz berishi muqarrar ayovsiz olishuv har qanday mulozamatni chetga surib qo‘yib, har bir soniyadan unumli foydalanishni talab qiladi. To‘g‘ri, Otabek aslzodalar muhitida o‘sgan. Lekin hozirgi qaltis vaziyatda Homidga munosabatida bu holati pand berishi ham mumkin, shuning uchun xuddi jangdagi yoki ovdagi singari o‘zining tadbirkorlik va chapdastlik xislatlarini namoyon qilishi shart. Shuning uchun grammatik shaklda zikr etilgan ma’nolarning bo‘lishi pragmatik nuqtai nazardan o‘rinli emas. Bunga Homidning gapiga (Mard yigit bo‘lsang qo‘limni qo‘y!) javoban aytgan gapida (Oshiqma, qo‘yaman!) qo‘llangan grammatik shakl ham qo‘shimcha asos bo‘ladi.

Ma’lumki, [-ng] grammatik shaklining [-ngiz] shaklida qo‘llanishida «piching» ma’nosi ham ifodalanadi. Ayniqsa, odatda, «sen»lanadigan kishilarga nisbatan kinoyaviy ma’no ifodalashda ushbu usul keng ishlatiladi. Hatto uchinchi shaxs shakli ham ikkinchi shaxsga nisbatan qo‘llanaveradi.

Otabekning Homidga nafratli munosabati natijasida tug‘ilgan kinoyaviy kayfiyat shaxs-son shaklining «piching, kesatiq» ma’nosini namoyon qiluvchi faol pragmatik omil sifatida baholanishga loyiq. Ammo bu omil va unga muvofiq voqelangan ma’no boshqa omillar hamda ularga mos ma’nolarning voqelanishini yo‘qqa chiqarmaydi. Masalan, Homid shaxs-son shaklining [-ngiz] variantini hech qachon nutqida qo‘llamaydi va bu tafovut kommunikantlarning qaysi muhitda voyaga yetganlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, Otabek kinoya uchun uchinchi shaxs ko‘rsatkichini ham qo‘llamaydi: oshiqmasinlar, kuchanmasinlar tarzida. Bunda kinoya-kesatiq darajasiga yetgan hamda «hurmat» ma’nosi o‘ta kuchsizlashgan, hatto butunlay so‘ngan bo‘lishi ham mumkin edi. Oshiqmangiz, kuchanmangiz so‘zshakllari oshiqmasinlar, kuchanmasinlar so‘zshakllari bilan qiyoslansa, ular orasidagi farq va tafovut «hurmat» ma’nosining u yoki bu darajasi bilan belgilanadi. Otabekning o‘sha paytdagi oniy kayfiyati ham grammatik shaklni qo‘llashdagi ikki xillikni keltirib chiqargan bo‘lishi mumkin. Kinoyaning sababi esa, albatta, alamzadalik, qasos olish kabi maqsadlar bilan belgilanadi. Chunonchi, N.D.Arutyunovaning fikricha «har qanday nutqiy hodisa ma’lum bir maqsad asosida namoyon bo‘ladi. Odamlar nimadir haqidagi o‘z muhokamalarini bayon qilish niyatida maslahat berish, va’da berish yoki taklif etish kabi tinglovchini biron-bir narsaga ishontirish maqsadida so‘zlaydi»[2,47].

Demak, kommunikantning munosabati va holati mazkur grammatik shaklning o‘ziga xos ma’noda qo‘llanishiga sabab bo‘lgan asosiy pragmatik omildir. Shuningdek, nutqiy vaziyat omilining ham ushbu o‘rinda ma’lum darajada o‘z o‘rni bor.

Grammatik shakllarning nutqiy voqelanishida shaxslararo munosabatning kommunikantlar yosh xususiyatiga ko‘ra xoslanishi ham sotsiopragmatik omil sifatida o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Umuman olganda, shaxs omili pragmatik omillarning markazida ularni uyushtiruvchi kuch sifatida yuqori mavqega ega bo‘ladi. Grammatik sathda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligining nisbatan ustuvorligi va aloqasining zichligi o‘ta mavhum funktsional-semantik imkoniyatga ega bo‘lgan grammatik shakllarning ma’nolarini voqelantirishda boshqa sath birliklariga nisbatan pragmatik «quvvat»ga ko‘proq «tashna»ligi bilan belgilanadi.

O‘zi-o‘zini tashkil etuvchi sistemalarning insoniy omillar bilan qorishgan o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan nutqiy tizimda lisoniy va pragmatik omillar hamkorlikning yuksak darajasida amal qiladiki, bir qarashda ular orasiga chegara qo‘yish, idrok bilan ularning hissalarini aniqlash imkoni ma’lum darajada cheklangan bo‘ladi. Zero, «... nutqiy aloqa o‘zining tabiatiga ko‘ra tizimli, u turli xil nutq oqimlari, qismlari o‘rtasidagi verbal muloqotni va harakatni asoslash qoidasini ishlab chiqishga imkon beradi. Bu:

1) gaplarning va yirik nutq bo‘laklarining sintaktik qoidalarini hosil qilish va izohlash;

2) so‘zlarning ma’nosi va nutq oqimlari ifodalanishining semantik qoidalari;

3) gaplarda va yirik nutqiy oqim bo‘laklarida aks ettirilgan oddiy hamda murakkab nutqiy harakatlarni to‘g‘ri ilg‘ab olishning kommunikativ qoidalari;

4) nutq aktlarini aniq ketma-ketlikda hosil qilishning interaktiv qoidalari»[9,8].

Lisoniy va nolisoniy omillarning hamkorligi muvofiqlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi, nutqiy sistema tahlilida ulardan birortasining mavqeiga past nazar bilan qarash noo‘rin, bunda kompleks tahlil tamoyili ustuvorlik qiladi. «Nutqiy qurilmalarning strukturasi va ma’nosining aniq tavsifini kontekstual yoki, aniqroq aytganda, ushbu tuzilmalarning qo‘llanishiga oid omillarga tayanmasdan turib bilishning imkoni yo‘q»[9, 68].

Ta’kidlanganidek, muloqot maqsadini har xil nuqtai nazarlardan turlicha talqin qilish va undan kelib chiqqan holda lisoniy imkoniyatlarning voqelanish xususiyatlariga baho berish mumkin bo‘ladi. Kommunikativ intentsiya faollik, so‘zlovchi o‘z maqsadiga erishish uchun bir vaqtning o‘zida pragmatik omillarga bo‘ysunish bilan birga, ularni ustalik bilan o‘ziga moslashga intiladigan o‘rinlarda lisoniy vositalarga ham ustuvorlik beriladi.

So‘zlovchi lisoniy sistemadan til birliklarini tanlashda o‘zining lisoniy va ijtimoiy kompetentsiyasi asosida ijtimoiylashgan lisoniy-nutqiy me’yorga bo‘ysunadi. «Me’yor lisoniy birlikning sintagmatik, sohaviy, stilistik, davriy morfonologik va nomorfonologik variant va dubletlarining tanlanish va qo‘llanilishini belgilaydi. Chunonchi, [-yap] qo‘shimchali zamon shakli birinchi shaxs birlik sonda [-yapman] shakli bilan birga [-opman], -[vopman], [-votirman], [-yotibman], [-yotib tururman] kabi ma’lum bir zamon ma’nosidan tashqari qo‘shimcha vazifalarni bajarishga xoslangan variantlarga ega va bu variantlardan qay birining qo‘llanilishi paradigmatik munosabatlar(zamon paradigmasi) bilan belgilanmaydi» [5, 5]. Bunda nolisoniy omillar faollashadi – ularning hamkorlik doirasidagi roli oshadi.

Nutqda lisoniy omillar so‘zlovchi tomonidan «majburiy-ixtiyoriylik» tamoyili asosida boshqariladi. Masalan, so‘zlovchi muloqot intentsiyasi va uning namoyandasi bo‘lgan nutqiy intentsiya asosida til vositalaridan birini tanlaydi hamda unga mustahkamlovchi vositalarni tirkaydi – so‘z va grammatik shakllarning valentlik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda fikrini muayyanlashtirish hamda o‘z maqsadiga osonroq va qulayroq erishish uchun fikriy tanlovni amalga oshiradi. Albatta, bir vaqtning o‘zida, ong ostiga o‘tib ketgan pragmatik omillarni inobatga olish va ularni ham o‘z o‘rnida «ishlatish» kompetentsiyasiga tayanadi. Natijada lisoniy va pragmatik omillarning uyg‘unligiga erishiladi.

Grammatik shaklning nutqiy qo‘llanishidagi asosiy omil antropo-pragmatik omil bo‘lib, voqelanish yadro intentsiya bilan bog‘liq. Masalan, O‘zbekiston – Vatanim manim (Abdulla Oripov) jumlasida bosh qaratqich kelishigi shaklidagi so‘zni qo‘llashda so‘zlovchi intentsiyasining darajasi asos bo‘ladi. Poetik obraz yaratish va uni badiiy talqin qilish – shoirning yadroviy intentsiyasi. Bu maqsadni ro‘yobga chiqarishda kommunikant quyidagi yordamchi intentsiyalarga ham tayanadi:

a) badiiy talqinda o‘zlikni namoyon qilish;

b) takrordan qochish;

v) o‘quvchi his-tuyg‘ulariga kuchli ta’sir qilish;

g) ohangdorlikka erishish.

Bu omillarga uslubiy omil – badiiy uslubga xos erkinlik, shu bilan birga, cheklanganlik qorishib, adibga grammatik shaklning shevaviy-badiiy variantini tanlashga imkon bergan. Demak, ushbu o‘rinda intentsial va lisoniy (uslubiy) omil

hamkorligi namoyon bo‘lgan. Biroq bu hamkorlik invariant shaklning variantinigina yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Qaratqich kelishigi turli faktorlar ta’sirida yuzlab ma’nolarga ega bo‘ladi. Buni tilshunos A.Choriev o‘z vaqtida teran tadqiq qilgan edi [10,190].

Grammatik shakllarning variantlari tanlanishi, umumiy grammatik ma’nosining nutqiy xoslanishida ko‘plab ichki (lisoniy) va tashqi (nolisoniy) omillar bilan bog‘liq. Bu lisoniy omillar til birliklarining bir-biriga ko‘maklashuvi, biri ikkinchisini, ikkinchisi birinchisini mustahkamlashi tarzida, shuningdek, aktsentuativ hodisalar rolining ortishi, uslub kabi omillarning o‘rni, shu bilan birga, so‘z leksik ma’nolarining ayricha xususiyatlarini yuzaga chiqarishi kabilarda namoyon bo‘ladi. Bu omillarga ko‘p o‘rinlarda fluktuatorlik vazifasini bajargan holda nolisoniy omillar – so‘zlovchi intentsiyasi, makon va zamon, milliy-mental faktorlar, sotsial mavqe kabilar hamkorlik qiladi. Bu omillarning yetakchiligi, birining roli va mavqei ko‘tarilganida boshqasining kuchsizlanishi aslo ular orasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik natijasi bo‘lmay, balki, «murosa» tamoyiliga ko‘ra, o‘zaro moslashish, hamkorlikning namoyon bo‘lishidir.

Xulosa va takliflar. Lisoniy birliklarni voqelantirishga sabab bo‘luvchi turli omillar, lisoniy birliklarning nutqiy sistemadagi o‘zaro hamkorligi masalasining kun tartibiga qo‘yilishi, bu davr talabi, tilshunoslikning muayyan taraqqiyot bosqichidagi maqsad va vazifalari bilan bog‘liq edi.

Lisoniy birliklar o‘z mavhum strukturasidan chiqib, jonli, dinamik nutqiy sistemani hosil qilishi o‘ta murakkab jarayon. Nutqda grammatik shaklning umumiy grammatik ma’nosi modifikatsiya jarayonida turli lisoniy va nolisoniy omillar qorishgan holda harakat qiladi. Uslubiy variantlarning tanlanishida fluktuatorlik vazifasini ko‘p hollarda nolisoniy omillar o‘z zimmasiga oladi.

Grammatik shakl variantlarining tanlanishi, umumiy grammatik ma’nosining nutqiy xoslanishi ko‘plab ichki (lisoniy) va tashqi (nolisoniy) omillar bilan bog‘liq. Bu lisoniy omillar til birliklarining bir-biriga ko‘maklashuvi, biri ikkinchisini, ikkinchisi birinchisini mustahkamlashi tarzida, shuningdek, aktsentuativ hodisalar rolining ortishi, uslub kabi omillarning o‘rni, shu bilan birga, so‘z leksik ma’nolarining ayricha xususiyatlarini yuzaga chiqarishi kabilarda namoyon bo‘ladi. Bu omillarga ko‘p o‘rinlarda fluktuatorlik vazifasini bajargan holda nolisoniy omillar – so‘zlovchi intentsiyasi, makon va zamon, milliy-mental omillar, sotsial mavqe kabilar hamkorlik qiladi. Bunday omillarning yetakchiligi, birining roli va mavqei ko‘tarilganida boshqasining kuchsizlanishi, aslo ular orasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik natijasi bo‘lmay, balki “murosa” tamoyiliga ko‘ra, o‘zaro moslashish, hamkorlikning yuzaga chiqishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.248 – 249.
2. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. – М.: Наука, 1976. – С.47.
3. Баҳриддинова Б.М. Феъл луғавий шакллари тизими (Тур категорияси): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – Б.18.
4. Бушуй А.М. Принципы лингвистического структурирования речевого высказывания // Нутқ лингвистикаси. Халқаро илмий-назарий конференция материаллари. – Самарқанд, 2006. – Б.8.
5. Менглиев Б.Р. Тил яхлит система сифатида. Монография. – Тошкент: Ниҳол, 2010. – Б.123.
6. Неъматов Ҳ. Нутқда эркинлик ва зарурият // Нутқ лингвистикаси. Халқаро илмий-назарий конференция материаллари.– Самарқанд, 2006. – Б.5.
7. Nuyts J. Aspects of a Cognitive-Pragmatic Theory of Language. On cognition, functionalism, and grammar. – Amsterdam, 1992. – P.68.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б.59.
9. Хакен Г. Синергетика. Иерархия неустойчивостей в самоорганизующихся системах и устройствах. – М.: Мир, 1985. – С.423.
10. Чориев А. Синтаксическо-семантические признаки родительного падежа в узбекском и английском языках. – Ташкент, Фан, 1990. – 190 с.
11. Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – Б.25.
12. Эрназарова М. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида. Монография. Монография. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 154 б.

KODLASHTIRISH LINGVOPOETIK KATEGORIYA SIFATIDA

Yusubova Ra'no,
Renessans ta'lim universiteti,
professor, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada kod tushunchasi belgilarni o'rganuvchi fan – semiotikaning markaziy tushunchalari hisoblanishi, lingvistik maqomi, lingvopoetik kategoriya sifatida kodlashtirish badiiy matnda muallifning badiiy niyatini shifrlashi, konseptual olami bilan bog'liqligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, kodlashtirish, kodlash vositalari, kod turlari, badiiy matn, konsept.

Аннотация: В статье анализируется, является ли понятие кода центральным понятием семиотики – науки изучающей знаки, лингвистическим статусом, как лингвопоэтическая категория кодификация расшифровывает художественный смыслом автора в художественном тексте, связана с концептуальным миром.

Ключевые слова: коммуникация, кодирование, средства кодирования, типы кода, художественный текст, концепция.

Abstract: The article analyzes whether the concept of code is the central concept of semiotics, the science of studying signs, linguistic status, how the linguistic and poetic category of codification deciphers the artistic meaning of the author in a literary text, is related to the conceptual world.

Keywords: communication, coding, coding tools, types of code, artistic text, concept.

Semantika tilning qalbidir.
V.M.Solnsev

KIRISH. Badiiy matn – inson nutqiy faoliyatining noyob turi sifatida talqin qilinar ekan, muallif g'oyaviy-badiiy maqsadini amalga oshirish uchun badiiy matnda qo'llangan til vositalarining har biri lingvopoetikaning predmeti bo'lib xizmat qiladi. Asarning estetik ta'siri birgina matnda nima haqida gapirilayotganiga emas, balki qay yo'sinda bayon qilinayotganligiga, qabul qiluvchi nutqni emas, voqelikni tushunishiga bog'liq bo'ladi. Muallif tomonidan badiiy ijod jarayonida u yoki bu til birligiga qay tarzda individual yondashilganlik, estetik samarani qay tarzda hosil bo'lganligini aniqlashtirish aynan lingvopoetik tahlil maqsadini belgilaydi. Lingvopoetikani filologiyaning badiiy kontekstda lingvistik birliklarning estetik xususiyatlarini o'rganadigan sohasi sifatida ko'rsatilishidagi ilk qadamlar sababi ham shundandir.

Adabiyotlar tahlili. Lingvistik kod haqida mulohaza yuritilar ekan, semiotik kodlar N.I.Jinkin, L.P.Krisin. V.P.Gluxov, G.S.Knabe, A.Yu.Shelkovnikov tomonidan, lingvomadaniy kodlar M.L.Kovshova, Sh.Usmanova, D.Xudoyberganova, F.Usmanov

kabi olimlar tomonidan ilmiy asoslab berilganligini qayd etish lozim. Har bir til jamoasi (tabiiy tillar ham, sun'iy tillar ham) aloqaning ma'lum vositalaridan – tilning turli birliklaridan foydalanadi, ushbu birliklar kod deb ataladi, demak, kod kommunikatsiya vositasidir. L.P.Krisin har bir lingvistik hamjamiyat o'ziga xos aloqa vositalaridan - tillar, lahjalar, jargonlar va stilistik xilma-xilliklardan foydalanadi, tilda istalgan vositani kod deb atash mumkin.[1] D.Xudayberganova keltirishicha, kod [fr. code < lot. codex – qonunlar majmui] muloqot vositasi vazifasini bajaruvchi har qanday til va uning turli ko'rinishlaridir[2]. Yoki V.P.Gluxov ta'kidicha, axborotni saqlash, uzatish va qayta ishlashda vosita bo'luvchi shartli belgilar, ramzlar va ularning kombinatsiyalari tizimi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda lingvopoetik, kognitiv pragmatik, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Kommunikatsion ehtiyoj yagona sistemaga aylangan o'zaro ta'sir qiluvchi kodlarning shakllanishiga sabab bo'ladi: til – tovushli nutq – ichki nutq – ong. Ushbu tizim o'zini o'zi tartibga solish va o'zini o'zi takomillashtirishga qodir. Til ongda ikki diskret kodning qarama-qarshiligidan aralash kodni - ichki nutqni keltirib chiqaradi, uni nafaqat til va ong o'rtasida, og'zaki va yozma nutq o'rtasida, balki milliy tillar o'rtasida ham vositachiga aylangan universal – predmet kodi deb hisoblash mumkin[4]. I.N.Gorelov universal – predmet kodi tafakkurning tilga aylanish bosqichida vositachilik vazifasini bajarishini ta'kidlaydi[5].

Axborot beruvchi har qanday "ma'lumot" tilning ma'lum bir vositasi yordamida kodlashtiriladi, qabul qiluvchi ushbu axborotni dekodlaydi. "Kod haqida gapirganda muhim bir jihat e'tiborga olinishi lozim – kodlashtirilgan axborot – shifrlangan axborotdir, bunda deshifrovka bosqichi bo'lishi shart[6]. Qoidaga asosan kod yechilishi lozim, masalan, axborot mazmunini idrok qilish uchun faoliyat maqomi, ijtimoiy maqom va madaniy maqomga xos bilimlarga egalik lozim. M.L.Kovshova ta'biri bilan aytganda, kod belgilar sinfini hamda ularning interpretator tomonidan «o'qilish» qoidalarini ifodalaydi, ular, o'z navbatida, u yoki bu sohadagi bilim, u yoki bu madaniyat bilan, interpretatorning kompetensiyasi bilan shartlangan bo'ladi. Shunday qilib, semiotikada belgi hamda uni mazmunan to'yintiruvchi, interpretator uchun shifrlangan axborotni "o'qish" imkonini beruvchi kod ajratiladi.[7]

Kommunikatsiyada lisoniy birliklarning, ayniqsa, fikrlashning keng qo'llanuvchi oddiy ko'rinishlarini tanlash ma'noning individualligini rad etishga imkon beradi.

[1] Крысин Л.П. Очерки по социолингвистике. – М.: Флинта, 2021. – С.17.
[2] Xudoyberganova D. Antroposentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Tubo nashr, 2022. – B.42.
[3] Глухов В.П. Основы психолингвистики. – М.: АСТ: Астрель, 2005. – С.61.
[4] Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – Москва: Наука, 1982. – С.18-19.
[5] Qarang: Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. –T.: Fan, 2013. – B.16.
[6] Usmanov F.F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol.fan.b-cha fals. d-ri (PhD). ...diss. avtoref. – T., 2020. – B.16.
[7] Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – С. 169.

Masalan, Faxriyor bir she'rida "*qarilikni yengib bo'lmaydi*" mazmunini mahorat bilan "*Erimas uning ham boshidagi qor*" misrasi orqali ifodalaydi. Nasriy matnda esa qarilik belgisini ifodalashda milliy bo'yoq, masalan, yozuvchining individual metaforasi (qor) orqali kodlashtirilgaanligini A.Qahhorning "Asror bobo" hikoyasida kuzatish mumkin. Haydar ota Asror otaga nazar solganda do'stining qariganini anglaydi, buni o'zi ham sezgan Asror ota do'stiga *"Ozibmanmi, qorayibmanmi?"* deganda, Haydar ota *"Mayiz bo'libsan"* deb lutf qiladi.

Semiotik kodlar tarixni inson bilan, ongni ruh bilan gaplashtiradi. Belgi esa insoniyat olamidagi reallik va model[8] sanaladi, "(3, 46) hisoblanadi.: semiotik kodlar orqali o'tmish va o'sha davr odamlarining konseptual olami haqida ma'lumotga ega bo'lamiz, bu ma'lumotlarning ba'zilarini talqin qilish muayyan tarixiy sharoitlarga bog'liq bo'lsa, ba'zilari o'zgarmas bo'ladi. O'zgarmaslik milliy-madaniy birliklarda ko'proq namoyon bo'ladi, masalan, ***mayiz bo'libsan*** jumlasidagi o'zbek xalqining milliy shirinligi darajasiga ko'tarilgan *mayiz* so'zi "qarilik" hosila semasiga ishora qilib, dialogik nutqda bir personajning ikkinchi personajga o'z fikrini maksimal uzatish (kod ostiga yashiringan personaj fikri sifatida, personajning fizik holati markirovkasi sifatida qo'llangan) uchun xizmat qilgan. Talqinlarga ko'ra, "...xitoy elchisi Chjang Chyan tomonidan yurtimizdan Xitoyga mosh (xudou), sedana (humo), sholg'om (xuluobu), oshqovoq (xuguo), turp (xuluobu), kashnich (xusuy, syangtsay), bodom (xutao), anjir, anor olib borib ekilgan. Xususan, tok-uzum (putou) va undan tayyorlanadigan mayiz hamda musallas mil.old. 127-126-yillarda Chjang Chyan Xitoy imperatori Udiga taqdim etgan noyob mahsulot edi. Uzum ekib, undan mayiz va musallas (putou jyu)ni Xitoyning o'zida yetishtirishga imperator shaxsan farmon bergan."[9] Bu yerdagi pragmatik ma'noni, ya'ni Asror boboning juda qarigani aqidagi mazmunni o'zbek kitobxoni "ynecha oladi" – dekodlaydi.

Avvalo, inson so'zning o'zigacha yaratilgan ma'nolarini o'zlashtiradi, shundan keyingina ushbu ma'nolar tizimini yanada rivojlantirish jarayonida ishtirok etadi. Fikr yakka kishi tomonidan emas, balki kishilarning hamkorlikdagi faoliyatida rivojlanadi. N.I.Jinkin ta'kidicha, muayyan fikrlar tizimini yanada rivojlantirish uchun bir shaxsning intellektual mehnati natijalarini boshqasining ongiga "ko'chirish" kerak, ya'ni o'zlashtirilishi kerak. Bunda til fikrning «transportyori» bo'lsa, nutq uning realizatoridir. Nutq tilga qaraganda behisob ma'lumotni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, kodni ikki ma'noda tushunish mumkinligini ta'kidlaydi, agar belgilar sistemasiga nisbatan qo'llansa, bunday holda, til – koddir. Ammo kodni tilni yuzaga chiqaruvchi usul deb ham atash mumkin[10]. Shu tarzda fikrlar yangi-yangi semantik strukturalar, ifodalar bilan boyib, kengayib boraveradi.

[8] Кнабе Г.С. Семиотика культуры: Конспект учебного курса. – М.: Рос.гос.гуманит.ун-т, 2005. – С.46.
[9] Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б.194
[10] Жинкин Н.И. О кодовых переходах во внутренней речи // Вопросы языкознания. – №6. – М.:Наука, 1964. - С.29.

Konseptning verballashuvi jarayonida muallif o‘zi tanlagan birliklar vositasida badiiy axborotni kodlashtiradi, ijodkor ko‘zlagan badiiy axborotini doim kodlaydi. Til madaniyat kodi sanalar ekan, keltirilgan intertekstual elementni badiiy matnda signalga aylantiradi va bu signal o‘quvchining interpretatsiyasida qaytadan namoyon bo‘lib, mazmunni dekodlaydi. Ijodkor o‘z badiiy niyatini retsipientga badiiy asar orqali uzatadi, demak, kodlaydi. Albatta, muallif, birinchi navbatda, retsipient tushunadigan tarzda kodlashi kerak, so‘ngra retsipient uni tushunish uchun asarni dekodlaydi, u badiiy voqelikni har doim ham muallif istagiga ko‘ra badiiy idrok etmaydi.

Borliqda mavjud barcha narsalar falsafiy kategoriya atalmish butun-qism munosabati nisbatiga asoslangan, shu ma’noda, matn va uni tashkil etuvchi birliklar munosabati ham. Matnni tashkil etgan qismlarning mazmuniy yaxlitlik va mantiqiy izchillik tartibida joylashuvi matnni tushunishga xizmat qiladi.

Lingvopoetika har bir til birligining poetik ahamiyatga egaligini, kontekstda hosila ma’nolar natijasida semantik xarakteri kengayib borishini o‘rganadi. Ijodkorlikni o‘rnatish – eng muhimidir, poetik til, har qanday ijodkorlik estetik bahoni belgilashi mumkin, bunday paytda til ijodkorlikni estetik nuqtai nazardan ifodalashga yo‘naltiriladi[11]. Badiiy matn o‘zida murakkab sistemalar yig‘indisini jamlagan bo‘ladi. Bir tomondan, bu badiiy matnda umummilliy til vositalarining xususiy tizimi, boshqa tomondan, badiiy matnda maxsus kodlashtirilgan sistema vujudga keltiriladiki, o‘quvchi matnni tushunishi uchun ana shu kodlarni ochishi kerak bo‘ladi[12]. Badiiy matnda qo‘llangan har bir til birligi ma’no qiymatini oshirib borish imkoniyatiga ega ekan, biror bir til birligi o‘zining ichki (semantik) strukturasini to‘la namoyon etgan emas, har doim yangi ma’no tovlanishlarining yuzaga kelishi sababi ham shundan. Masalan, poetik so‘z – g‘ayriixtiyoriy so‘zdir, u doim kodlangan bo‘ladi. Shoir so‘zdan etimologik mazmunni emas, balki obrazli qo‘llanish imkoniyatlari bo‘lgan “yangi etimologik ma’nolar”ni izlaydi va kashf etadi. Bunday poetik tafakkur tildagi “jonsiz” ma’nolarni “tiriltiradi”, quvvatsiz so‘zlarni quvvatlantiradi[13]. Masalan: *Odamga qarayman, so‘zlar uchadi, shabboda qo‘ynida kuy chalar so‘zlar. Maysalar tanini suyib quchadi, O‘zini yo‘qotib dovdirar ko‘zlar*. Shoir nazdida, so‘zlar – insonning o‘zi kabi tirik, inson bu dunyodan o‘tsa-da, yaxshi so‘zi, ezgu amali qoladi, shoir individual kognitiv metaforalarni qo‘llash orqali bu ma’noni kodlaydi: *so‘zlar uchadi, kuy chaladi* yoki *maysalarni suyib quchadi* kabi.

Ko‘p hollarda, nafaqat badiiy matn, har qanday matndagi lisoniy birliklarni ularning mazmuni va ifodasi birligida, aynan nazarda tutilgani kabi emas, uni qabul qiluvchining tezaurusi orqali tushunilishi, uzatuvchi va qabul qiluvchi muloqoti deb qabul qilish lozim. Agar biz badiiy matnni o‘qishni nazarda tutadigan bo‘lsak, unda

[11] Григорьев, В.П. Поэтика слова. На материале русской советской поэзии. – М.: Наука, 1979. – 344 с.
[12] Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. – Ленинград: Просвещение, 1972. – Б.69.
[13] Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. – М., 1959. – С.248.

bizning idrokimiz lingvistik tafakkurning bir tekisligidan boshqasiga o‘tib, ya’ni uzatuvchi va qabul qiluvchi nuqtai nazari kesishmasida yangi bosqichga ko‘tariladi. Badiiy matnda til elementlarining ichki va tashqi ifodasi o‘zgarib, ularga xos bo‘lgan estetik ifoda imkoniyatlari ochilib boradi. Aynan shu bosqichdan boshlab ba’zi so‘zlar lingvopoetik tahlil mavzusiga aylanadi, ular muallifning niyatiga muvofiq estetik o‘zgarishlarga duch keladi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika predmeti badiiy asarda qo‘llaniladigan lingvistik vositalar majmui bo‘lib, uning yordamida yozuvchi o‘zining g‘oyaviy-badiiy g‘oyasini o‘zida mujassam etishi uchun zarur bo‘lgan estetik ta’sirni ta’minlaydi. Masalan, o‘zbek she’riyatida *qayg‘u* va *zor* leksemalarining kontakt qo‘llanishi H.Olimjon ijodida kuzatiladi. Shoir bir she’rida “*Holi zorim og‘ir, yorim, Senda ham* ***qayg‘u zor”*** desa, “Zaynab va Omon” dostonida Zaynab Omondan kim ekanligini, qayerdan ekanligini aytishni so‘raganda Omon shunday deydi: “*Bu so‘rog‘ing jonni qaqshatar, Bu so‘rog‘da* ***qayg‘u, zor*** *yotar*”. Keyinchalik ushbu ma’noviy yaqinlik ikki so‘zning o‘zaro birlashib *qayg‘uzor* shaklida qo‘llanishiga sabab bo‘lgandek go‘yo. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ***qayg‘uzor*** okkazionalizmi saralangan so‘zlardan biri hisoblanadi, *qayg‘uzor* okkazionalizmi dunyo va hayot murakkabliklariga nisbatan metaforik mazmun kasb etgan holda birmuncha faol qo‘llanadi, masalan, U.Hamdam “*Makonim –* ***qayg‘uzor****, Men esa telbadek tentirab Bir quvonch izlayman*” desa, H.Ahmedova ham dunyoga murojaat eta turib *qayg‘uzor* so‘zini qo‘llaydi: “***Qayg‘uzor*** *ichraman, ko‘rayapsanmi, Ey bulut diliga berkingan daryo?!”* Guljamol Asqarova ham “*Toshkentdan poyingga qadar* ***qayg‘uzor****, Bitta nigohingning bahosi – hayot”* tarzida qo‘llagan.

Ushbu okkazional ifoda ilmiy nutqda ham qo‘llanganligini kuzatish mumkin, aytish joizki, agar olim badiiy adabiyot vakili bo‘lsa, tabiiy, ilmiy nutqni ham poetizmlar bezaydi, so‘zning yashab qolishi uchun uning qo‘llanish qamrovini kengaytirish lozim bo‘ladi, bu jihat til sohiblarining mahoratiga bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Ulug‘bek Hamdamovning “Baxt kuychisi”ning g‘amgin nolalari” maqolasida *qayg‘uzor* so‘zi fikr kashfiyotiga asos bo‘lganligini kuzatish mumkin: “*Chunonchi “Ofeliyaning o‘limi" she’rida Hamid Olimjon nafaqat Ofeliyaning, balki o‘zining, umuman, insonning qalbi teranliklarida qatlanib yotgan* ***qayg‘uzorga*** *tushib boradi go‘yo...”.*

Ma’lumki, estetik ta’sir nafaqat asarda aytilganlarga, balki qanday aytilganiga ham bog‘liq. Lingvopoetik tahlilning maqsadi aynan u yoki bu til birligi (bizning holatimizda so‘z) muallif tomonidan og‘zaki va badiiy ijod jarayonida qanday ishtirok etishi, so‘zlarning u yoki bu birikmasi ushbu estetik effektni yaratishga olib kelishini aniqlashdir. Y.M.Lotman har qanday matnni bir vaqtning o‘zida belgi va belgilar

sistemasi sifatida tekshirish lozimligini ta'kidlagan. Matnda belgi, birinchi navbatda, axborotning minimal birligi, axborot yadrosi sifatida belgilanadi[14].

Semantik sath til birligining ma'no qirralari o'rganilishini nazarda tutadi; bu matn yaratilgan tildagi so'zning lingvistik tahlilidir. Lingvopoetika ularning badiiy nutqda faollashuv jarayonini o'rganadi, (bunda asosiy e'tibor ularning bevosita nutqda hosil qiladigan qo'shimcha mazmuni, konnotatsiyalarga qaratiladi).[15] Masalan, "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da *mato(h)* leksemasi *buyum, narsa, mol* leksemalarining sinonimi sifatida izohlangan va "tirikchilik – ro'zg'orda kerakli (qo'llanadigan) predmet" birlashtiruvchi semasiga egaligi aytilgan[16]. Mazkur so'z ko'p o'rinlarda sinonimi bilan almashinib qo'llana olmaydi, masalan: Ro'zg'or ***mollari/ buyumlari/narsalari*** olindi kabi. *Mato(h)* leksemasida belgi me'yordan salbiy munosabatga tomon ko'tarilganligini ko'rish mumkin, masalan: *Yo'ldoshev... o'zi keltirgan* ***matohlarini*** *tez-tez papkasiga solib, kabinetdan tepilgan koptokdek otilib chiqdi*. (A.Muhiddin. Xira.) Yoki "noaniqlik" ma'nosida: *U lattaga o'ralgan allaqanday* ***matohni*** *avaylab ochdi-da, qizga qarab "Bu – bizning kitob!" dedi faxr bilan.* (U.Hamdam, Safar). Ushbu so'z ko'p o'rinlarda zamonaviy tabulashgan birlikka aylangandek ko'rinadi: *farzandlarni yo'ldan ozdiruvchi matoh* (*telefon*); *bu bevafo matohga ishonib bo'lmaydi* (boylik) yoki dunyo); *xavfli matoh* (narkotik modda) kabi. Umuman olganda, leksema "noaniqlik", "zararli", "xavfli", "keraksiz" ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanadi.

T.Silman e'tirof etganidek, badiiy idrok va tasvir yaxlitlikni (voqeani) dastlab alohida qismlarga ajratishni, keyin esa ularni yangi tartib asosida «qaytadan yig'ish»ni taqozo etadi. Lekin tanlangan yangi tartibda «o'zgacha pog'onali munosabatlar, mohiyatlar darajasi va nihoyat, struktur-stilistik xususiyatlar» namoyon bo'ladi[17]. Badiiy matnni to'laqonli filologik jihatdan idrok etish uchun lingvistik vositalarning o'zaro mutanosibligi va ularning badiiy matn kontekstida estetik faollashuvi masalasi favqulodda muhim hisoblanadi. Matnning estetik shakllanishida semantik, metasemiotik va lingvopoetik sath birliklari ishtirok etsa-da, so'z asosiy til birligi sifatida bosh vazifani bajaradi. Barcha til birliklari ahamiyatini mutlaqo inkor etmasdan tilning badiiy ta'sirchanlikni shakllantirishdagi yadroviy o'rnini ta'kidlash joiz. Badiiy matn olamning individual, ijodiy yaratilgan ko'rinishini tashkil etadi. Estetik vazifa bilan shartlangan so'z g'oyaviy-badiiy jihatdan mazmunan boyiydi, murakkab estetik yaxlitlik qonuniyatlari bilan yashay boshlaydi. So'z o'zining mavjud barcha bo'yog'i, ohorlari

[14]Шелковников А.Ю. Метафизика семиосферы // Языковое бытие человека и этноса: психолингвистический и когнитивный аспекты. – Вып. 7. / Под ред. В.А. Пищальниковой. – М.: МГЭИ, 2004. – С. 205.
[15]Kenjayev A.L. Lingvopoetik tahlilning asosiy tamoyillari va tarjima muammolarining talqini // Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand: SamDCHTI, 2019. – B.147.
[16]Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.:Ўқитувчи, 1974. – Б.71.
[17]Сильман Т.И. Структура абзаца и принципы его развертывания в художественном тексте //Теоретические проблемы синтаксиса современных индо-европейских языков. – Л.:Наука, 1975. – С.208.

bilan namoyon bo‘lib, obrazli tafakkur quroliga aylanadi. A.A.Potebnya ta’kidlaganidek, istalgan tilga xos so‘zlarni semantik tahlil qilish orqali so‘zning qabul qilingan ma’nosi butun fikrni emas, balki uning ma’nolaridan birini ifoda etishini anglash qiyin emas[18].

Ma’lumki, so‘zning o‘zi kabi uning ma’nosi muvaqqat, muayyan ijtimoiy omillar sabab so‘zning dastlabki ma’nosi yo‘qolib, etimon ma’noga aylanadi. To‘g‘ri, bu xususiyatni barcha so‘zlarga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi, milliy tilga xos bo‘lgan, millatning ma’naviy dunyoqarashini aks ettiruvchi shunday so‘zlar borki, ular o‘z o‘rnini boshqa so‘zlarga bermaydi yoki o‘z ma’nosining unutilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Masalan, “Devonu lug‘otit-turk” asarida keltirilgan *qut-baraka* juft so‘zi tarkibida qo‘llanuvchi, “baxt”, “davlat” ma’nolarini anglatuvchi turkiycha *qut*[19] so‘zini olaylik. Hozirgi o‘zbek tilida aynan shu shakl alohida qo‘llanmasa-da, juft so‘z tarkibida, masalan, *qo‘r-qut, qut-baraka* tarzida ishlatiladi yoki ushbu so‘z asosida yasalgan *qutlamoq, qutlug‘* kabi yasalmalar qo‘llanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *qo‘r-qut* juft so‘zining birinchi qismining ma’nosi alohida izohlangan, demak, *qo‘r* so‘zi omonim so‘z bo‘lib “mayda cho‘g‘ aralash issiq kul” (1) hamda “yig‘ib, to‘plab, g‘amlab qo‘yilgan kerakli narsa; zaxira, boylik” (2) ma’nolarida qo‘llangan. Buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy asarlarida esa so‘zning “issiq kul” va “miltiq dori (porox)” ma’nolarida ishlatilganligi aytiladi. Xalq dostonlarida “boylik” ma’nosida qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin: *Shunda yangi bo‘lgan podsho emasmi, olti ming lashkarni* ***qo‘r****-u qo‘rxonasi bilan, to‘p-u to‘pxonasi bilan, yov-yarog‘i bilan «shu o‘g‘rilarni topasan-da, kelasan, bo‘lmasa kelmaysan»,– deb jo‘natib yuborib edi.*[20]

“Yig‘ib, to‘plab, g‘amlab qo‘yilgan kerakli narsa; zaxira, boylik” ma’nosini ifodalovchi *qo‘r* so‘zi “baxt”, “davlat” ma’nosini anglatuvchi *qut* so‘zi bilan birikib, *qo‘r-qut* tarzida juftlashgan, bugungi kunda ikkala so‘z ham deyarli yakka holda qo‘llanmaydi. *Qo‘r-qut* juft so‘zining ma’nosi ham “O‘TIL”da “yig‘ib, to‘plab, g‘amlab qo‘yilgan kerakli narsa; boylik, zaxira; qut-baraka” deb keltiriladi, demak, bu shakl bugunda keng ist’emolda bo‘lgan *qut-baraka* so‘zining sinonimi sifatida qo‘llanadi. O‘tgan asrning o‘rtalarida ushbu juft so‘z badiiy matnda qo‘llanilgan, masalan, S.Ahmadning “Hukm” qissasida keltirilgan: *Eshon ayaning birdan-bir niyati qo‘lda qolgan* ***qo‘r-qutlarni*** *saqlab qolish, pishib hilvirab turgan eshonni o‘z maskaniga qo‘yib, boyliklariga ega bo‘lish...*

Bilamiz, ozarbayjon xalqining «Kitobi Dada Qo‘rqut» eposi mavjud, “*hazrati Rasul alayhissalom zamoniga yaqin paytda Bayot naslidan Qo‘rqut ota degan er dunyoga keldi. U kishi O‘g‘uzning bilguvchisi edi, o‘g‘uz ichida uning bir karomati*

[18] Потебня А.А. Мысль и язык // Поли. собр. соч. – Одесса, 1922. Т. 1. – С.82.
[19] Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. – T.: O‘zFA nashriyoti, 1960. – B.311.
[20] Yo‘ldosh Fozil o‘g‘li. Shirin bilan Shakar. Kuntug‘mish. Orzigul. Dostonlar. Nashrga tayyorlovchi M.Shayxzoda. – T.:Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975. – B.251.

zohir bo‘lmish edi, ne desa bo‘lardi, g‘oyibdan turli xabar so‘ylardi, Yaratganning o‘zi uning qalbiga ilhom solardi”[21]. Qo‘rqut ota obrazi o‘g‘uz qavmining mushkulini hal etuvchi, qavm maslahatboshisi, oqsoqoli, muxtasar aytganda, o‘lmas, abadiy hayot kechiruvchi qahramon sifatida gavdalantirilgan. Demak, *qo‘r, qut* so‘zlari nafaqat juft so‘z, qo‘shma so‘z shaklida antroponimni hosil qilgan. O‘zbek xalqining “*Hut kirdi – qut kirdi*” xalq maqolida so‘z ma’nosi aniq anglashinib turibdi.

Badiiy asarning qimmati shundaki, ijodkorlar poetizm yaratish maqsadida iste’molda bo‘lmagan, unutilgan (eskirgan) so‘zlarga ehtiyoj sezishadi, natijada unutilgan ma’nolarning ulkan, cheksiz imkoniyatlari ko‘zga tashlanadi, ijodkor konseptual olami obrazlilikni yanada rivojlantirishning muayyan nuqtalarida ularni yodga oladi va so‘zlar yangi kontekstda yangi hosila ma’no bilan “hayotga qaytadi”. Hech narsa mutlaqo jonsiz emas: har bir ma’no o‘zining qaytadan jonlanganligini nishonlaydi, faqat o‘rtada vaqt muammosi bor[22]. Ajdodlarimiz qo‘llagan, biroq bugun unutilgan ayrim so‘zlar so‘z ustalari sabab badiiy adabiyotga olib kirilib, qayta jonlanib, o‘tmish va bugunni bog‘lamoqda. Ulug‘bek Hamdam *“She’r – sog‘aymoq qasdida ichilgan* ***iloch****”* misrasida qo‘llagan *iloch* so‘zini “Ota” romanida ham qo‘llaydi (***Iloch****ning ta’sirida Sevinch tuni bilan qotib uxladi*), har ikki o‘rinda ham *iloch* so‘ziga “dori” deb izoh beradi. Ma’lumki, ushbu so‘zning omonimi mavjud bo‘lib, o‘zbek urug‘-qabilalaridan birining nomi sanaladi (X.Doniyorov «O‘zbek xalqining shajara va shevalari»). U.Hamdam bugungi turk tilida “dori” ma’nosini beruvchi *ilaç* (iloch) so‘zini qo‘llash orqali turkiy qavmlar tilida qo‘llangan arxaik so‘zga qayta “jon bergan”. Ushbu so‘zning poetik matnda poetizm darajasiga ko‘tarilganligini inkor etmagan holda, nasriy matnga olib kirilganligini ijobiy baholab bo‘lmaydi.

Xulosa va takliflar. Badiiy matnni yaxlit filologik tadqiq etish uchun badiiy matnda lingvistik vositalarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning estetik vazifasi masalasi juda muhimdir. Til sathlarida mavjud har bir birlikning matnni g‘oyaviy-estetik tashkil etishdagi ahamiyatini pasaytirmasdan aytish mumkinki, eng asosiy o‘rinni har doimgidek leksika, ya’ni leksik birlik egallaydi. Badiiy ta’sir kuchining so‘zda mujassamligi badiiy kontekstda so‘z nafaqat real voqelikka, yozuvchining badiiy maqsadi bilan shartlangan holda, matnni estetik ma’no bilan boyitadi, murakkab estetik butunlik qonunlariga muvofiq yashay boshlaydi.

[21] https://ziyouz.uz. Ulug‘ov A. Qo‘rqut ota hikmatlari.
[22] Бахтин М.М. Творчество словесного исскусство. – М.: Искусство, 1986. – С.373.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Крысин Л.П. Очерки по социолингвистике. – М.: Флинта, 2021. – С.17.
2. Xudoyberganova D. Antroposentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Tubo nashr, 2022. – B.42.
3. Глухов В.П. Основы психолингвистики. – М.: АСТ: Астрель, 2005. – С.61.
4. Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – Москва: Наука, 1982. – С.18-19.
5. Usmanov F.F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol.fan.b-cha fals. d-ri (PhD). ...diss. avtoref. –T., 2020. – B.16.
6. Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – С. 169.
7. Кнабе Г.С. Семиотика культуры: Конспект учебного курса. – М.: Рос.гос.гуманит.ун-т, 2005. – С.46.
8. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б.194
9. Жинкин Н.И. О кодовых переходах во внутренней речи // Вопросы языкознания. – №6. – М.:Наука, 1964. - С.29.
10. Григорьев, В.П. Поэтика слова. На материале русской советской поэзии. – М.: Наука, 1979. – 344 с.
11. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. – Ленинград: Просвещение, 1972. – Б.69.
12. Винокур Г.О. Избранные работы по русскому языку. – М., 1959. – С.248.
13. Шелковников А.Ю. Метафизика семиосферы // Языковое бытие человека и этноса: психолингвистический и когнитивный аспекты. – Вып. 7. / Под ред. В.А. Пищальниковой. – М.: МГЭИ, 2004. – С. 205.
14. Kenjayev A.L. Lingvopoetik tahlilning asosiy tamoyillari va tarjima muammolarining talqini // Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand: SamDCHTI, 2019. – B.147.
15. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т.:Ўқитувчи, 1974. – Б.71.
16. Сильман Т.И. Структура абзаца и принципы его развертывания в художественном тексте //Теоретические проблемы синтаксиса современных индо-европейских языков. – Л.:Наука, 1975. – С.208.
17. Потебня А.А. Мысль и язык // Поли. собр. соч. – Одесса, 1922. Т. 1. – С.82.
18. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. – T.: O‘zFA nashriyoti, 1960. – B.311.
19. Yo‘ldosh Fozil o‘g‘li. Shirin bilan Shakar. Kuntug‘mish. Orzigul. Dostonlar. Nashrga tayyorlovchi M.Shayxzoda. – T.:Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975. – B.251.
20. https://ziyouz.uz. Ulug‘ov A. Qo‘rqut ota hikmatlari.
21. Бахтин М.М. Творчество словесного исскусство. – М.: Искусство, 1986. – С.373.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING IQBOLLI OLIMASI

Raupova Laylo,
Renessans ta’lim universiteti,
professor, filologiya fanlari doktori
Yusubova Ra’no,
Renessans ta’lim universiteti,
professor, filologiya fanlari doktori

Zamonaviy tilshunoslik fani vakillari eng so‘nggi nazariy qarashlar va ilg‘or metodologiyalarni tatbiq etgan holda, tilning ichki tuzilishi, uning ijtimoiy, psixologik va madaniy tabiatini chuqur o‘rganishga intilmoqdalar. Tilning mohiyatini anglash, uning qonuniyatlarini aniqlash va inson tafakkuri bilan bog‘liqligini ilmiy asosda talqin etish kabi mas’uliyatli vazifani ado etish har bir tilshunosdan katta ilmiy salohiyat, teran fikrlash hamda yuksak ma’naviy e’tiqodni talab etadi. Ana shunday ilmiy salohiyat, milliy tafakkur va so‘zga sadoqat uyg‘unligini o‘z shaxsida mujassam etgan tilshunos olimalardan biri, shubhasiz, professor Kurbanova Muhabbat Matyaqubovnadir.

Filologiya fanlari doktori, professor Kurbanova Muhabbat Matyaqubovna 1965-yil 9-noyabrda Xorazm viloyati Hazorasp tumani Pichoqchi qishlog‘ida ziyoli oilasida tavallud topgan. Millati – o‘zbek. 1988-yilda ToshDU (O‘zMU) ning o‘zbek filologiyasi fakultetini imtiyozli diplom bilan tamomlagan.

M.M.Kurbanova 1988-yilda o‘qishni bitirgach, kunduzgi bo‘lim aspiranturasiga tavsiya etilgan, 1993-yilda ToshDU (hozirgi O‘zMU) o‘zbek filologiyasi fakulteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi lavozimiga qabul qilinib, mazkur kafedrada 1994-1998-yillarda dotsent vazifasini bajaruvchi, 1998-2001-yillatda dotsent, 2011-2015-yillarda professor, 2015-2016-yillarda kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat yuritgan. 2016-2018-yillarda Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAUda kafedra mudiri, 2019-2020-yillarda Turkiya jumhuriyatning Niyda Omar Xolisdamir universitetida professor, 2021-yildan hozirga qadar O‘zbekiston Milliy universitetida kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

1993-yilda Muhabbat Matyakubovna “Fitratning tilshunoslik merosi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida Fitratning o‘zbek tili fonetikasi, imlo muammolari, orfografiyasi, leksikasi, morfologiyasi, sintaksisiga doir qarashlarini chuqur o‘rganish pirovardida fanga noyob ma’lumotlarni taqdim etadi, ayniqsa, olimning “Sarf” va “Nahv” asarlarining hozirgi tilshunoslikdagi nazariyalar bilan mos kelishi ilmiy asoslarda ko‘rsatib bera olgan.

O‘zbek tilshunosligida struktur yo‘nalishlar ikki guruhga ajratilib, ulardan birinchisining tadqiq yo‘nalishi «formal-funksional yo‘nalish» deb nomlangan bo‘lsa,

2001-yilda ushbu yo‘nalishda M.Qurbonovaning “O‘zbek tilshunosligida formal-funksional yo‘nalish va sodda gap qurilishining talqini” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilindi. Olima formal-funksional yo‘nalishni struktur tilshunoslikning funksional tarmog‘ini 5 ta asosiy tahlil tamoyillaridan iboratligini quyidagicha asoslaydi: 1) lisoniy birlikning zotiy (substansional) tabiati; 2) har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigmaga mansubligi; 3) lisoniy birlikning barcha bosqichlarida oraliq uchinchining mutlaqligi; 4) lisoniy tizimning iyerarxik (pog‘onaviy) qurilishi; bu iyerarxiyada har bir bo‘g‘inning nisbiy mustaqilligi va uzvlarining gipo-giperonimik munosabatlar bilan ochiq mikrosistema sifatida o‘zaro bog‘lanishi; 5) har bir lisoniy birlikning o‘z xususiy sinonimik va graduonimik qatorga ega bo‘la olishi va bu qatorlarning umumiy lisoniy sistema va mikrosistemalarga, ularning strukturasiga bevosita aloqador emasligi kabi.

2011-yilda Kurbanova Muhabbat Matyaqubovna professor ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan.

M.M.Kurbanova 2001-yildan hozirga qadar nufuzli ilmiy kengashlar va komissiyalar tarkibida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda: O‘zR FA Til va adabiyot instituti huzuridagi ixtisoslashgan kengash a’zosi, O‘zMU huzuridagi ixtisoslashgan Kengash raisi o‘rinbosari, O‘zR FA Til va adabiyot instituti huzuridagi Birlashgan ixtisoslashgan kengashning Ilmiy seminari a’zosi, tilshunoslik fani bo‘yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari mavzularini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi a’zosi, shuningdek, O‘zR BM huzuridagi Davlat Test Markazi tarkibidagi “Oliy ta’lim hamda kadrlar malakasini qayta tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilish” bo‘limi ekspert komissiyasi a’zosi, Respublika FTDQning filologiya bo‘yicha ekspert guruhi a’zosi, Xalq ta’limi vazirligi Respublika Ta’lim Markazi o‘quv-uslubiy kengashi a’zosi. O‘zMU qoshidagi Ixtisoslashgan Kengash Ilmiy seminari raisi va boshqalar.

Muhabbat Matyakubovna 300 ga yaqin ilmiy, o‘quv-uslubiy ishlar: jumladan, 4 ta monografiya, 6 ta darslik, 20 ta o‘quv qo‘llanma, maqola va tezislar muallifi.

M.M.Kurbanova hammualliflikda yaratgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasi uchun “Yilning eng yaxshi darsligi o‘quv adabiyoti muallifi” Respublika tanlovi g‘olibi (2007-yil), 2011-yilda esa “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligi uchun “Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti muallifi” Respublika tanlovi g‘olibi bo‘lgan. Shuningdek, quyidagi darslik va qo‘llanmalar muallifi hisoblanadi:

M.M.Kurbanova ustoz-shogirdlik faoliyati davomida ko‘plab tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qilgan, olima rahbarligida 1 ta doktorlik, 3 ta nomzodlik va 20 ga yaqin PhD dissertatsiyalari himoya qilingan.

O‘zR XTB tomonidan 2005-2009-yillarda o‘tkazilgan “Yangi tarixdagi Davlat ta’lim standartlari, modernizatsiya qilingan o‘quv dasturlari” ni tajriba sinovdan o‘tkazish

bo‘yicha “Ona tili” fanidan ilmiy rahbar, 2009-2011-yillarda o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi bosqichdagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani bo‘yicha tajribasini ishlariga ilmiy rahbar sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

M.M.Kurbanova 2007-yilda “Iste’dod” jamg‘armasi tanlovida g`olib bo`lgan. Granti sovrindori sifatida o`sha yili Malayziyaning MARA Texnologiyalar universitetida malaka oshirgan.

Muhabbat Kurbanova xalqaro miqyosda e’tirof etilgan olimadir. Olima Qozog‘iston (1999, 2006, 2018, 2020, 2021, 2022, 2023), Malayziya» (2007), Turkiya (2004, 2008, 2012, 2017, 2019, 2020, 2021, 2022, 2023, 2024, 2025), Rossiya (2013, 2021, 2022, 2023), Ozarbayjon (2019, 2024), Ispaniya (2022) davlatlarida bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanlarda ma’ruzalar qilish orqali o‘zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyoti va istiqbollarini dunyo ilmiy jamoatchiligiga taqdim etib kelmoqda hamda o‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Muhabbat Matyakubovna xorijlik mustaxassislar bilan ham muntazam hamkorlik qilib keladi, turkiyalik mutaxassislar bilan hammualliflikda “O‘zbek Turkchasi” kitobini e'lon qilgan (Turkiya, Istanbul, 2019), 2017-2018-yillarda (“Turkiyadan tashqaridagi turkologlar” deb nomlagan ensiklopedik kitobni nashr qilishda redkollegiya a’zosi va muallif sifatida ishtirok etgan. Shuningdek, “Turk lahjalari va adabiyotlari” (Turkiya), “Homereos” (Turkiya), “Yevrosiyo ijtimoiy instituti xabarlari” (Qozog‘iston) kabi xalqaro jurnallarda tahririyat a’zosi.

Kurbanova Muhabbat Matyakubovna 2019-2020-yillarda OTMlar o‘rtasidagi ikki tomonlama shartnoma asosida Turkiyaning Niyda Omar Xolisdemir universiteti Fan va adabiyot fakulteti hozirgi turkiy tillar va adabiyotlari bo‘limida professor lavozimida faoliyat olib bordi. Shuningdek, bugungi kungacha Al-Farobiy nomidagi Qozoq Milliy universitetda, Gumilev nomidagi Yevroosiyo Milliy universiteti hamda Anqara universiteti kabi TOP 1000 talqindan joy olgan 30 nufuzli oliy ta’lim muassasalarida ma’ruzalar o‘qib kelmoqda.

Olimaning ilmiy faoliyati, nazariy qarashlari va tadqiqotlarida o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini ochib berish, milliy tilshunoslikni zamonaviy lingvistik konsepsiyalar asosida rivojlantirishga bo‘lgan intilish yaqqol namoyon bo‘ladi, o‘z ilmiy izlanishlarida til va tafakkur, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur tahlil etadi hamda o‘zbek tilining ichki qonuniyatlarini ilmiy asosda yoritish orqali tilshunoslik fanining nazariy va amaliy rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlardan biridir.

Ustoz bu yil qutlug‘ 60 yoshni qarshilamoqda, umrining ayni zakovat va hikmatga to‘la yoshida ham yoshlikka xos izlanuvchanlik va shijoat bilan mehnat qilayotir. Ishonamizki, olima hali uzoq yillar Vatanimiz ilm-fani, oliy ta’lim tizimi rivojiga munosib ulush qo‘shishdek sharafli vazifani ado etishga kamarbasta bo‘ladi.

BUXORO O‘G‘UZ SHEVASINING O‘RGANILISH TARIXIDAN

Allaberdiyev Alijon
Navoiy davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: *Buxoro o‘g‘uz shevalari o‘tgan asrning 60-70-yillarida o‘rganish boshlangan bo‘lsa-da, hududni keng ko‘lamda qamrab olmagan. Hudud shevasi haqida ba’zi hollarda bir-birini inkor etuvchi fikrlar bildirilganligini inobatga olsak, bu shevani o‘rganilishi asosiy kun tartibidagi o‘rganilish lozim bo‘lgan sheva hisoblangan. Maqola muallif tadqiqotiga qadar sheva oid olib borilgan izlanishlar haqida fikr bildiriladi.*

Abstract: *Although research on the Bukhara Oghuz dialects began in the 1960s–70s, it did not comprehensively cover the entire region. Since, in some cases, contradictory opinions were expressed regarding this regional dialect, its study was regarded as an important task on the main research agenda. This article reviews the studies conducted on the dialect prior to the author’s own research.*

Ushbu monografiya 2005 – 2025-yillarda Buxoro viloyatining Qorako‘l, Olot va Jondor, Romiton, Peshko‘, Shofirkon, Kogon hamda Buxoro tumanlarining ayrim hududlaridagi istiqomat qiluvchi o‘g‘uz o‘zbeklari shevasini o‘rganish maqsadida olib borilgan dialektologik ekspeditsiya jarayonida yig‘ilgan materiallar asosida amalga oshirilgan. Yig‘ilgan manbalarni muallifning shu hudud farzandi bo‘lib uzoq yillar jarayonida kuzatishlari, aholi orasida (keksa avlod bilan) ko‘plab olib borilgan suhbat va uchrashuvlari, sheva aholisi urf-odati bilan bog‘liq marosimlarning video kadrlar hamda ovozi yozib olingan turli mavzudagi matnlar va hikoyalar tashkil etadi.

Monografiya mazkur hududlarga tarqalgan o‘g‘uz o‘zbeklari shevalarining morfologik hususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Monografiyada har bir so‘z turkumi alohida talqin qilinib, ularning boshqa o‘g‘uz o‘zbek shevalari bilan aloqasi, jumladan, Xorazm o‘g‘uzlari, Janubiy Qozog‘istondagi o‘g‘uzlar bilan bog‘liqlik tomonlari va turkman tili hamda uning shevalariga bo‘lgan munosabati, uning bir-biriga ta’sir darajasi atroflicha yoritildi. Bundan tashqari, Buxoro o‘g‘uz shevalarida so‘zlarning affiksal va kompozitsiya usulida yasalish yo‘llari hamda o‘zbek adabiy til nuqtai nazaridan umumiy tomonlari tavsif etildi.

Buxoro hududida yashaydigan o‘g‘uz o‘zbeklari 2024-yil statistikasiga asosan, o‘rganganimizda taxminan 300000 nafardan oshadi. Asosiy sheva vakillari viloyatning janubi bo‘lgan Qorako‘l va Olot tumanlarida asrlar davomida yashab istiqomat qilsa, qishloqlari soni esa 250 tadan ortiqni tashkil etadi. Ammo so‘nggi yillarda Qorako‘l va Olot tumanlari markazlariga va o‘zbek adabiy tilida so‘zlashuvchi hududlar aholisi

bilan chegaradosh bo‘lgan qishloqlar shevasiga ta’siri qilayotgan omillardan hisoblansa, globallashuv jarayoni esa o‘zbek adabiy tili bilan Buxoro o‘g‘uz shevalarida kuchli assimilyatsiyani yuzaga keltirmoqda. Mazkur hududda turkman va tojik tili shevalarida so‘zlashuvchi aholi bir qancha qishloqlarda yashab istiqomat qilishini alohida qayd qilish lozim. Hozirgi kunda o‘g‘uz shevalarida so‘zlashuvchi ayrim qishloqlarning aholisi o‘zining kelib chiqishini arab va totlarga taqashadi.

Buxoro viloyatidagi o‘g‘uz lahjasi vakillarining tarixan kelib chiqishiga munosabat ilmiy adabiyotlarda turli-tuman fikrlar beriladi. M.Mirzayev va I.Shamsiddinovlar Buxoro o‘g‘uz shevalarini o‘ziga xos lahja sifatida e’tirof etishsa, O.Madrahimov va D.Abdurahmonov o‘zbeklashgan turkmanlar deb bilishadi[23]. Ushbu holatlarga e’tibor qaratilib, Buxoro o‘g‘uz shevalarining lisoniy o‘ziga xosliklari turkman tili va shevalaridagi o‘xshash lisoniy dadillar bilan qiyoslandi. Buxoro o‘g‘uz shevalari va turkman tili o‘rtasidagi lisoniy ta’sirlar, mushtarak ko‘rinishdagi lisoniy holatlarning yuzaga kelish sabablari hamda Buxoro o‘g‘uz shevalariga xos til xususiyatlari har taraflama tahlil qilindi. Buxoro o‘g‘uz shevalari morfologiyasining turkman tilidan farq qiluvchi tomonlari ko‘rsatildi.

Buxoro o‘g‘uz shevalari to‘g‘risida ilmiy ma’lumotlar XIX asrda yashab, kelib chiqishi qorako‘llik bo‘lgan lug‘atshunos olim Shayx Sulaymon Buxoriy “Lugat-i Çağatay ve Türkî-i Osmânî” lug‘atida hudud shevasida uchrovchi ko‘pgina leksik birliklar izohlanadi. Buxoro viloyatining Qorako‘l tuman o‘g‘uz shevasini nomzodlik dissertatsiyasi tarzida o‘rgangan I.I.Shamsiddinovning ta’kidlashicha, Qorako‘l tumanidagi o‘g‘uz shevalari to‘g‘risidagi ashyoviy lisoniy dalillarni birinchilardan bo‘lib, Buxoro davlat pedagogika institutining katta o‘qituvchisi Qayum Baqoyev 1956 – 1958-yillarda yig‘a boshlagan. Ammo bemahal o‘lim olimga boshlagan ilmiy ishini oxiriga yetkazishga imkon bermagan. Olimning yozishicha, Q.Baqoyev materiallaridan tanishishga imkon bo‘lmagan. Shu sababli, “O‘zbek tilining Qorako‘l shevasi” nomli dissertatsiyasini yozishda Q.Baqoyev ishlaridan umuman mutlaqo faydalanmaganligini ko‘rsatib o‘tadi[24].

“O‘zbek tilining Buxoro guruh shevalari” bo‘yicha monografik yo‘nalishda yirik yirik ilmiy tadqiqot olib borgan filologiya fanlari doktori, professor M.M.Mirzayev ham Buxoro o‘g‘uz shevalari yuzasidan o‘z-fikr munosabatlarini bayon qilgan[25]. Buxoro hududida yashovchi – “sof” o‘zbek tilida (“bir tilli” shevada) so‘zlashuvchi aholi Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanida (Sobiq Olot tumani ham shunga kiradi), Romitan tumaniga qarashli Sepata, Qorali, Chelang‘u qishloq kengashlarining ayrim qishloqlarida, Gazli shaharchasi atrofida (Qoqishtivon), Shofirkon tumanining Chandir

[23] Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. – Тошкент: Фан. – 1969. 13 – 15-бетлар; Шамсиддинов И. Қоракўл шеваси лексикасидан // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан. – 1966. 430 – 439-бетлар; Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент: Фан. – 1973. 12-бетлар; Абдураҳмонов Д. Бухоро областьўғуз шевалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1981. 18 – 24- бетлар;

[24] Шамсиддинов И.И. Каракульский говор узбекского языка. Кандидатская диссертация. – Ташкент: 1965, стр.1.

[25] Мирзаев М. Формы глагола настаящего времени в Бухарских говорах узбекского языка // Вопросы тюркологии. Тошкент, Фан, 1965, стр 70-71. Ўша муаллиф. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. Тошкент, Фан, 1969, 13–15-бетлар.

qishloq kengashida, Buxoro tumanining Losha, Xargo‘sh, Xumin, Xumdonak qishloq kengashlari hududiga qarashli qishloqlarda yashaydilar. O‘g‘uz lahjasiga taalluqli bu o‘zbeklar o‘z avlodlari mansub bo‘lgan urug‘-qabilalarni – olot, bayot, jig‘achi, darg‘ali, janafar, qoroun, qorovul, sayot, solir, ersari, chandir, eski, tomijiq, burjoq kabilarni yaxshi eslaydilar, deb ta’kidlaydi olim[26]. M. Mirzayev asosiy diqqat-e’tiborni o‘g‘uz shevasining fonetik-morfologik xususiyatlarini muxtasar sanab o‘tishga qaratadi. O‘g‘uzlarga xos ushbu holatlar qisqa, lo‘nda sanab o‘tiladi-da, o‘ntagina leksikaga oid misol keltiriladi.

O‘g‘uz shevalari tarqalish darajasiga ko‘ra qorluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga kiruvchi Buxoro dialekti (“bir tilli” va “ikki tilli” shevalarni birlashtiruvchi) va qipchoq shevalaridan keyingi o‘rinni egalashi ta’kidlanadi[27].

Mahalliy o‘g‘uz shevasi, shuningdek, qipchoq laqjasi vakillari nutqi o‘zbek tilining boshqa hududlaridagi o‘g‘uz va qipchoq shevalari vakillarining nutqidan sezilarli darajada farq qilishi qayd qilinadi. Eng avvalo, har ikkala shevada singarmonizm hodisasi ancha kuchsizlanganligi, uyg‘unlikning qo‘shimchalarda, xususan, sifatning qiyosiy daraja shaklida, fe’l tuslovchilarida ayrim hollarda saqlanmasligi kabi holatlar mavjudligi yuqorida qayd qilingan fikrlarning isboti bo‘la oladi. Masalan, “qattiq” va “yumshoq” o‘zak-negizlarga birgina – *rəq* qo‘shimchasi qo‘shilib keladi: *yaxshırəq, qattırəq, kəttərəq, kəkrəq // gəkrəq*. Singarmonizm qonuniyatiga ko‘ra qo‘shimcha – *rək* ko‘rinishida bo‘lib, o‘zakka *kəttərək, kəkrək // gəkrək* tarzida qo‘shilishi kerak edi, deb mulohaza yuritiladi.

O‘g‘uz shevalarida asosan, so‘z boshida *t* va *k* undoshlarining jarangli aytilishi, ya’ni “d” lashish va “g” lashish hodisasi tub xususiyat hisoblanadi. Lekin bu jarayonning Buxoro o‘g‘uzlari nutqida tobora kamayib, qisqarib borishi kuzatilmoqda. Qorako‘l tumanining chekka qishloqlarida *durdı, dikish, dikən, gəldi // geldi, gitəmən* misollari tuman markazi va uning atrofidagi qishloqlarda *turdı, tikish, tikən, keldı // kəldı, ketəmən* tarzida qo‘llana boshlanganligi olim tomonidan uqtiriladi.

Umumiy kuzatishlar asosida, M. Mirzayev Buxoro viloyatidagi o‘g‘uz lahjasining asosiy xususiyatlari sekin-asta yo‘qolib borayotganligiga, bir tomondan, Buxoro dialektining ta’siri sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan, adabiy tilning kuchli ta’siri sabab bo‘lyapti. Shu sababli, viloyatdagi o‘g‘uz shevasini hozirgi holatiga ko‘ra “aralash” (yoki” o‘tkinchi”) sheva deyish to‘g‘ri bo‘lardi. Biz tadqiqotimizning asosiy ob’ekti qilib Buxoro dialektini oldik. Viloyatdagi o‘g‘uz shevalari to‘g‘risida qisqacha tavsif berish bilan cheklandik. Mahalliy o‘g‘uz shevasi to‘g‘risida I.I. Shamsiddinov tomonidan maxsus tadqiqot ishlari olib borildi, deb M. Mirzayev xulosa qiladi[28].

M. Mirzayev ushbu asarining tegishli sahifalarida Buxoro dialekti materiallarini qiyos sifatida o‘g‘uz shevasining asosiy xususiyatlari bilan taqqoslab borgan o‘rinlar ham bor.

[26] Мирзаев М.М. Кўрсатилган асар. 15-бет.
[27] Мирзаев М.М. Кўрсатилган асар. 18-бет.
[28] Мирзаев М.М. Кўрсатилган асар. 12, 18-бетлар.

I.I.Shamsiddiov o‘zining “O‘zbek tilining Qorako‘l shevasi” nomli dissertatsiyasi avtoreferatida Qorako‘l shevasining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini etnik jihatdan yaqin o‘g‘uz lahjasiga, o‘g‘uz guruhi tillari hisoblangan turkman, gagauz, ozarboyjon va turk tillariga ish jarayonida qichqacha qiyos qilib borganini yozadi[29].

Qorako‘l hududida yashovchi tub aholining shakllanish jarayonida qadim-qadimdan turli-tuman etnik guruhlar qatnashganligi, ular ichida, xususan, o‘g‘uz o‘zbeklarning asosiy rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi.

Qorako‘l Buxoro viloyatining ulkan tumanlaridan hisoblanib, u janub tomondan Turkmaniston davlatining Chorjo‘y viloyati bilan chegaradoshligi, tumanda yuzdan oshiq aholi manzillari mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligi urug‘-qabila nomlari yoki kasb-koriga ko‘ra nomlanishi qayd qilinadi: bayot, chagas, jig‘achi, do‘rmon, solir, sayot, ming, eski, olot, chovdur, jaloyir, mirishkor, qorovul, qoroun, qozon, qullar, chandir, xidireli, arna, yemrali, org‘un, qo‘ng‘irot, mang‘it, janafar, urganji.

Bulardan qorovul, chandir, xidireli, yemrali urug‘lari vakillari nutqida turkman tiliga xos xususiyatlar yaxshi saqlangan, shuningdek, ular o‘zlarining turkman millatiga mansubligini ham tan olishadi. Shu sababli, ushbu qishloq nomlari qayd qilingan hudud aholisi nutqi maxsus tahlil qilinmadi. Ular nutqidan yozib olingan materiallar yo‘l-yo‘lakay qiyos sifatida ishlatildi[30], deb yozadi muallif.

Qorako‘l shevasi vakillari hududiy jihatdan Buxoro viloyatida istiqomat qilishsa-da, ularning til xususiyatlari o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasiga yaqin. Shu bilan birga, shevada qorluq tip Buxoro dialektiga xos jihatlar ham mavjud. Shevaning o‘ziga xos dialektal xususiyatlari Qorako‘l shevasini oraliq, ya’ni o‘zida qorluq tip shevalarga xos xususiyatlarini ko‘paytirib, o‘g‘uz lahjasiga xos shevadan qorluq lahjasiga o‘tayotgan shevaga aylanmoqda. Bunday tip shevalar o‘zbek xalq shevalari tasnifida hozircha qayd qilinmagan. Qorako‘l shevasining o‘ziga xos bu xususiyatlarini o‘zbek tilining Xorazm o‘g‘uz shevalari bilan qiyos qilganda yanada yaqqol ko‘zga tashlanishini I.I.Shamsiddinov ta’kidlaydi[31]. Shundan keyin dissertant, Qorako‘l shevasidagi fonetik-morfologik o‘xshash holatlarni Xorazm o‘g‘uz shevalari bilan qisqacha qiyoslaydi, qisman farqli tomonlarni ko‘rsatadi[32].

Shevaning fonetik tavsifi nomli birinchi bobda Qorako‘l shevasidagi unli-undosh tovushlarning tabiati, ularning o‘ziga xos taraflari, o‘zbek shevalari bilan qiyosi, xususan, Xorazm o‘g‘uz lahjasiga munosabati, birlamchi cho‘ziqlikning Qorako‘lda yo‘qligi kabi fonetik xususiyatlar ko‘rsatiladi[33].

[29] Шамсиддинов И.И. Каракульский говор узбекского языка. Автореферат диссертации на соискание учен. степ. канд. филол. наук. Ташкент, 1965, стр. 3.
[30] Shamsiddinov I.I. Ko’rsatilgan dissertatsiya avtoreferati. 4-bet.
[31] Shamsiddinov I.I. Ko’rsatilgan dissertatsiya avtoreferati. 5- bet.
[32] Shamsiddinov I.I. Ko’rsatilgan dissertatsiya avtoreferati. 5–7- bet.
[33] Shamsiddinov I.I. Ko’rsatilgan dissertatsiya avtoreferati. 7–14- bet.

Shevaning morfologik xususiyatlari nomli ikkinchi bobda Qorako‘l shevasining morfologik jihatlari yoritiladi. Ular Xorazm o‘g‘uz, Buxoro, Samarqand o‘zbek shevalari bilan qiyoslanadi[34].

Shevaning leksik xususiyatlari nomli uchinchi bobda Qorako‘l shevasining lug‘at tarkibi tahlil qilinadi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda qayd qilingan leksika o‘zgarishsiz shevada ishlatilayotganligi ta’kidlanadi. A.K. Borovkovning “XII—XIII asrlardagi O‘rta Osiyo tafsiri leksikasi” asaridan o‘n ikkita misol shevadagi shu xil leksik birlik bilan muqoyasalanadi. Sheva leksikasidagi tojik-fors, arab va rus-internatsional so‘zlar, kasb-hunar sohalariga oid leksik birliklar, sheva leksikasidagi omonim, sinonim va frazeologizmlar tahlil qiinadi[35]. Avtoreferatda ilmiy ish xulosalari keltiriladi. E’lon qilingan to‘rtta ilmiy maqolalar ro‘yxati beriladi.

“O‘zbek tili Qorako‘l shevasining ba’zi fonetik xususiyatlari” nomli maqolada dissertatsiya va avtoreferatda qayd qilingan fonetik holatlarning asosiy turlari yoritilgan[36]. Olimning «Qorako‘l shevasining morfologiyasidan” nomli maqolasida ham dissertatsiya va avtoreferatda qayd qilingan morfologik xususiyatlarning asosiy jihatlari yoritilgan[37]. I.I.Shamsiddinov “Qorako‘l shevasi leksikasi” nomli ishida sheva leksikasidan muxtasar misollar keltiradi. Sheva leksikasi asosini umumo‘zbek tili leksik qatlami tashkil qilishi uqtiriladi. Ular umumturkiy so‘zlar tarzida boshqa tillar bilan qiyos qilinadi. Yozma yodgorliklar bilan sheva leksikasi muqoyasa etiladi. Sheva leksikasidagi tojik, arab va rus-internatsional leksik qatlamlardan namunalar keltiriladi[38].

O.Madrahimov ham o‘zining «O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi» (T., Fan, 1973) asarida Buxoro viloyatidagi o‘g‘uzlar tarqalgan hududlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini shaxsan dialektologik ekspeditsiya tarkibida qatnashmay, balki e’lon qilingan adabiyotlar orqali aniqlaganligini ta’kidlaydi: «So‘nggi 10-15 yil ichida, birinchi navbatda, dialektologlarning tashabbusi bilan Buxoro viloyati hududida ham o‘g‘uz shevalarining vakillari borligi aniqlandi. Prof. M.M.Mirzayev va dotsent I.Shamsiddinovlarning ma’lumotlariga qaraganda, o‘g‘uz sheva vakillari viloyatning Qorako‘l (sobiq Olot tumani ham shunga kiradi) tumanida, Romiton tumaniga qarashli bir qator qishloqlarida, Gazli shaharchasi atroflarida, Vobkent tumanining Chandir qishloq kengashida, Buxoro tumanining ayrim qishloqlarida yashaydilar» (11-bet).

O‘g‘uzlarga xos lingvistik holatlarning mavjudligi ularning, ya’ni shevalarning o‘g‘uz guruhiga mansubligi uchun (masalan, birgina cho‘ziq unlilarning borligi) asos bo‘la olishini muallif ta’kidlab, Xorazm, Chimkent va Buxoro o‘g‘uz shevalarida o‘zaro umumiy o‘xshashliklardan tashqari, ular o‘rtasidagi ayrim farqlar ham sezilarli, «Masalan, Buxoro viloyati hududidagi o‘g‘uz shevalarida «е» (e) lashish bor,

[34] Shamsiddinov I.I. Ko’rsatilgan dissertatsiya avtoreferati. 14–19- bet.
[35] Shamsiddinov I.I. Ko’rsatilgan dissertatsiya avtoreferati. 19–22-bet.
[36] Шамсиддинов И.И. Некоторые фонетические особенности Каракульского говора узбекского языка. // Ученые записки Бухарского госпединститута. Вып. 12. Бухара, 1965.
[37] Шамсиддинов И.И. Қоракўл шеваси морфологиясидан // Ўзбек тилшунослиги ва адабиётшунослигига оид тадқиқотлар. Тошкент, “Фан”, 1965, 206–213-бетлар.
[38] Шамсиддинов И.И. Қоракўл шеваси лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 430–439-бетлар.

Samarqand-Buxoro tipidagi o‘zbek shevalarining juda ko‘p fonetik-morfologik xususiyatlarini o‘zlashtirgan – kelɔpti va boshqalar: *da: ɣы, a:jы, ya: va, ha:va* (tog‘a, achchiq, panshaxa, ha shunday).

Buxoro viloyati (asosan Qorako‘l tumani) hududidagi o‘g‘uz shevalari bilan Xorazm o‘zbeklari tilidagi o‘xshashlik va farqlarning tarixiy ildizini tushuntirish uncha qiyin emas. Yuqorida keltirilgan o‘xshashlikning sababi ma’lum. Buxoro viloyati hududida yashovchi o‘g‘uzlar aslida turkman xalqi tarkibiga kirgan turli-tuman urug‘-qabila nomlarini saqlab qolganlar va hozir ham bu shevalarda turkman tilining juda ko‘p xususiyatlari mavjud (birgina so‘zning birinchi va undan keyingi bo‘g‘inlarida unlilarning qo‘llanishi turkman tiliga mos keladi – g*eledi* – Xivada *gələdi*). Shu bilan bir qatorda, o‘zbek tilining Buxoro shevalariga xos bir qator xususiyatlarni o‘zlashtirganlar (masalan, «e» (e) lashish hodisasi) degan fikrni bildirib o‘tadi (12-bet).

Biroq muallif Xorazm o‘g‘uzlarining Buxoro o‘g‘uz shevalariga xos qanday fonetik, morfologik, leksik xususiyatlar bilan farqlanishini atroflicha yoritmaydi. Turkman tili bilan Buxoro o‘g‘uzlari orasidagi hamohang, mushtarak jihatlarni lisoniy misollar bilan izohlab o‘tmaydi. Buxoro o‘g‘uzlari orasidagi urug‘-qabila nomlari aynan turkman xalqi tarkibiga kirgan urug‘-qabila nomlaridir degan umumiy fikr esa tilshunoslar va mutaxassislarni qanoatlantirmaydi. Tarixdan ma’lumki, o‘zbeklarga mansub 92 bovli urug‘-qabila nomlarining qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman kabi bir qancha turkiy xalqlar oralarida ham mavjudligi adabiyotlarda ko‘rsatilgan (X.Doniyorov. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. T., Fan, 1968, 80-81-betlar).

Iqtidorli shevashunos Do‘stmurod Abdurahmonov ham Buxoro viloyatidagi o‘g‘uz shevalari yuzasidan o‘zining fikr-mulohazalarini «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnalining 1981-yil 6-sonida «Buxoro oblast o‘g‘uz shevalari» nomli maqolasida (18-24-betlar) bayon qilgan. Muallif ushbu maqolasida Buxoro viloyatidagi o‘zbek shevalarini o‘rgangan I.I.Shamsiddinov va M.M.Mirzayevlarning fikrlariga to‘g‘ri tanqidiy munosabatlar bildirib o‘tadi. Masalan, I.I.Shamsiddinov Qorako‘l va Buxoro shevalarida unlilarning qadimgi turkiy yoki birlamchi cho‘ziqligi yo‘q desa, M.M.Mirzayev cho‘ziq unlilar bor deydi. Kelasi zamon fe’lini yasovchi «*jək // jɔq*» qo‘shimchasi haqida ham bu olimlar tomonidan shunday ikki xil fikr aytilgan (Aslida ba’zi qishloqlarda – *jɔq* qo‘shimchasi goho saqlangan: yag‘mir yag‘jɔq, qɯdirb bɔrjɔqmiz (Qulonchi) (20-bet).

Shuningdek, olim o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasiga oid, xususan, Xorazm o‘g‘uzlariga xos ayrim lingvistik xususiyatlarning Buxoro viloyatidagi o‘g‘uz shevalarida uchramasligini qayd qiladi. Uning asosiy sabablaridan biri ushbu regionda tarqalgan va tadqiqotchilar tomonidan «o‘zbek o‘g‘uz shevalari» deb nomlanib kelingan ana shu shevalar aslida (kelib chiqishiga ko‘ra) faqat o‘zbek urug‘-qabilalari zamirida shakllangan o‘zbek shevalari emas. Bu shevalarning vakillari turkmanlardir. Hozir ham ular o‘zlarini biz aslida turkmanmiz. Chorjo‘y turkmanlari esa bizlarni sizlar o‘zbeklashgansizlar deb aytadilar. Darhaqiqat, ushbu regiondagi o‘g‘uzlar tarixan

Turkmanistonning Chorjo‘y viloyatidagi turkmanlar bilan urug‘dosh va qarindosh bo‘lib, hozirgacha ularning bu aloqalari mavjudligini D.Abdurahmonov ko‘rsatib o‘tadi.

Bundan tashqari, maqolada Buxoro o‘g‘uzlari orasida *bayot, chagas, solir, olot, jig‘achi, chovdir, emrali, sayot, koroun, ersari, chandir, arg‘un, janapar, sariq, qulanchi* kabi turkmanlarga xos urug‘ nomlari va bo‘linishlarining hamda antropologik tiplarning yaxshi saqlanganligi ham ularning aslida turkman ekanligini tasdiqlashi uqtiriladi.

Rayonlashtirish davrida Buxoro o‘g‘uzlari yashaydigan hududlarning O‘zbekiston tarkibiga kiritilganligi ham ushbu joylardagi turkmanlarning o‘zbek xalqi bilan doimo aloqa qilishlariga olib kelganligi, o‘quv-o‘qituv, radio, televideniyening o‘zbek tilida berilishi Buxoro turkmanlari tilida katta o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi ta’kidlanadi. Ular nutqidan yozib olingan matn ilova qilinadi. O‘g‘uzlar nutqiga oid ayrim lingvistik misollar keltiriladi. Biroq ularning leksik boyligi haqida maqola muallifi hech qanday ma’lumot bermaydi. Shuningdek, ayrim noto‘g‘ri fikrlar ham maqolada keltirilgan. Masalan, Buxoro o‘g‘uzlari «tillarida anchagina turkmancha elementlar (birinchi bo‘g‘inda (ə)ning saqlanishi: bər, gəl, bədə (ber, kel, beda)» mavjud deyiladi (21-bet). Turkman adabiy tilida bər emas, balki aksincha *«ber», gəl emas «gel», bədə* emas *«bede»* ishlatiladi.

Umuman olganda, D. Abdurahmonovning ushbu maqolasi ilmiy jihatdan ancha pishiq va puxta yozilgan hamda ishimizning borishiga yaxshi amaliy yo‘nalish berdi.

Shuningdek, muallifning Buxoro o‘g‘uzlarining barchasi o‘zbeklashgan turkmanlardir deb qarashlarini biz yig‘gan misollar butunlay rad qiladi[39].

Qayd qilingan ushbu ishlarda Buxoro viloyatidagi o‘g‘uz shevalari o‘z ichiga atroflicha qamrab olingan emas. O‘g‘uzlarga xos umumiy lisoniy jihatlar Olot va Qorako‘l tumanlari asosida olib borildi. Buxoro viloyati o‘g‘uzlarining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari uzviy yo‘nalishda Xorazm o‘g‘uzlari va turkman tili materiallari bilan muqoyasa qilinmadi. Ayniqsa, Buxoro viloyatining Turkmaniston bilan ko‘p asrlardan buyon hududiy jihatdan chegaradoshligi ushbu ikki ob’ektdagi xalqlarning o‘tmishda doimo bir-birlari bilan yaqin aloqada bo‘lib kelganligini, buxorolik o‘zbeklarning Chorjo‘yda, chorjo‘yliklarning Buxoroda qavm-qarindoshlik asoslari ildizlarini barpo qilganliklarini bugungi kundagi o‘zbek-turkman chegarasidagi bordi-keldilar ham tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, chorjo‘yliklarning Buxoroda, buxoroliklarning Chorjo‘yda ming-minglab qarindosh-urug‘lari bor. Ikki o‘rtadagi turli-tuman aloqalar ularning tillaridagi o‘zaro mushtarakliklarning ancha oldin paydo bo‘lishi va rivojlanishiga doimo samarali ta’sir qilib kelgan.

Xulosa qilganda, Buxoro o‘g‘uz shevalarining o‘ziga xos til xususiyatlaridan tashqari, asrlar davomida turkman va tojik shevalarida so‘zlashuvchi aholi bilan turli

[39] Биз бу ҳақда ишимизнинг махсус бобида тўхталганмиз. Бу борада яна қаранг: Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси бўйича кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. Т., 2013,6-сон, 81-86-бетлар.

omillarda o‘zaro aloqalari alohida bir shevani vujudga keltirgan. Bunda fikr bildirgan ayrim olimlar fikriga qo‘shilmagan holda, bu shevani ildizlari bitta bo‘lgan turkman yoki o‘zbek millatiga oid degan tushunchani qo‘llash noo‘rin holat deb hisoblaymiz. Darvoqe, o‘zbek va turkmanlar bir zaminda tutashib, aralashib inoqlikda yashagan joyda rang-barang tillar yoki shevalar assimillyatsiyasi kuzatilishi yoki tilning ijtimoiy holat ekanligini ko‘rsatuvchi noyob hodisadir.

Unli va undoshlar transkripsiyasi:

ɪ – til oldi unlisi, **ï** – til orqa unlisi, **ü** – til oldi unlisi, **u** – til orqa unlisi, **ə** – til oldi unlisi, **a** – til orqa unlisi, **ɵ** – til oldi unlisi, **o** – til oldi unlisi, **e** – til oldi unlisi, **ɔ** – til orqa unlisi, **ğ** – g‘ undoshi, **ŋ**– ng undoshi, **ç** – ch undoshi, **ş** – sh undoshi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. I луғат. II Хоразм шеваларининг таснифи. – Тошкент: ЎзФА нашр., 1961.

2. Абдураҳмонов Д. Бухоро область ўғуз шевалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1981.

3. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Алишер Навоий номидаги Ўзбек тили ва адабиёти университети кутубхонаси. – Тошкент. 2018.

4. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексик қатламлари. – Тошкент: Abu matbuot-konsalting. 2016.

5. Allaberdiyev A. Buxoro o‘g‘uz shevalari leksikasi. – Navoiy: Aziz kitobxon, 2023.

6. Allaberdiyev A. Buxoro o‘g‘uz shevalarining til xususiyati. Doktorlik dissertatsiyasi. Qarshi davlat universiteti kutubxonasi. – Qarshi. 2025.

7. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент: Фан. – 1973.

8. Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. – Тошкент: Фан. – 1969.

9. Мирзаев М. Формы глагола настаящего времени в Бухарских говорах узбекского языка // Вопросы тюркологии. Тошкент, Фан, 1965.

10. X.Doniyorov. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. Тошкент: Fan, 1968.

11. Шамсиддинов И. Қоракўл шеваси лексикасидан // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан. – 1966.

12. Шамсиддинов И.И. Каракульский говор узбекского языка. Кандидатская дисертация. – Ташкент: 1965.

13. Shayx Sulaymon Buxoriy. Lugat-i Çağatay ve Türkî-i Osmânî. – Тошкент: LESSON PRESS. 2019.

"QADRIYAT" MAZMUNIY MAYDONI SISTEMASINING PERIFERIYASI

Zaripov Botir,
Navoiy davlat universiteti dotsenti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri

Annotatsiya. Maqolada "qadriyat" mazmuniy maydonining semantik tuzilishi yadro, markaz va periferik qismlar doirasida tahlil qilinadi. Periferiyaning shakllanishida arxaik ma'nolar, idiomatik birliklar va semantik kengayish jarayonlari izohlanadi. Shuningdek, sema va leksik birliklarning kontekstual ma'nolari tadqiqot metodlari sifatida qo'llanadi. Tadqiqot natijalari "qadriyat" tushunchasining dinamik tabiati va til tizimidagi o'rnini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Til birliklari, sistema va struktura tushunchasi, qadriyat mazmuniy maydoni, periferiya, atov birliklar, umumiy va xususiy semalar**.**

Аннотация. В статье рассматривается семантическая структура смыслового поля «ценность» в рамках ядра, центра и периферии. Поясняются процессы формирования периферии через архаические значения, идиоматические единицы и семантические расширения. Также применяются методы анализа сем, лексических единиц и их контекстуальных значений. Результаты исследования показывают динамическую природу концепта «ценность» и его место в языковой системе**.**

Ключевые слова: Языковые единицы, понятие системы и структуры, смысловое поле «ценность», периферия, номинативные единицы, общие и частные семы**.**

Abstract. The article analyzes the semantic structure of the value field "qadriyat" within its core, center, and periphery. The formation of the periphery is explained through archaic meanings, idiomatic units, and semantic extensions. Methods of analyzing semes, lexical units, and their contextual meanings are applied. The study highlights the dynamic nature of the concept "qadriyat" and its role in the language system**.**

Keywords: Language units, the concept of system and structure, semantic field of "value", periphery, nominative units, general and particular semes.

Tilni tizim sifatida o'rganish va til hodisalarining ichki xususiyatlarini uzviylikda va aloqadorlikda tahlil etish uning sistema ekanligidan va sistemadagi tushunchalarning bevosita va bilvosita munosabati nuqtai nazardan ilmiy tadqiq etish tendentsiyasi mavjud. Til birliklarining tarkibiy qismlari (ularning ifoda plani yoki mazmun plani) sifatida til elementlari mustaqil emas, chunki ular til tizimining faqat ba'zi xususiyatlarini ifodalaydi. Til birliklari til tizimining barcha xususiyatlariga ega va yaxlit shakllanish sifatida nisbiy mustaqillik (ontologik va funksional) bilan tavsiflanadi.

Tilshunoslikdagi "sistema" tushunchasi "struktura" tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Sistema o'rganilayotgan ma'lum mavzu ko'lami hisoblansa, u o'z

birliklarining ichki strukturasi bilan tavsiflanadi. Masalan, "qadriyat" mazmuniy maydonini sistema sifatida tushunsak, uning strukturasi esa maydonni tashkil qiluvchi atov birliklardir. Maydonning tarkibidagi atov birliklar umumiy va xususiy semalar bilan birlashib turadi. Maydonning tuzilishi uni tashkil etuvchi lisoniy birliklar o'rtasidagi semantik tabiatiga ko'ra hamda maydon tizimining ichki strukturasining o'ziga xosligini, uning faoliyat ko'rsatish xususiyatini belgilovchi muntazam aloqalar va munosabatlardan iborat. "Qadriyat" mazmuniy maydonining o'ziga xosligi til birliklari o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarning tabiati bilan belgilanadi. Mazmuniy maydonning leksik munosabatlarini "periferik" munosabat asosida tahlil etish muhimdir. Bu til birliklarining bilvosita bog'liqligi bo'lib, shakl va ma'no jihatidan bir qarashda maydonga aloqasi yo'qdek tuyuladi. Biroq ularning "maxsus" semalari maydonning leksik bazasini tashkil etadi.

"Qadriyat" mazmuniy maydonidagi birliklarning semantik aloqalari til birliklarining bevosita bog'liqligini ko'rsatadigan hamda tilning tuzilishi, tilning ma'lum bir tizimi yoki quyi tizimi doirasidagi ushbu elementlar va birliklar o'rtasidagi bog'liqlik qonuni vazifasini bajaradi. Sistemaning dinamiklik va o'zgaruvchanlik xususiyati til tuzilishining qarama-qarshi tendentsiyasidir. Maydon tizimining leksik tarkibi va uning rivojlanishi jarayonida o'zgaruvchanlikni ifodalash shakli sifatida namoyon bo'ladi. Tilning tuzilishi o'zining barqarorligi va o'zgaruvchanligi tufayli ikkinchi muhim tizim hosil qiluvchi omil vazifasini bajaradi[40]. Tilshunoslikda "qadriyat" mazmuniy maydonning periferiyasini aniqlashda eng asosiy usullardan biri bu – mazmuniy maydon ma'nosi va unga tegishli so'z yoki so'z birikmasining ma'no chegarasining ***qay darajada*** bog'liqligi bilan belgilanadi. "***Qay darajada"*** bog'liqlik quyidagicha amalga oshadi.

1. Periferiya terminini "chekka" yoki "chegara" leksemalari bilan tarjima qilinishiga ilmiy sabablarni qayd etish orqali aniqlanadi. Tilshunoslikda so'z ma'nosining boshqa, ya'ni shu mavzu sohasiga taalluqli ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan so'z yoki iboraning tashqi qirralari, tilda nofaol tarzda uchraydigan ma'nolari "periferiya" atamasi bilan yuritiladi. Bu atama barcha maydon birliklarining unga qay darajada taalluqligi bilan belgilanadi.

Sababi "qadriyat" leksemasining semalari tarkibi "sig'inmoq" semalari tarkibi bilan bir xil emas, biroq sig'*inmoq* leksemasi semantik maydoni bilvosita "qadriyat" mazmuniy maydoniga borib taqaladi. Bu so'zning umumiy semantik sohasining "chegarasi"ga aloqador. Demak, dastlab so'z ma'nosining chekkasi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasi, asosan, qanday ma'nolarni anglatadi va bu ma'nolar qanday ma'noviy chegaralarda qo'llanilishi mumkinligini belgilaydi. Masalan, "sig'inmoq" so'zi "e'tiqod" leksik kategoriyasiga aloqador. E'tiqod "Umuminsoniy qadriyatlar" mavzuiy guruhiga a'loqador leksema. Demak, mazkur jarayon "qadriyat"

[40]**BU HAQIDA QARANG.** СИСТЕМА И СТРУКТУРА ЯЗЫКА. HTTPS://LINGUISTICS-ONLINE.NAROD.RU/INDEX/TEMA7/0-548

mazmuniy maydonini yadrosi va periferiyasini shakllantirish hamda mazkur maydonga oid leksik bazani shakllantirishga hissa qo‘shadi.

2. Maydon nazariyasi uchun “periferiya” atamasi mavzuga oid noodatiy yoki nofaol bo‘lgan ma’nolari bilan hamda tor ma’noda ishlatiladigan ma’nolari bilan aloqadorlik hosil qiladigan tizimdir. Mazmuniy maydonning periferiyasi atamasi so‘z ma'nosining chegaralarini va so‘zning qanday ma’nolarda ishlatilishi mumkinligini tushunish uchun ishlatiladi.

3. Ma’no doirasining kengayishi orqali yuzaga keladigan periferiya: Maydon nazariyasida periferiya hisoblangan leksemalarning yuzaga kelishiga yana bir omil borki, so‘zlar yoki so‘z birikmalari ma’no doirasini kengaytirishda so‘z ma’nosining semantik doirasi muhim. Bu ma’lum davrni talab qiladigan, tilning rivojlanishi davomida yuzaga keladigan va ba’zi hollarda yangi ma’nolarning paydo bo‘lishiga olib keladigan hodisadir. Masalan, *lachak* leksemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “**LACHAK** *shv.* Xotinlar (ko‘pincha, keksa ayollar) boshga o‘raydigan oq doka yoki surp; dakana. *Maqbaraning panasida boshiga oq lachak yopingan ayol kishi ko‘rindi-yu, g‘oyib bo‘ldi.* S.Anorboyev, Go‘zallik izlab. *Boshlariga katta-katta lachak o'ragan kelinchaklar sirg'a, munchoqlar bilan bezanganlar.* Oybek, Bolalik[41]. Mazkur leksemaning ma’nosi kengayib bugungi kunda narsa-predmet ma’nosidan marosim nomiga, ya’ni onomastic birlikka aylanib ma’noviy kengayishini kuzatish mumkin. B.Bafoev adabiyotlar (Shoabdurahmonov, Baskakov, Malov, Budagov)da bu so‘zning manbai turkiy til ekanligi ko‘rsatilgani holda, uning etimoni borasida ma’lumotlar yo‘qligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, bu so‘z yasama (lach+ak) bo‘lib, lach eroniy til materiali va -ak turkiy ot yasovchi qo‘shimcha lachak formasini hosil qilgan. Eroniy tillardagi *lach* so‘z-morfemasi inson tanasi a’zosi *lunj va lagom/ligomning* arabiylashgan shakli *lijom* so‘zlari bilan bir umumiy asosga egadir. Demak, “lachak so‘zi lach+ak morfologik tarkibiga ega bo‘lib, “lunjni bog‘lovchi” demakdir[42] . Bugungi kunda yurtimizning ayrim hududlarida “lachak marosim” yoki “lachak kiydi” marosimlari o‘kazilib, “xotinlar (ko‘pincha, keksa ayollar) boshga o‘raydigan oq doka yoki surp; dakana” ma’nolaridan sezilarli darajada kengaygan.

4. So‘z ma’nosining ixtisoslashuvi periferiyani hosil qilishdagi ahamiyati: Muayyan kontekstlarda yoki alohida guruhlar tomonidan qo‘llaniladi. Masalan, “qadriyat” leksemalarining ixtisoslashgan ma’nolari ma’lum ijtimoiy-siyosiy sohalarda, ijtimoiy fanlarda yoki jamoalarda qo‘llaniladigan qadriyatlarni bildiruvchi so‘zlarning tor, kontekstli aniqlangan ma’nolari qo‘lanadi. Masalan, xalq ichida “menga falsafa qilma, menga falsafa o‘qima, falsafangni yig‘ishtir*”* gaplari qo‘llanadi. Bu aslida insonning ijobiy xarakterlaridan hisoblangan “pand-nasihat qiluvchi” ma’nosini anglatadi. Shaxs ma’naviy sifatlarida *falsafa* insonlarni to‘g‘ri xatti-harakatlarga yordam beruvchi xarakterning ijobiy sifatini anglatadi.

Qiymat leksemasining ixtisoslashuvi iqtisodiyot bilan bog‘liq holda qo‘llanadi. Masalan, mahsulot yoki xizmatning iste’molchi uchun foydaliligi, *qadri* bilan

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umuman, turkiy toponimiyaning dastlabki to‘plovchilari va tadqiqotchilari tarixchilar, sharqshunos va etnograflar bo‘lganini qayd etish lozim bo‘ladi. Shu sababli, sharqshunoslarning dastlabki avlodiga mansub V.V.Bartold, S.P.Tolstov, M.E.Masson, G.P.Ostroumov, G.Vamberi, M.N.Bogolyubov, P.P.Ivanov, A.A.Semyonov, keyingi avlodga mansub V.A.Shishkin, O.A.Suxareva, O.D.Mexovich, A.Z.Rozenfeld, A.S.Tolstova, B.X.Karmisheva, I.N.Xlopin va boshqalar, o‘zbek tadqiqotchilardan Ya.G‘ulomov, B.A.Ahmedov, K.Shoniyozov,

A.Muhammadjonov va boshqalarning tadqiqotlarida toponim va etnonimlar tahliliga ham alohida e’tibor qilinganini ko‘ramiz. Ularning asarlarida joy nomlari, etnonimlar, ba’zi ismlarning, laqab va taxalluslarning ma’no va etimologiyasiga oid qiziqarli talqinlar uchraydi. Qayd qilingan jarayon ilmiy toponimika sohasining paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojidagi ilk bosqich edi.

O‘zbek toponimiyasi ham ushbu bosqichni o‘z boshidan kechirdi. Endilikda toponimiya bilan shug‘ullanish ishi har bir muayyan fanning maqsadi va manfaatlari nuqtai nazaridan olib borilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, toponimlarni tadqiq qilish usullari ham takomillashib bormoqda. Avvallari, masalan, tarixchi va sharqshunoslar joy nomlarini, asosan, tarixiy ma’lumotlar asosida tahlil qilishgan bo‘lishsa, endilikda ular o‘z kuzatishlarida tilshunoslik fani usullaridan barakali foydalanishga intilishmoqda. Buning yorqin namunasi sifatida taniqli arxeolog, akademik A.Muhamadjonovning keyingi yillarda e’lon qilayotgan maqolalarini ko‘rsatish mumkin.

Hozirgi nomshunos – tilshunoslar o‘z tadqiqotlarida tarix, geografiya, etnografiya fanlarining toponimlarni o‘rganish borasidagi yutuqlarini nazardan soqit qilayotganlari yo‘q.

Onomastika, jumladan, toponimiyani tadqiq qilish o‘tgan asrning 60–70 yillariga qadar turli fan vakillarining qo‘lida bo‘lib keldi. Mana shu davrdan keyin toponimiyani o‘rganish asta-sekin tilshunoslar qo‘liga o‘tdi va toponimiya joy nomlarini lingvistik usullarda (boshqa fanlarning foydali usullaridan foydalangan holda) o‘rganuvchi ilmiy sohaga aylandi. Mana shu jarayon o‘zbek toponimikasi sohasining shakllanish xususiyatlariga ham to‘la tegishlidir.

O‘zbek toponimikasida yuzaga kelgan ilk tadqiqot geografik nomlarni (ko‘proq o‘zga tillarga mansub toponimlarni) o‘zbek tilida yozish (transkripsiya qilish) muammolariga bag‘ishlandi[68].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda analiz, sintez, chog’ishtirma, semantik, tavsifiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston hududi toponimiyasining umumiy xususiyatlarini bilish, uning lisoniy boyliklari ko‘lami haqida umumiy fikrga kelish uchun respublikaning barcha hududi, jumladan, tumanlari toponimiyasi materiallarini sinchiklab to‘plash va tadqiq qilish lozim bo‘ladi. Mana shu ma’noda o‘z qadimiy tarixi va boy toponimik materialliga ega bo‘lgan Karmana tumani toponimiyasining lisoniy xususiyatlarini tahlil qilish, shubhasiz, ma’lum nazariy va amaliy qimmatga egadir.

Ma’lumki, mustaqillikdan so‘ng muqaddas qadamjolar, masjid, madrasalar, madaniy yodgorliklar qayta ta’mirlanib, qadimiy shaharlarning asl tarixi , uning barpo etilishi borasida tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo‘ldik.

Karmana O‘rta Osiyodagi eng qadimiy aholi yashaydigan joy hisoblanadi. Sarmish tog‘laridagi afsonaviy tizmalar , Uchtut qishlog‘i yaqinidagi tosh davri qoldiqlari, Qarnab tog‘lari toshlariga uyilgan turli rasm va shu yerlardagi g‘orlarda uchraydigan belgilar Karmana tarixi eramizdan avvalgi davrlarga borib taqalishini ko‘rsatadi.

[68] Hasanov H. Geografik nomlarni o’zbek tilida transkripsiya qilish masalalari: Filol. fanlari nomzodi ... diss. – M., 1952. (rus tilida).

Karmana (asli sug'diycha Xarmana – Katta saroy) – aholi yashaydigan qadimiy maskanlardan biri. Navoiy viloyatida joylashgan. Viloyat hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar va kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, Zarafshon vodiysining bir qismi daryo, bir qismi adirlik va dashtlik yerlari kesib o'tgan o'rta qismida joylashgan keng bu hududda aholi o'rta tosh davrining muste bosqichidan boshlab yashab keladi.[69]

Buxoro tarixchisi Muhammad Narshaxiyning ta'rificha, Karmina Buxoro qishloqlari jumlasidan bo'lib, uning suvi Buxoro suvidan keladi ; xiroji Buxoro xirojiga qo'shiladi. Uning o'ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor; unda masjidi jome barpo etilgan. Karminada adib va shoirlar ko'p bo'lganlar. Masalda aytilishicha, Karminani "Bodyayn xurdak" ("Ko'zacha") deb ataganlar.Buxorodan to Karminagacha o'n to'rt farsangdir.[70]

Karmana toponimi bilan bog'liq bir necha afsonalar bor. Ularda keltirilishicha, go'yo Kar Amina iborasi keyinchalik Karmanaga aylangan emish. Yoki Iskandar Zulqarnayn butun dunyoni zabt etib, Nurota tog'lari orqali Zarafshon daryosi tomon kelayotganda baland qir ustidan daryo sohilida joylashgan go'zal, xushmanzara "kent"ni ko'rib, unga mahliyo bo'lib: "Karmeno" deb yuborgan ekan. ("Karmen" yunoncha so'z bo'lib, go'zallik ma'nosini beradi.) Boshqa manbalarda Karmana nomi arablardan olingan, ya'ni arablar Zarafshon sohilida joylashgan shaharning tuprog'i, suvi, tabiati Armanistonga o'xshash bo'lgani uchun " Ka Arminita " ("Armanistonga o'xshash") deb atashgan deyiladi.[71] Professor H. Hasanov esa o'z asarlarida "Karmana" so'zi ma'nosini "eski manzilgoh, eski qishloq" deb ta'riflagan. Xullas, hozirgi davrdagi tarixiy va ilmiy manbalarda "Karmana" toponimining asl ma'nosi va etimologiyasi uchramadi, lekin bu boradagi izlanishlar davom etyapti.

S.Inoyatovning "Sohibqiron va Temuriylar nazari tushgan diyor" risolasida Karmanani Yazir yoki Yasir viloyati deb nomlagani "yasirlar" saljuqiylarning bir qabilasi bo'lganligini ta'kidlaydi.

Shubhasiz, "Karmana" toponimi to'g'risida yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ushbu atamaning turli shakllarda yozilishi hamda rivoyatlarga asoslangan uning etimologiyasi buyicha ba'zi bir o'xshatmalarga oid bo'lib, "Karmana" toponimining haqiqiy etimologiyasi uning morfologik tahlili asosida aniqlanadi.

A. Muhammadjonovning yozishicha, "Karmana" atamasi uch komponentli toponimlar qatoriga kiradi. U uch so'z bog'lovchi suffiks morfema "kar", substrak o'zak "min" yoki "man" hamda nom yasovchi "a" birikmasidan shakllangan. Atamaning morfemasi "kar" aholi talaffuzida "xar" ba'zan esa "kal" shakllarida yuritilib, undagi dastlabki "x" harfi "k" harfi bilan , oxirgi "r" harfi esa "i" bilan almashinib ishlatilgan. Natijada Buxoro vohasi tarixiy geografiyasida "Xarkon", "Xarjon" va "Qalqon" kabi qadimiy atamalar yuzaga kelgan. Bu atamalar "Karmana" toponimiga bevosita aloqador bo'lib, uning turli leksemalari ekaniga shubha yo'q. "Xar" morfemasi sifatdosh shaklida birikib, hosil etgan ayrim atamalar: *xarsang, xartum, xartang* kabi fors-tojik hamda o'zbek tili xazinasida uchraydigan hamda tugal fikr anglatadigan ayrim atamalarning tahlili vositasida ma'lum darajada oydinlashtirish

[69] O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4- son, T., Davlat ilmiy nashriyoti. 2002 yil. – 474-bet.
[70] Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.., Kamalak, 1991. – 95-bet.
[71] V.Bartold. Geograficheskiy ocherki. M.., 1963. 149-bet.

mumkin. Xalqimiz yirik toshlarni *xarsang*, tog‘ tizmalari orasidagi chiziqlarni *tang*, kengroq qisiq yerlarni esa *xartang*, panjalari yirik qisqichbaqani *xarchang*, filning ulkan tumshug‘i *xartum* deb atalgan.[72]

Demak, bunday atamalarga birikib kelgan "xar" morfemasi *katta, ulkan* kabi siqatlarni ifodalagan. Agar "Karmana" yoki "Karmina" atamasiga birikkan "kar " morfemasi "xar" shaklida belgilansa, u vaqtda toponim "Xarmina" yoki "Xarmana" talaffuzini oladi. "min" , "man" substratining sifatdoshi tarzida uning kattaligini ifodalab, mazkur toponim etimologiyasiga ma'lum darajada aniqlik kiradi.

Xullas, "Karmana" atamasi bunday shaklda "Katta min" yoki "Katta man" iborasini vujudga keltiradi. "Karmana" toponimining asl shakli "Xarman" yoki "Xarmana" bo‘lib, u "katta saroy", "oliy qarorgoh" kabi tushunchalarni bildirgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Karmana tumanidagi oykonim (shahar, qishloq, guzar, mahalla, ovul kabi aholi yashaydigan topoob'ektlarning nomi)larining aksariyati juda qadimiy. Ularning nomlanish sabablari ham juda ko‘p holda unutilgan. Chunonchi, Ulug‘lar, Gadoylar, Xo‘ja Xisrav, Yuqori Arg‘in, Ko‘hna Qo‘rg‘on, Xo‘jalar, Garruklar, Kalobod kabi.

Karmana tumani toponimiyasida ham tarkibida turdosh leksika yotgan toponimlar mavjud. Bu toponimlar tarkibidagi turdosh otlar kishi otlari va narsa otlaridan iborat: Ayronchi – qishloq, Quloqota –qishloq, Cho‘yanshayx – qishloq, Xonim – ariq, Kulollar – qishloq, Halovat tepa – tepalik nomi, Chaqmoq tepa – tepalik nomi, Arabxona – qishloq, Qatag‘on – qishloq, Jarrabot – qishloq, Poxsa – masjid, Hovuzariq – ariq, Qumariq – ariq. Ushbu toponimlar Karmana tumani va uning atroflaridagi joy nomlari bo‘lib, har birining paydo bo‘lish sabablari mavjud.

Atoqli ot – yakka predmetning atamasi. Atoqli otda umumlashtirish yo‘q, u leksik jihatdan odatda, shartli bo‘lib, yakka bir predmetni o‘zi kabi yakka predmetdan farqlab berishda xizmat qiluvchi tamg‘a vazifasini bajaradi. Karmana tuman toponimiyasida atoqli ot toponegizlari yotuvchi toponimlar quyidagilar: Farhod – qo‘rg‘on, Shirin - qo‘rg‘on, Navoiy – shahar, Deggaroniy – masjid va qishloq, Zulqarnayn – qishloq, Pochcha Iskandar – qishloq, Chingiz – yaylov va qishloq, Temurshayx – qishloq, Oybek –maktab, Usmon Yusubov – mahalla, Nodira – ko‘cha.

Etnonimlar ham toponimiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Etnonim so‘zi yunoncha – etnos – xalq , onim – nom, ism, har qanday etnos (xalq, guruh, qabila, urug‘, millat)ning nomi: o‘zbek, nayman, qang‘li, beshbola va boshqalar.[73] Karmana tumanidagi aksariyat qishloqlar juda qadimiy, ularning ildizlari tosh asriga borib taqaladi. Karmanadagi etnonimlar quyidagilar:

Mang‘it - qadimgi turkiy qabilalardan biri, o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik etnik birlik.

Qatag‘on – o‘zbek millati tarkibidagi urug‘lardan biri. Bir qismi qirg‘iz va qozoqlar tarkibiga kirgan. Professor T. Nafasov Qatag‘on, barlos, barqut urug‘larining o‘zaro yaqinligi to‘g‘risida fikr bildirgan.[74]

---

[72] A. Muhammadjonov "Karmina" yoki "Karmana" toponimining etimologiyasi haqida. "O'zbekiston tarixi" jurnali. 1999. 2 – son. 71 – 72 betlar.

[73] S. Qorayev. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. Toshkent . 2005. 221 – bet.

[74] T. Nafasov, O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. Toshkent. 1988. 192- bet.

Bog'ot – qadimda bag'alan (bog'lon) urug'i vakillari yashagan bo'lishi mumkin.

Arg'in – Movarounnahr va asosan Amudaryo buylarida qadimdan istiqomat qilib kelgan turkiy qabila.

Bahrin – turklashgan mo'g'ul qabilalaridan birining nomi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida Dashti Qipchoqdan kelib o'rnashgan.

Jaloyir – o'zbek - turk yirik urug'laridan biri.

Tama – mo'g'ul qabilasi bo'lib, Dashti Qipchoq o'zbeklari tarkibiga kiradi. XV – XVI asrlarda Zarafshon daryosi havzasiga kelib o'rnashgan.

Qiyot– o'zbek qavrlaridan birining nomini anglatadi. Abulg'ozi Bahodirxon fikricha, Qiyot – mo'g'ulcha tog'dan oqqan sel ma'nosini anglatadi.

Qavola - o'zbek urug'laridan bo'lgan.

Turkman – turkman - o'zbek millatlari tarkibiga qabilalardan biri. Qishloq aholisi Turkmanistonning Chorjo'y, Mari, Bayramali viloyatlaridan kelib qolgan. Turkman urug'laridandir.[75]

Shuningdek, Karmana shahri hududida Ulug'lar, Gadoylar, Xo'jalar, Garruklar singari eski qishloqlari bo'lgan. Hozir ulardan ayrimlarining nomlari qolgan.

Etnik nomlar – etnonimlarga urug', qabila, elat, xalq, millatlarning nomlari kiradi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida etnonimlardan yasalgan toponimlar keng tarqalgan va bunday nomlar "Etnik belgilar asosida yasalgan toponimlar", "Etnotoponimlar" deb yuritilmoqda.

O'zbekistonning turli hududlarga mansub etnonimlar tahlili shuni ko'rsatganki, toponimlarning bu tipi yuzaga kelishiga ko'ra ikki belgisi bilan ajralib turadi:

1. Etnonimlar ko'proq aholi istiqomat qiluvchi hududlarda uchraydi.
2. Etnotoponim ko'chmanchi aholi yashagan yoki ularning avlodlari yashayotgan joylarda uchraydi.

Etnotoponimlarni ularning etnonimik negiziga ko'ra (toponegiziga) ikkiga bo'lish mumkin:

1) Negizida xalq, elat yoki millat nomi yotgan etnotoponimlar: Arab (q.), Qozoqovul, Turkmanlar (q), Turkmanariq kabi.

2) Negizida urug', qabila va ularning mayda shaxobchalari nomi yotgan etnotoponimlar: Qovchin (qq), Qiyot (qq), Bolg'ali (qq.), Bahrinto'p (qq.), Qo'shtamg'ali (qq.), Kerayit arig'i kabi.

Toponimning etnotoponim ekanini, ya'ni nom negizida etnik leksika yotganini aniqlash ba'zan qiyinchilik tug'diradi. Mana shunday hollarda toponimning tarkibidagi ba'zi ko'rsatkichlarga e'tibor berish lozim bo'ladi. Odatda tarkibida quyidagi belgilar uchrasa, toponim etnonimdan yasalgan bo'ladi.

Etnotoponimlarning ma'nosini talqin etish borasida ancha munozarali tomonlar bor. Ba'zi ishlarda etnotoponimning (toponimning) ma'no va etimologiyasi deb, uning negizida yotgan etnonimning ma'no va etimologiyasi talqin qilinadi. Bunga qo'shilish qiyin. Aslida etnotoponimlarning ma'nosi soddadir, ya'ni har qanday etnotoponim o'zi mansub bo'lgan hududda o'tmishda etnonimda ifodalangan etnik guruh yashagani yoki ularning avlodi hozirda yashayotgani haqida darak beradi.

[75] A. Xotamov, Sh. Xalilov. Yillar sadosi. Toshkent. 1995. 35-37 betlar.

Tumandagi topoob'ektlar nomlarini tahlil qilganda, qishloqlarning atalish sababi sezilib turadi. Bular quyidagilar:

1. Etnik nomlar bilan bog‘liq toponimlar. Toponimlarning ushbu guruhi qishdoqda tarixan yashab kelgan etnosning qaysi urug‘, qabila yoki xalqqa mansubligiga ishora qiladi: Do‘rmon (urug‘ nomi) qishlog‘i, Uyrot (qabila nomi) qishlog‘i, Burqut (qabila nomi) qishlog‘i, Qavola (urug‘ nomi) qishlog‘i, Jaloyir (urug‘ nomi) qishlog‘i, Ayronchi (urug‘ nomi) qishlog‘i, Arg‘in (qabila nomi) qishlog‘i, Bahrin (qabila nomi) qishlog‘i, Qiyot (o‘zbek qavmlaridan biri nomi) qishlog‘i va boshqalar.
2. Qishloqning paydo bo‘lish vaqtiga ishora qiluvchi toponimlar: Yangiobod, Yangi qishloq, Yangi Ariq, Yangirabot, Ko‘hna Qo‘rg‘on va boshqalar.
3. Aholining kasb-kori, mashg‘ulotiga ishora qiluvchi nomlar: Qassoblar qishlog‘i, Tandirsozlar qishlog‘i, Kulollar to‘pi, Sog‘itaroshlar qishlog‘i va boshqalar.

Tuman toponimlari materiallarini ma'noviy-mavzuiy jihatdan boshqa tiplarini ham uchratish mumkin.

Xulosa. Karmana toponimiyasi tizimida toponimlarning turli tiplari mavjud. Ammo miqdor jihatdan eng xarakterli nomlar: oykonimlar (qishloq, mahalla, ko‘chalar nomi) oronimlar (tepaliklar)dir. Shu bilan birga hudud toponimiyasi uchun ogionimlar (masjidlar nomi), nekronimlar (muqaddas qadamjolar) ham xarakterlidir.

Karmana hududi toponimiyasi uchun xarakterli bo‘lgan xususiyatlaridan biri bitta nomning ikki va undan ortiq jo‘g‘rofiy ob'ektlarning atoqli oti bo‘lib kelishidir. Kuzatishlar bu hududda ba'zi toponimlarning to‘rtta, hatto beshta ob'ektga nom bo‘lib kela olishining mahsulidir. Dehgaroniy machit, qishloq, mahalla, muqaddas qadamjoy kabi.

Karmana toponimiyasida yangi nom hosil qilishning ikkita usuli kuzatiladi: morfologik usuli va sintaktik usullaridir. Karmana toponimiyasi fondi ikki usulda rivojlanib va boyib borgan. Yangi nom ijod qilish yoki ob'ektni boshqa tildan o‘zlashgan nom bilan atash mahsuldori birinchi usuldir.

Karmana tuman toponimiyasining yuzaga kelishi va rivoji ushbu hududda yashovchi aholining uzoq tarixiy o‘tmishi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy-ma'naviy hayoti etnik turmushi bilan bog‘liq bo‘lib, nafaqat tilshunoslik sohasi uchun, balki, tarix, geografiya, etnografiya, madaniyat va ma'naviyat tarixi uchun ham qimmatli materiallar bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begmatov E. Nomlar va odamlar. – T.: Fan, 1966.
2. Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
3. Borovkov A.K. Leksika Sredneaziatskogo tefsira XII-XIII vv. – M.: IVL, 1962.
4. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent.1988.
5. Inoyatov S. Sohibqiron va temuriylar nazari tushgan diyor. – "Sharq" nashriyoti. Toshkent .2002.
6. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk. I tom. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1960.

7. Fazылov E. Starouzbekskiy yazык Xorezmskoye pamyatniki XIV veka. Tom I. – Toshkent: Fan, 1966. – S. 428. Tom II, 1971.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 1-jild (Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-y.
9. Sevortyan E.V. Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazыkov. – M.: Nauka, 1974.
10. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000.
Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2002.

URBANIZATSIYA VA TIL O‘ZGARISHLARI: SOTSIOLINGVISTIK TAHLIL

Sharopova Ra’no,
Navoiy davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada urbanizatsiya jarayonining til tizimidagi o‘zgarishlarga ta’siri sotsiolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tilning ijtimoiy tabaqalanishi, hududiy va ijtimoiy dialektlarning o‘zaro munosabati hamda shahar muhiti sharoitida yuzaga kelayotgan yangi til hodisalari o‘rganiladi.*

Аннотация*. В данной статье рассматривается влияние урбанизационных процессов на изменения в языковой системе с социолингвистической точки зрения.*

Abstract*. This article examines the impact of urbanization processes on language change from a sociolinguistic perspective. It analyzes the social stratification of language, the interaction between territorial and social dialects, as well as new linguistic phenomena emerging in the urban environment.*

Kalit so‘zlar: *urbanizatsiya, sotsiolingvistika, til o‘zgarishi, ijtimoiy dialekt, shahar muhiti, o‘zbek tili.*

Ключевые слова*: урбанизация, социолингвистика, языковые изменения, социальный диалект, городская среда, узбекский язык.*

Keywords*: urbanization, sociolinguistics, language change, social dialect, urban environment, Uzbek language.*

Kirish (Introduction)

Sotsiolingvistika – til va jamiyat o‘rtasidagi uzviy munosabatlarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasi bo‘lib, u tilning ijtimoiy tabiati, jamiyatdagi vazifalari va ijtimoiy omillar ta’sirida kechadigan o‘zgarishlarni tadqiq etadi. Ushbu fan tildan foydalanishning turli ijtimoiy sharoitlarini, ijtimoiy tabaqalanish va hududiy farqlanishni, shuningdek, tilning jamiyat taraqqiyotidagi rolini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Sotsiolingvistika fan sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlana boshladi. Tilni faqat grammatik tizim emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ushbu sohaning shakllanishiga olib keldi. Bugungi kunda sotsiolingvistika nafaqat tilshunoslikning, balki sotsiologiya, antropologiya, psixologiya, tarix va siyosatshunoslikning ham kesishgan nuqtasida rivojlanmoqda [3, 3].

Sotsiolingvistik tadqiqotlar zamonaviy davrda tilning urbanizatsiya jarayonlaridagi o‘rni, globallashuv sharoitida til va madaniyat aloqalari, ko‘p tillilik va bilingvizm muammolari, nutqiy muhitdagi ijtimoiy tengsizliklar kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, tilning jamiyatdagi mavqeyi, davlat tili va mintaqaviy tillarning maqomi, yoshlar

tili va ommaviy kommunikatsiya vositalarining nutqqa ta’siri kabi yo‘nalishlar alohida dolzarblik kasb etmoqda [2, 142].

Bugungi taraqqiyot bosqichida sotsiolingvistika ikki muhim vazifani bajaradi:

1. Ilmiy-nazariy vazifa – tilning ijtimoiy tabiatini ilmiy asosda tahlil qilish, umumiy qonuniyatlarni aniqlash.

2. Amaliy vazifa – davlat til siyosati, ta’lim tizimi, OAV, shahar va qishloq nutq muhitidagi til madaniyatini tartibga solishga ilmiy asos yaratish.

Shunday qilib, sotsiolingvistika bugungi kunda nafaqat lingvistik jarayonlarni tushuntirib beradi, balki jamiyat hayotini boshqarish va madaniy rivojlanishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadigan fan sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Urbanizatsiya va tilshunoslik o‘zaro uzviy aloqadordir. Aholining shaharlarga ko‘chib o‘tishi jarayoni sifatida urbanizatsiya lisoniy tizimda muayyan o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi [7, 88]. Jumladan, yangi leksik birliklarning shakllanishi, boshqa tillardan o‘zlashmalar paydo bo‘lishi, dialektlarning bir-biriga yaqinlashuvi, shuningdek, mahalliy xalqlar tillarining asta-sekin so‘nib borishi kabi jarayonlar urban tilshunoslikning bevosita tadqiqot obyektini tashkil etadi [10, 112].

Urban tilshunoslik – tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, urbanizatsiya jarayonlarining tilga ta’sirini, xususan, shahar muhiti sharoitida yuzaga keladigan lisoniy o‘zgarishlarni o‘rganadi. Bu yo‘nalishda yangi leksik birliklarning shakllanishi, so‘zlarning o‘zlashuvi, dialektlarning yaqinlashuvi, lingvistik norma va variantlarning transformatsiyasi, shuningdek, mahalliy xalqlar tillarining sekin-asta so‘nib borishi kabi jarayonlar tahlil qilinadi [3, 210]. Urban tilshunoslik nafaqat shahar tilini, balki shahar va qishloq nutqi o‘rtasidagi ijtimoiy-lisoniy tafovutlarni ham tadqiq etadi.

Bugungi taraqqiyot bosqichida sotsiolingvistika va uning tarkibiy yo‘nalishi bo‘lgan urban tilshunoslik ikki muhim vazifani bajaradi:

1. Ilmiy-nazariy vazifa – tilning ijtimoiy tabiatini va urbanizatsiya ta’sirida kechadigan o‘zgarishlarni ilmiy asosda tahlil qilish, umumiy qonuniyatlarni aniqlash .

2. Amaliy vazifa – davlat til siyosati, ta’lim tizimi, OAV, shahar va qishloq nutq muhitidagi til madaniyatini tartibga solishga, shuningdek, mahalliy tillar va lingvistik merosni asrab-avaylashga ilmiy asos yaratish.

Shunday qilib, sotsiolingvistika va urban tilshunoslik bugungi kunda nafaqat lingvistik jarayonlarni tushuntirib beradi, balki jamiyat hayotini boshqarish, shahar muhitidagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va madaniy rivojlanishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadigan fanlar sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Urbanizatsiya jarayonlarini sotsiolingvistik jihatdan chuqur tadqiq qilish, xalqaro tajribalarni o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan foydali natijalar beradi [10, 163].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqotda deskriptiv tahlil usuli qo‘llanib, urbanizatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan sotsiolingvistik o‘zgarishlar matn va adabiyotlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy metod va kuzatuv metodlaridan foydalanilib, til o‘zgarishining amaliy namunalari umumlashtirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature Review)

Sotsiolingvistika sohasida urbanizatsiya ta'siri bo'yicha tadqiqotlar ko'plab olimlar tomonidan olib borilgan. Rus olimlari orasida Y.D.Desheriyev tilning ijtimoiy tabaqalanishi va shahar nutqining shakllanishiga e'tibor qaratgan. N.B.Mechkovskaya esa urbanizatsiya sharoitida tilning ijtimoiy funksiyalari va madaniy integratsiya jarayonlarini izohlagan.

G'arb olimlaridan V.Labov shahar nutqini eksperimental usulda tadqiq etib, fonetik o'zgarishlar va ijtimoiy qatlamlar nutqi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bergan. P.Trudgill esa dialektlarning yaqinlashuvi va standartlashuv jarayonlarini urbanizatsiya bilan bog'liq holda ko'rsatgan.

Shuningdek, L.P.Krisin va boshqa zamonaviy tilshunoslar urbanizatsiya ta'sirida kod almashtirish, ko'p tillilik, media va texnologiyalar orqali tezkor til o'zgarishlari masalalarini chuqur tahlil etishgan.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar urbanizatsiyani til taraqqiyotining muhim omili sifatida baholab, uning ijobiy (til boyishiga xizmat qiluvchi) va salbiy (dialektlarning qisqarishi, mahalliy tillarning so'nishi) jihatlarini ko'rsatib beradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results)

Urbanizatsiya jarayonlari tilning ichki tizimiga va uning ijtimoiy faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shaharlar nafaqat iqtisodiy va madaniy markaz, balki til o'zgarishlari uchun eng qulay muhit hisoblanadi. Bu jarayonlarda bir nechta asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Dialektlarning yaqinlashuvi. Shaharlarga ommaviy migratsiya turli hududlardan kelgan aholining kundalik muloqotini kuchaytiradi. Bu jarayonda alohida dialektlarga xos fonetik, leksik va grammatik belgilar asta-sekin zaiflashib, o'rniga nisbatan neytral shakllar mustahkamlanadi. Shu tarzda dialektal farqlar qisqaradi va yangi shahar variantlari shakllanadi. Masalan, Toshkent yoki Samarqand kabi yirik shaharlarda hududiy shevalar sezilarli darajada aralashib, umumlashgan nutq shakllari vujudga kelmoqda. Bu jarayon dialektlarning "yo'qolishi emas, balki ularning muvofiqlashuvi"ni ko'rsatadi [7, 98]. Shunday qilib, urbanizatsiya tilda mintaqaviy tafovutlarni kamaytirib, yagona kommunikativ maydonni yuzaga keltirmoqda.

2. O'zlashma so'zlarning ortishi. Shahar muhiti tillararo faol aloqani ta'minlab, o'zlashma so'zlarning tez kirib kelishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa ingliz, rus va turkiy tillardan o'zlashmalar o'zbek tilidagi shahar nutqida faol qo'llanmoqda. Masalan, kundalik hayot hamda mehnat faoliyatida "market", "online", "servis" kabi so'zlarning keng iste'moli bunga misol bo'la oladi. Bu holat, bir tomondan, leksik boylikni kengaytirsa, ikkinchi tomondan, tilning o'z milliy qiyofasiga ma'lum darajada bosim o'tkazadi. Natijada, shahar nutqi global til unsurlarini o'zlashtirgan holda zamonaviylikka moslashmoqda.

3. Kod almashtirish. Urbanizatsiya ta'sirida yuzaga keladigan eng muhim xususiyatlardan biri – kod almashtirishdir. Bir shaxs bir suhbat davomida ikki yoki undan ortiq tildan foydalanishi shahar muhitida odatiy holga aylanmoqda. Bu hodisa ijtimoiy

guruhga mansublikni bildiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, yoshlar orasida ruscha-o‘zbekcha yoki inglizcha-o‘zbekcha aralash nutq tez-tez uchraydi. Kod almashtirish bir vaqtning o‘zida ham kommunikativ qulaylik, ham ijtimoiy identifikatsiya vositasidir. V. Labov ham kod almashtirish ko‘pincha ijtimoiy guruhga mansublikni belgilashga yordam berishini ta’kidlaydi [8, 183].

4. Yoshlar nutqi. Shahar til o‘zgarishida yosh avlodning roli alohida. Ular yangi sleng birliklari, qisqartmalar va ijodiy o‘zlashmalarni faol qo‘llash orqali tilga yangilik kiritadi. Bu innovatsiyalar maktab va oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, internet tarmoqlari orqali tez tarqaladi. Masalan, yoshlar nutqida ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘lgan qisqartmalar (masalan, “ok”, “trend”, “like”) tezda ommalashmoqda. Yoshlar tili ko‘pincha rasmiy til me’yorlariga zid bo‘lsa-da, u lingvistik innovatsiyaning eng muhim manbayi sanaladi.

5. Media va texnologiya ta’siri. Ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiya shahar nutqini yanada tez o‘zgartiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Televideniye, radio, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali shahar tiliga xos birliklar nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy va hatto global miqyosda tarqaladi [11, 74]. Bu jarayon shahar tilining cheklangan hududdan chiqib, keng muloqot maydoniga aylanishiga olib kelmoqda.

6. Ijtimoiy tabaqalanish va identifikatsiya. Shaharlardagi nutq ham ijtimoiy tabaqalanishning ko‘zgusidir. Til orqali insonning kasbi, ijtimoiy mavqeyi, madaniy saviyasi yoki hatto iqtisodiy darajasi aniqlanib qolishi mumkin. Masalan, ziyoli qatlamga mansub shaxslarning nutqida adabiy til me’yorlari ustun bo‘lsa, quyi aholi qatlamlari ko‘proq sheva elementlarini saqlab qoladi. Nutqdagi farqlar shuningdek, ijtimoiy prestij yoki chetlashuvning lingvistik ko‘rsatkichiga aylanadi [4, 110]. Bu holat shahar jamiyatida tilning ijtimoiy kapital sifatida qadr topishini ko‘rsatadi.

7. Mahalliy tillarning yo‘qolishi. Urbanizatsiyaning salbiy oqibatlaridan biri – mahalliy tillarning bosim ostida qolishi yoki so‘nishidir. Shaharga ko‘chib kelgan kichik etnos vakillari ko‘pincha dominant tilni o‘zlashtirishga majbur bo‘ladi, natijada ularning ona tili asta-sekin faol muloqotdan chiqib ketadi. Bu jarayon global urbanizatsiya fonida ko‘plab xalqlarning lingvistik merosini xavf ostiga qo‘ymoqda [5, 34].

Aytish mumkinki, urbanizatsiya tilga ikki yo‘nalishda ta’sir qiladi:

1. Ijobiy jihat – yangi leksik birliklar, kod almashtirish, yoshlar nutqi va media orqali tilning boyishi va o‘zgarishi.

2. Salbiy jihat – dialektal farqlarning qisqarishi, mahalliy tillarning xavf ostida qolib, asta-sekin yo‘qola borishi va standartlashuvning kuchayishi.

Demak, shahar tili bir tomondan til rivoji va yangilanishining markazi bo‘lsa, boshqa tomondan lingvistik xilma-xillikning kamayishiga sabab bo‘lmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, urbanizatsiya jarayonlari til tizimining barcha qatlamlariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Shahar muhiti — tilning innovatsion markazi sifatida yangi leksik birliklarning shakllanishi, kod almashtirish, yoshlar nutqidagi

innovatsiyalar va media orqali tarqaluvchi lingvistik yangiliklarni tezlashtirmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon dialektlarning bir-biriga yaqinlashuvi, mahalliy tillarning sekin-asta so‘nishi kabi salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltiradi.

1. Urbanizatsiya til o‘zgarishining asosiy omillaridan biri bo‘lib, dialektlar farqini kamaytiradi va yangi shahar variantlarini shakllantiradi.

2. Shahar muhiti o‘zlashmalar, kod almashtirish va ko‘p tillilikni kuchaytirib, tilni yangi kommunikativ sharoitlarga moslashtiradi.

3. Yoshlar nutqi shahar til o‘zgarishining eng faol manbai bo‘lib, zamonaviy texnologiyalar orqali tez tarqaluvchi innovatsiyalarni yuzaga keltiradi.

4. Media va raqamli kommunikatsiya shahar tilining ta’sir doirasini kengaytirib, uni milliy va global miqyosga olib chiqmoqda.

5. Urbanizatsiyaning salbiy oqibatlaridan biri sifatida mahalliy tillar va kichik etnoslarning lingvistik merosi xavf ostida qolmoqda.

Shunday qilib, urbanizatsiya tilshunoslik uchun nafaqat yangi muammolar, balki yangi ilmiy imkoniyatlarni ham taqdim etmoqda. Shaharlar – til o‘zgarishining “laboratoriyasi” bo‘lib, bu jarayonni tizimli o‘rganish kelajakdagi sotsiolingvistik tadqiqotlarning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Дешериев Ю. Д. Социолингвистика. Москва: Наука, 1977.
2. Беликов В.И., Крысин Л. П. Социолингвистика. Москва: Изд-во РГГУ, 2001.
3. Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. Минск: ТетраСистемс, 2000.
4. Bourdieu P. Language and Symbolic Power. Cambridge: Polity Press, 1991.
5. Crystal D. Language Death. Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
6. Fishman J. A. The Sociology of Language. Rowley, Mass.: Newbury House, 1972.
7. Labov W. The Social Stratification of English in New York City. Washington, D.C.: Center for Applied Linguistics, 1966.
8. Labov W. Sociolinguistic Patterns. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
9. Milroy L. Language and Social Networks. Oxford: Basil Blackwell, 1987.
10. Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction. Harmondsworth: Penguin Books, 1974.
11. Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. London: Penguin Books, 2000.

MA’DANSHUNOSLIK TERMINLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Ernazarova Gulnoza,
Navoiy davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ma’danshunoslik terminlarining badiiy matnlarda konnotativ ma’no hosil qiluvchi vosita sifatida qo‘llanishi misollar asosida yoritib berildi.*

Аннотация*. В данной статье на основе примеров было объяснено использование минералогических терминов в художественных текстах как средства создания коннотативного значения.*

Annotation*. In this article, based on examples, the use of mineralogical terms in literary texts as a means of creating connotative meaning was explained.*

Kalit so‘zlar: *Ma’danshunoslik terminlari, konnotativ ma’no, badiiy matn, ma’no imkoniyati, lisoniy birliklar, uslubiy xususiyat.*

Ключевые слова*: Минералогические термины, коннотативное значение, художественный текст, возможность значения, языковые единицы, стилистический признак.*

Keywords*: Mineralogical terms, connotative meaning, artistic text, possibility of meaning, linguistic units, stylistic feature.*

Hozirgi davrda o‘zbek tilshunosligida sohaviy terminlar turli aspektlarda o‘rganilmoqda. Bu holat tilshunoslikka kirib kelgan zamonaviy tadqiq usullari, ilm-fan sohalarining taraqqiyoti, fan yutuqlarining ishlab chiqarishga tatbiq etilishi kabi omillar bilan bevosita bog’liq.

Ma’lumki, o‘zbek ma’danshunosligi terminologiyasi sohaning eng qadimiy va boy qatlamini tashkil etadi. Asrlar davomida o‘zining muayyan shakllanish va rivojlanish jarayonini o‘tgan terminologiyaning mazkur sohasi lug’at tarkibining boyib borishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk allomalarimiz Xorazmiy, Farobiy, Farg’oniy, Ibn Sino, Beruniy kabi o‘rta osiyolik olimlarning ma’danshunoslikka oid dastlabki izlanishlar natijalari aks etgan asarlarida ham soha terminlari o‘z ifodasini topgan. Abu Rayhon Beruniyning “Mineralogiya”, ya’ni “Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi” asarlarida esa oltin, kumush, mis, temir, qalay, margimush, gavhar, zumrad, feruza singari yuzdan ortiq minerallar va ma’danli toshlar qayd etilgan [1].

Mineralogiya sohasi qadimiy va boy tarixga ega bo‘lganidek, uning terminologik birliklari ham rang-barang va o‘ziga xos.

Tilshunoslikda terminlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning semantikasi va pragmatikasiga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar nafaqat dunyo miqyosida, xususan o‘zbek tilshosligida ham keng ko‘lamda tadqiq etilmoqda. O‘zbek tilshunosligida

terminshunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlarda terminlarning badiiy matnda qo‘llanishi bilan bog’liq holda yuzaga chiqadigan funksional-uslubiy xususiyatlari muayyan darajada o‘rganilgan. Jumladan, badiiy matnda qo‘llangan terminlarning uslubiy xususiyatlari dastlab H.Shamsiddinovning tadqiqotida yoritildi. [3]

Badiiy matnda qo‘llangan terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari D.Jamoliddinova tomonidan maxsus tadqiq etildi. Ushbu ishda o‘zbek tilidagi aniq va tabiiy fanlar hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar terminlarining, shuningdek, kasb-hunar leksikasining badiiy matnda muayyan poetik-estetik maqsadlarda qo‘llanishi va matnning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilishi aniq misollar asosida ochib berildi. [2]

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan ma’danshunoslik terminlarini ham badiiy matnda qo‘llanish xususiyatlarini tadqiq etish mazkur terminlarning boshqa uslublardagi o‘ziga xos funksional-uslubiy jihatlarini aniqlashga, badiiy matnda obrazli tasvirlarni hosil qilishdagi ahamiyatini belgilashga imkon beradi. Terminlar matndan tashqarida lingvopoetik qimmatga ega bo‘lmaydi, faqat matndagina uning asl ma’nosini anglash mumkin bo‘ladi. Lug’at qatlamimizda ma’danshunoslikka oid terminlar ancha sermahsul bo‘lib, ma’no ifodalarga juda boy hisoblanadi. Ularda ma’no serqirralik, jilodorlik, o‘ziga xos joziba ustuvorlik qiladi. Bu esa mazkur terminlarning yillar davomida ma’no imkoniyatlari tadrijiy ravishda rivojlanib kelishi bilan belgilanadi. Badiiy matnlarda ma’danshunoslikka oid terminlar boshqa soha terminlaridan badiiylikni hosil qiluvchi pragmatik vosita sifatida ma’no imkoniyatining turlichaligi, serjiloligi bilan ajralib turadi. Nutqimizda keng qo‘llanuvchi aqiq, billur, gavhar, dur, oltin, kumush, zumrad kabi so‘zlarning o‘nlab ma’nolarda kela olishi lug’atlarda o‘z aksini topgan. Masalan, “O‘zbek tilining izohli lug’ti”da dur so‘zining so‘zining 10 ga yaqin, gavhar so‘zining ham bir qancha ma’no imkoniyati izohlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida nomi sanalgan ma’danshunoslik terminlarining ham keng ma’no ifodaga, imkoniyatlarga egaligini quyidagi misollar orqali yoritishga harakat qilamiz:

DUR [a. – marvarid, inju] 1 Injuning, gavharning yirik turi. [4] Xalq maqollarida “Dono – durdan a’lo”. “Gul tikansiz bo‘lmas, Dur – sadafsiz” kabi purhikmat lisoniy birliklarni uchratamiz. Pragmatik ma’nolarda esa bebaho yoki eng yaxshi, a’lo, sara narsalarni anglatadi. Masalan, Yaxshilik shunday durr-u gavharki, uning bahosi hech qachon kamaymaydi. (Gazetadan). Har so‘zi shirin-shakar dur qizlar. (“Mushtum” jurnali). Poetik nutqda qimmatli, sermazmun, chuqur ma’noli so‘z yoki she’r ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi. Men.. Navoiy "Xamsa "sining sarg’ish sahifalariga qarab olib yig’lardim, ko‘z yoshlarim to‘kilib, Navoiy tergan durlarga qorishardi. (M. Ismoiliy, “Farg’ona tong otguncha”). Qiz so‘zlasa, og’zidan dur sochilar, yor-yor. (“Qo‘shiqlar”). Hangomada og’zidan dur sochibdi. (“Yusuf va Ahmad”). Bundan tashqari yorug’lik, yog’du kabi pragmatik ma’nolarni ham o‘zida aks ettiradi. Quyosh separ nurlarin, yerga zarrin durlarin. (Z.Diyor). Durning meva, samara, hosil; natija kabi ma’nolari ham mavjud. Otam hamisha: "Tajriba durini saralab ter", – derdilar. (“O‘zbekiston qo‘riqdari”). Bag’ringga dur sochdi oltin paxtazor! (G. Jo‘rayeva , “Iqbol”). Gul ochilib so‘lguncha, Qurti o‘radi ipak. Xalq etagi to‘lguncha Dur to‘kar etak-etak. (Zulfiya “Yuragimga yaqin kishilar”). Xalq maqollarida durning boylik, davlat; qut-baraka pragmatik semada ham qo‘llanganligini uchratamiz. Masalan, Ter to‘ksang, dur olasan.

Yerga chigit tushdi – dur tushdi deyishadi. Yoki Ter to‘kildi – dur yetishtirildi. (Gazetadan). Dur suv va unga o‘xshash tovlanuvchan narsalar (tomchi, shudring, qor uchqunlari)ni ham anglatadi. Ro‘paramda sonsiz fontanlar, Qulog’idan dur yog’iladi. (X. Saloh, “Chashma”). Kechasi tushgan shudringga cho‘milgan ko‘m-ko‘k maysalar xuddi dur to‘kkandek charaqlab, quyosh bilan o‘pishib tovlanadi (O. Yoqubov, “Ota izidan”).

Mumtoz asarlarda, jumladan, Navoiy asarlarida ham дурафшон, дурфишона kabi lisoniy birliklar dur sochuvchi ma’nosida pragmatik ma’noda esa dur sochuvchi; go‘zal so‘zlovchi ma’nolarini ifodalaydi. Bugungi kunda ham durafshon durdek yaltirab turadigan narsalarga nisbatan qo‘llanadi. Masalan, O‘rta Osiyoning qayrilma qoshi: Biri – Amudaryo, biri – Sirdaryo. Yalt-yalt tebranadi tubida toshi, Yoqut yanglig’ yoki durafshon go‘yo (T. To‘la).

Badiiy asarlarda ijodkorlar voqelikni va personajlar ruhiy holatini kitobxon tafakkurida jonlantirish uchun pragmatik yukni terminlarga yuklaganining guvohi bo‘lamiz. Ayniqsa, ma’danshunoslik terminlari poetik nutqqa ijodkorlar tomonidan kiritilib, ijodkor pragmatik maqsadini ro‘yobga chiqarishda faol qo‘llanganligini gavhar ma’danshunoslik termini misolida fikrimizni dalillaymiz.

GAVHAR [f.– qimmatbaho tosh; marvarid] 1 Tarashlab sayqal berilgan olmos; umuman qimmatbaho toshlarning umumiy nomi; javhar. Qo‘rdingmi? Bu nima? Mana bu – dur, mana bu – marvarid. Mana bu yongan – gavhar. Oybek, Tanlangan asarlar. Gavhar kosada suv tutib, qizlar qo‘shiq aytib, Nuraliga parvona bo‘la berdi. “Nurali” [4].

Ma’danshunoslik terminlari orqali pragmatik konnotativ semalar juda ko‘p o‘ziga xosliklar kasb etadi. Gavhar leksemasi qimmatli, bebaho, nodir narsalarga nisbatan, shuningdek, badiiy matnda turli emotsional va ekspressiv konnotatsiyalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

O‘zbek xalq maqollarida ham gavhar qimmatli, bebaho, nodir narsa kabi konnotativ ma’no anglatishga xizmat qiladi. Masalan, Yer – xazina, suv – gavhar. Gavhar xotin-qizlar ismini ham atab keladi. Anatomiyada esa ko‘z gavhari, ya’ni ko‘z qorachig’i orqasida joylashgan, ikki tomoni qavariq linza shaklidagi tiniq tanacha ma’nosida qo‘llanadi.

Ma’danshunoslik terminlari badiiy matnda nutqning to‘la anglanishi uchun zaruriy axborotni berish, kitobxon uchun noaniq bo‘lgan o‘rinlarga aniqlik kiritish, tasvir tiniqligini ta’minlash, his-tuyg’ularni ifodalash va yana bir qancha tushunchalarni ifodalashda pragmatik vosita vazifasini o‘taydi. Tarixiy mavzudagi asarlarda ham gavharning juda ko‘p ma’no qirralarini ifodalab kelganligini ko‘ramiz. Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” asarlarida gavharning turli pragmatik ma’nolarda qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Hamidabonu ham Nigorxonadagi ajoyib rasmlardan olgan zavqini Tahmaspning o‘zi chizgan suratga qo‘shib gapirdi. Shoh bu maqtovlardan yayrab, erib turganda Humoyun bir chetda odob saqlab qo‘l qovushtirib turgan Mir Said Alini ko‘rsatdi-da: – Hazrat shahanshoh, sizning Nigorxonangiz bebaho gavharlar bilan to‘lmishdir, – dedi. Bu o‘rinda gavhar san’at asari, ya’ni rasm ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan.

– Irsiyat – noyob bir gavhardir. U avloddan avlodga butun holida o‘tsagina yashab keta olgay. Agar yirik gavharni maydalab kukun qilib sochsangiz, uning gavharligi qolmagay… O‘rmonda arslonlarni ko‘rgansiz. Ota sher ona sherga qanchalik mehribon, qanchalik sodiq! Ana shu tufayli irsiyat gavhari bir nuqtaga jam bo‘lib, avloddan avlodga butun o‘tgay, so‘ng ota-onasiga munosib sherlar tug‘ulgay. Bu o‘rinda irsiyatga nisbatan noyob gavhar shaklining qo‘llanishi orqali lisoniy birlikka bebaho ma’nosini singdirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Gavhar so‘zi denotativ (ma’dan nomi) ma’nosida lingvistik birlik, ya’ni predmet nomini atash vazifasini bajarayotgan bo‘lsa, o‘zining pragmatik ma’nosi orqali bebaholik xususiyatini ochib berish uchun vosita bo‘lib kelgan.

Tahlil jarayonida, “gavhar” leksemasi ostida ongda mavjud bo‘lgan bilimlar, ya’ni uning ma’dan ekanligi, jins ma’nosiga ega ekanligi, qimmatbaholigi va shu kabi ma’nolari faollashsa, ayni matnda shu so‘zning boshqa ma’danlar orasidan tanlab olinishi gavharning boshqa ma’danlardan ko‘ra qimmatbaholigi, tovlanishi so‘zlovchi ta’riflamoqchi bo‘lgan voqelikka xos bo‘lgan xususiyatlar – asilligi, bebaholigi anglashiladi. Masalan, Ilgari Akbar ko‘proq tanasini parvarishlar edi, endi bilsa nuqul otni boqib, suvorini och qoldirgan ekan. Hozir aksini qilib, yeyish-ichishdan o‘zini chekladi-yu, ma’naviy oziq beradigan ilm-u asrorga, so‘fiylar va hind donishmandlari ta’limotiga qayta-qayta sho‘ng‘ib, o‘ziga kerakli ma’naviy gavharni izlashga tushdi. Mazkur misolda gavharning pragmatik ma’nosi ilm-u ma’rifat tushunchasini ifodalashga xizmat qilgan bo‘lsa, quyidagi misollarda ilm-ma’rifatli kishi ma’nosini aks ettirgan.

Uning saroyida “no‘hratan” ya’ni “to‘qqiz gavhar” degan ibora mashhur bo‘lgan, fan, adabiyot va san’atning to‘qqizta eng yorug‘ yulduzlari orasidan Abulfazl ham o‘rin olgan edi. Keksa G‘azaliy vafot etganda to‘qqiz gavharning sakkiztasi qoldi, lekin “no‘hratan” iborasi hamon iste’molda edi.

Xullas, terminlarni matn qurshovida tadqiq qilish, katta ustunlikka ega. Bunday yondashuv mazkur muammoning integral jihatlarini talqin qilishga, shu tariqa terminlarning lingvistik maqomini aniqlashga imkon beradi. Fikrimizni badiiy matnlarda qo‘llangan ma’dashunoslik terminlari asosida hosil qilingan turli-tuman obrazli tasvirlar ham asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Беруний. Минералогия. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2017. – 688 б.
2. Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан д-ри (DSc)… дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 71 б.
3. Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 1 - жилд.2006. –Б. 126.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-жилд, Т.: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2006. – 785 б.

BOLALARNING REKLAMA MATNLARINI YARATISHDAGI LINGVISTIK IMKONIYATLARI

Eshboltayev Bobur,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bolalar reklama matnlarini shakllantirish tamoyillari tahlil qilinadi. Bolalar auditoriyasi uchun mo'ljallangan reklama matnlarining lingvistik, psixologik va pragmatik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, reklama matnlarida bolalar dunyoqarashiga mos keluvchi leksik birliklar, obrazlilik va emotsional ta'sir vositalaridan foydalanish tamoyillari yoritiladi. Tadqiqotda reklamaning tarbiyaviy va axloqiy jihatlari hamda bolalar ongiga ta'sir darajasi haqida xulosalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *bolalar reklama matnlari, lingvistik xususiyatlar, pragmatika, emotsional ta'sir, tarbiyaviy ahamiyat.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются принципы формирования рекламных текстов для детей. Анализируются лингвистические, психологические и прагматические особенности детской рекламы. Особое внимание уделяется использованию лексических единиц, соответствующих мировоззрению детей, образности и средств эмоционального воздействия. В исследовании также освещаются воспитательные и нравственные аспекты рекламы и ее влияние на сознание ребенка.*

Ключевые слова: *детские рекламные тексты, лингвистические особенности, прагматика, эмоциональное воздействие, воспитательная значимость.*

Abstract. *This article explores the principles of constructing advertising texts aimed at children. It analyzes the linguistic, psychological, and pragmatic features of children's advertising discourse. Special attention is given to the use of lexical units appropriate to children's worldview, imagery, and emotional appeal. The study also highlights the educational and ethical dimensions of advertising and its impact on children's consciousness.*

Keywords: *children's advertising texts, linguistic features, pragmatics, emotional appeal, educational value.*

Kirish**.** Bugungi kunda reklama matnlari cheksiz va xilma-xildir. Reklama matnlarini ma'lum bir turlarga ajratish reklamaning kommunikativ vazifalariga, reklama qilinayotgan mahsulotning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Quyida biz reklama matnlarining bir nechta tasnifini beramiz, bu esa mazkur sohada turli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan reklama matnlari turlarini ko'rib chiqish va taqqoslash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonunida reklamaning quyidagi turlari sanab o'tiladi:

a) noto'g'ri reklama; b) yashirin reklama; d) qiyosiy reklama; e) ijtimoiy reklama; f) televideniya va radiodagi reklama; g) bosma ommaviy axborot vositalaridagi

reklama; h) telefon va hujjatli elektr aloqadan foydalaniladigan tarzdagi reklama; i) tashqi reklama; j) transport va pochta jo'natmalaridagi reklama; k) dori vositalari, kosmetika va maishiy kimyo vositalari reklamasi; l) energetik ichimliklar reklamasi; m) tamaki, tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar reklamasi; n) qurol-yarog' reklamasi; o) qimmatli qog'ozlar va aholining mablag'larini jalb etish bilan bog'liq xizmatlar reklamasi; p) aksilreklama[76] kabi.

Marketolog olim F.Kotler reklama muallifining maqsadiga qarab uning uch turini farqlaydi:

a) ma'lumot beruvchi reklama;

b) tavsiya qiluvchi reklama;

d) eslatuvchi reklama[77].

Tadqiqot metodologiyasi. Reklama lingvistikasi, psixolingvistika va pragmalingvistika nazariyalari asos qilib olindi. Bolalar psixologiyasi va pedagogikasiga oid ilmiy qarashlardan foydalanildi. Mahalliy va xorijiy olimlarning bolalar reklama matnlari bo'yicha nazariy ishlanmalari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumot beruvchi reklama "axborot reklama" deb ham yuritiladi. Axborot reklamada reklama qilinayotgan yangi mahsulot haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ushbu turdagi reklama, asosan, mahsulotni bozorga chiqarish bosqichida, eng avvalo, birinchi darajali talabni yaratishga qaratilgan bo'ladi. Masalan: *Baliqchali* ***Supradin kids*** *bolangizning IQ darajasining oshishiga yordam beradi. Sehrli Supradin kids drajesi esa bolaning mushak va suyaklarini mustahkamlaydi va uning chidamliligini oshiradi. Supradin kids! Sizning farzandingiz hammadan yaxshi ("Supradin kids" reklama matnidan).*

Tavsiya qiluvchi reklama matnlarida ma'lum bir mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari, boshqa mahsulotlardan afzalliklari bayon qilinadi. Shu orqali adresatga reklama qilinayotgan mahsulotni xarid qilish tavsiya qilinadi. Bolalar reklamalarida bu kabi reklamalar faol ishlatiladi. Xususan, salomatlik bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda ma'lum bir tish yuvish vositasidan foydalanish lozimligi xususida so'z yuritilib, tish bilan bog'liq xastalikni davolashda ham qo'shiq tarzida, ham tasvirda ushbu vositadan foydalanish tavsiya etiladi:

Yuving, yuving, yuving,
Kunda ikki bor yuving.
Yuving, yuving, yuving,
Tishingizni yuving.
Yuving, yuving, yuving,
Kovak bo'lmasligi uchun.
Colgate bilan yuving.
Tongda uyg'ongach,

[76] Ўзбекистон Республикасининг "Реклама тўғрисида"ги Қонуни. https://lex.uz/docs/-25458 (Murojaat qilingan sana: 11.01.2025)

[77] Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс Пер. с англ. – Москва: Вильяме, 2007. – С. 434.

Oqshom uyqudan oldin
Yuving, yuving, yuving,
Kovak bo‘lmasligi uchun.
Colgate bilan yuving.
Shiki, shiki, shiki
Yuving, yuving, yuving,
Tishingizni yuving.
Colgate bilan yuving! *(“Colgate” tish pastasi reklama matnidan).*



1-rasm. “Colgate” tish pastasining reklama tasviri

Eslatma reklama iste’molchilarning xotirasida tovarlarning imidjini saqlashga, tovarlar haqida xabardorlikni saqlashga, tovarlarni qayerda, qachon va qanday sharoitda sotib olish mumkinligini eslatishga qaratilgan. Bunday reklamalar qisqaligi, mahsulot nomi va ishlab chiqaruvchisini eslatib o‘tishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganligi bilan boshqa reklama ko‘rinishlaridan farq qiladi. Kuzatamiz: *Candy Gold har kungi quvonch! A’lo ta’m Candy Goldda mujassam. (“Candy Gold” shirinligi reklama matnidan).*



2-rasm. “Candy Gold” shirinligining reklama tasviri

Zotan, bolalar auditoriyasi uchun reklama yaratish reklama sohasidagi eng nozik va mas’uliyatli jarayonlardan biridir. Chunki bola hali ongli tanlov qila olmaydi, u ko‘proq hissiyot, tasvir, tovush va o‘yin elementlari orqali axborotni qabul qiladi. Shu sababli bolalar reklama matnlarini shakllantirishda quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilinadi:

1. Yosh xususiyatlarini hisobga olish:

- Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun matn qisqa, sodda, ritmik bo‘lishi kerak.

- Maktab yoshidagi bolalar uchun esa qiziqarli syujet, sarguzasht va o‘yin elementlari muhim.

2. Emotsional va obrazlilik tamoyili:

- Bolalar reklamasida quvnoq, ijobiy kayfiyatni uyg‘otuvchi so‘zlar qo‘llanadi.
- Rangli obrazlar, hayvonot yoki sevimli multfilm qahramonlari tilidan berilgan matnlar samarali bo‘ladi.

3. O‘yin tamoyili:

- Reklama matni o‘yin, qo‘shiq, she’r yoki hazil ohangida bo‘lsa, bola tezroq eslab qoladi. Masalan: qisqa jingllar, qofiyali iboralar, takroriy so‘zlardan foydalanish.

4. Axloqiy va tarbiyaviylik tamoyili:

- Bola auditoriyasiga qaratilgan reklama nafaqat mahsulotni tanitishi, balki tarbiyaviy jihatdan ham foydali bo‘lishi lozim.
- Noto‘g‘ri odatlarni targ‘ib qilmasligi, zo‘ravonlik, tajovuzkorlik unsurlaridan xoli bo‘lishi kerak.

5. Soddalik va tushunarlilik tamoyili:

- Matnda murakkab so‘zlar yoki texnik iboralardan qochiladi.
- Oddiy, bolaga tanish kundalik so‘zlar orqali fikr yetkaziladi.

6. Takroriylik va esda qolarli shakl:

- Bolalar reklama matnlari qisqa va takroriy bo‘lishi muhim.
- Qofiyali, ohangdor iboralar va jingllar orqali bola ongida mustahkam joylashadi.

7. Ijobiy namuna va rol modeli tamoyili:

- Reklama qahramoni bola uchun ibratli, ijobiy bo‘lishi kerak.
- Multfilm qahramonlari, superqahramonlar, mehribon ota-ona obrazi orqali mahsulot tanishtiriladi.

Xulosa va takliflar. Xullas, bolalar reklama matnlari kattalar reklamasi kabi bevosita tijorat maqsadida emas, balki qiziqarli, o‘yinbop va tarbiyaviy shaklda bo‘lishi kerak. Bunday reklama bola dunyoqarashiga mos kelishi, uning ruhiyati va tasavvurini ijobiy rivojlantirishi lozim. Shu sababli matnlarni shakllantirishda soddalik, obrazlilik, o‘yin elementlari, tarbiyaviylik va emotsionallik asosiy tamoyil sifatida belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Азларова А. Товарлар рекламасини ташкил қилиш ва самарадорлиги (Ўзбекистон корхоналари мисолида): Икт. фан. ном. дисс... – Тошкент, 2005.
2. Каримова Л. Социально-психологические и этнопсихологические особенности социальных представление и устоновок личности по отношению к рекламе. Кандидатская диссертация. – Ташкент, 2003.
3. Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс Пер. с англ. – Москва: Вильяме, 2007. – С. 434.
4. Маҳмудова У.У. Реклама матнлари таржимасининг лингвомаданий ва услубий жиҳатлари: Филол. фан. бўй. фалс. доктори дисс. – Қарши, 2021. – 133 б.
5. Сердобинцева Е. Структура и язык рекламных текстов. – Москва: Наука, 2010. – С. 19.

6. Tatilon C. Le texte publicitaire: traduction ou adaptation // Meta, 35(1), 1990. – P. 243. https://doi.org/10.7202/004326ar

7. Ўзбекистон Республикасининг «Реклама тўғрисида» ги Қонуни. https://lex.uz/docs/-25458

8. Шомуротова Н. Ўзбек оилаларида реклама қилинаётган маҳсулотлар идрокининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Психол. фан. номзоди дисс... Т., 2011.

ZEBO MIRZO SHE’RIYATIDA O‘XSHATISHLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Niyozova Hulkar
Navoiy davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zebo Mirzo she’riyatida o‘xshatishlarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoiraning badiiy tafakkurida o‘xshatishlar obrazli ifoda, estetik tafakkur va ruhiy holatlarni yetkazish vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Maqolada to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yashirin o‘xshatishlarning poetik vazifasi, ularning morfologik shakllari va semantik xususiyatlari Zebo Mirzo she’riyati asosida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, lingvopoetika, poetik obraz, metafora, ruhiy holat, ayol poetikasi.

Аннотатция: В статье рассматриваются лингвопоэтические особенности сравнений в поэзии Зебо Мирзо. Сравнения анализируются как важнейшее средство художественной выразительности, играющее роль в передаче эмоционального и психологического состояния лирического героя.

Ключевые слова: сравнение, лингвопоэтика, поэтический образ, метафора, душевное состояние, женская поэтика.

Annotation: This article examines the linguopoetic features of similes in the poetry of Zebo Mirzo. The analysis highlights similes as a vital means of artistic expression, representing the emotional and psychological state of the lyrical subject. Special focus is given to both explicit and implicit similes, their structural and semantic functions.

Key words: simile, linguopoetics, poetic image, metaphor, state of mind, female poetics**.**

Kirish. Adabiyotshunoslik va lingvopoetik tahlil sohalarida badiiy tilning obrazli vositalari, xususan o‘xshatishlar tili va poetik tafakkurning asosiy ko‘rinishlaridan biri sifatida ko‘riladi. O‘xshatishlar nafaqat estetik bezak, balki muallifning ichki dunyosi, ruhiy holati va badiiy dunyoqarashining til vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Zebo Mirzo ijodi bu jihatdan alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, unda o‘xshatishlar insoniy tuyg‘ularni teranlik bilan ifodalashda asosiy badiiy vositadir.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida o‘xshatishlar poetik tafakkurning muhim badiiy vositasi sifatida keng o‘rganilgan. Xususan, lingvopoetik nuqtayi nazardan qaralganda, o‘xshatishlar obraz yaratish, semantik struktura hosil qilish va lirik “men”ning ruhiy holatini ifodalashda markaziy vosita hisoblanadi. O‘xshatish san’ati badiiy tilshunoslik va stilistika yo‘nalishlarida hamisha dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. O‘zbek va jahon tilshunosligi, adabiyotshunosligi doirasida o‘xshatishlarga oid bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Prof. N.Mahmudov asosli ta’kidlaganidek, “O`xshatishlar insonlarning obrazli tafakkur tarsi mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo’ladi, nutqning ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi” . O`xshatishni hosil qilishda ma’lum unsurlardan

foydalaniladi. Ammo shu unsurlarning qo’llanishi bo’yicha olimlarning fikrlari mavjud. Ma’rufjon Yo’ldoshev o’zining “Badiiy matnning lisoniy tahlili” kitobida quyidagicha yozadi: “Adabiyotlarda har qanday o’xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan , albatta, to’rt unsur nazarda tutiladi, ya’ni: 1) o’xshatish subyekti; 2)o’xshatish etaloni; 3) o’xshatish asosi; 4) o’xshatishning shakily ko’rsatkichlari”. O’xshatish hosil qiluvchi leksik vositalar: kabi, singari, go’yo, xuddi, misli, misoli, bamisli ko’makchilari hisoblanadi. -day (-dek), -simon, ona -larcha va boshqa ko’pgina qo’shimchalar o’xshatish hosil qiluvchi grammatik vositalardir. O’xshatishlardagi nutqiy obrazlikni oshiruvchi asosiy xususiyat favqulotda o’xshatilishdir. J. Lapasov esa o’zining “Badiiy matn va lisoniy tahlil” qo’llanmasida esa o’xshatish uchun uch unsur ishtirok etishini aytib, ular 1) o’xshatilgan shaxs yoki unsur; 2) o’xshatish asosi; 3) o’xshatish vositasi deb ta’kidlaydi. Professor N. G‘aniyeva o‘zining “She’riy nutq poetikasi” nomli tadqiqotida o‘xshatishning milliy poetik tafakkurdagi rolini shunday belgilaydi: “O‘xshatishlar o‘zbek she’riy tilida nafaqat tasviriylik, balki badiiy tafakkurning psixologik rangini belgilovchi vositadir” . Zebo Mirzo ijodi to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘xshatish masalasida alohida tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, uning umumiy poetikasini tahlil qilgan adabiyotlarda o‘xshatmalar tili va obrazlar tizimi bevosita yoki bilvosita o‘rganilgan. Masalan, S. Umarovaning “Zamonaviy o‘zbek she’riyati poetikasi” asarida quyidagicha fikr bildiriladi: “Zebo Mirzo she’riyatida o‘xshatishlar asosan ayol kechinmalarining obrazli shaklidir. Bu o‘xshatishlar soddaligi bilan emas, balki ruhiy murakkablikni yoritishi bilan e’tiborni tortadi” .

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Zebo Mirzo she’riyatida o‘xshatishlarning badiiy-funktsional imkoniyatlarini aniqlash va ularning poetik nutqdagi rolini tahlil qilish maqsadida lingvopoetik tahlil, struktur-semantik yondashuv, psixolingvistik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Qolaversa, Zebo Mirzo she’riyatida o‘xshatishlar — bu nafaqat poetik bezak, balki ichki kechinma, psixologik ziddiyat, estetik yondashuv va badiiy nutqning lingvopoetik markazidir.

Tahlil va natijalar.

Zebo Mirzo ijodidagi o‘xshatishlar bevosita tashqi ko‘rinish, rang yoki holatni taqqoslash bilan cheklanmay, balki insonning ruhiy, hissiy kechinmalarini obrazli vosita orqali yetkazish vazifasini bajaradi. Shoira klassik va an’anaviy o‘xshatish shakllarini emas, balki o‘ziga xos psixologik poetika asosidagi o‘xshatishlarni keltiradi. Masalan,

Sukut — muzday ko‘rpacha singari,

Qoplagan yurakni yolg‘izlikda. (“Sukunat”)

Misrada “sukut” (jimlik) “muzday ko‘rpacha”ga qiyoslanadi. Muzday ko‘rpacha — sovuqlik, yolg‘izlik ramzi. Shoira jimlikni nafaqat tashqi holat, balki ichki ruhiy sovuqlik, ayolning yuragidagi muzlash, befarqlik va umidsizlik timsoli sifatida ifodalaydi. Bu o‘xshatish orqali jimlikning hissiy og‘irligi va inson ruhiyatidagi sovuqlik seziladi. Shu bilan birga, bu o‘xshatish ayol ruhining o‘ziga xos ichki dunyosini ochib beradi, jimlikni haqiqiy insoniy iztirob sifatida ko‘rsatadi.

Zebo Mirzo she’rlarida o‘xshatishlar ikki asosiy tipda namoyon bo‘ladi:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘xshatishlar: "dek", "kabidir", "singari", "xuddi" kabi ko‘makchi so‘zlar orqali amalga oshadi.

Sog‘inchlarim xuddi yaproqlardek,

Bir-bir to‘kilar tun bag‘riga. (“Sog`inch”)

Shoira ushbu misrada to`g`ridan to`g`ri o`xshatishlardan foydalangan holda, she`r mazmunini ham o`ta noziklik bilan ifodalaydi. Jumladan, sog‘inchlar yaproqqa, tun esa bag‘irga taqqoslangan. Yaproqlarning to‘kilib ketishi – vaqt o‘tishi bilan sog‘inchning asta-asta susayishi yoki ichki ravishda ichga singib ketishi ramzi. “Tun bag‘ri” esa chuqur yakkalik, tushkunlikni anglatadi. Bu o‘xshatish orqali sog‘inch tabiiy holat sifatida ko‘rsatiladi, lekin uning davomiyligi va chuqurligi ham ifodalanadi. Shoira bu tasvirlar orqali o‘quvchida chuqur hissiyot uyg‘otadi.

Yashirin o‘xshatishlar (metaforik o‘xshatishlar): vositalar yo‘q, lekin taqqoslash mavjud.

Men yuragimda yomg‘irni yashiraman,
So‘zim quyoshli bo‘lsin deb...(“Yurak”)

Ushbu misolda yomg‘ir – ichki og‘riq, so‘zdagi quyosh – tashqi xotirjamlik ramzidir. Bu yashirin o‘xshatishda ayolning ichki ziddiyatli holati kuchli metaforik tarzda berilgan. “Yuragim — telba qushdek urilar devorlarga”. Ushbu misrada yurak “telba qush”ga o‘xshatilgan. “Telba qush” — azoblangan, erkinlikka intilayotgan jonli mavjudot. “Devorlar” esa to‘siqlar, insoniy jamiyat yoki o‘z-o‘ziga qo‘yilgan cheklovlar ramzi sifatida ishlatilgan. Shu tariqa, o‘xshatish yurakdagi ichki iztirobni faol va dinamik obraz orqali tasvirlaydi. Shoira yurakning ichki urushini, ozodlikka bo‘lgan intilishini o‘quvchiga jonli va sezgir ta’sir bilan yetkazadi.

Ko‘zimdagi so‘nmas yulduz kabi,
Bir sevgi so‘ndirmas, goho,
Yuragimda olov kabi o‘tlar,
Tunlarimni yondirar jonimda. (“Hechqisi yo`q, yashab ketaman…”)

“Ko‘zimdagi so‘nmas yulduz kabi” bu yerda ko‘z ichidagi “yulduz” – hayotiy umid, nur va istiqbol ramzidir. “So‘nmas” sifatida esa umidning doimiyligi, o‘chmasligi ta’kidlanadi. Bu o‘xshatish to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yorqin poetik obraz yaratadi. Shoira o‘quvchiga ko‘zlarni faqat ko‘rish organi sifatida emas, balki ruhiy yorug‘lik manbai sifatida ko‘rsatadi. “Yulduz kabi” taqqoslash umid va sevgining doimiyligini mustahkamlaydi.

Zebo Mirzo o‘xshatishlar orqali o‘zining ayol lirikasi, ichki azoblar, ona muhabbati, sadoqat kabi mavzularni poetik ifodalaydi. O‘xshatishlar orqali u o‘z “men”ining turfa yo‘nalishdagi kechinmalarini tabiat, ob-havo mavsumlar obrazlari bilan uyg‘unlashtiradi. U bir she`rida:

Ayol — bahor, ammo doim izg‘irinli...deya ta`riflaydi.

Misrada ayol obrazining go‘zalligi va azobli holati “bahor” va “izg‘irin” kabi qarama-qarshi so`zlar vositasida tasvirlanadi.. Bu esa Zebo Mirzo poetikasining kontrastli o‘xshatishlar orqali tuyg‘ular ziddiyatini mohirona ifodalay olishini ko`rsatadi. Uning she`riyatida bu kabi o`xshatishlarni har bir satrda uchratish mumkin. Zero, Zebo Mirzo she`riyatini tahlil etish va o`rganish kelajak yosh avlodning zimmasidagi mas`uliyatdir.

Xulosa va takliflar. Zebo Mirzo she’riyatida o‘xshatishlar poetik fikrning asosiy semantik va estetik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali shoiraning ruhiy kechinmalari, hissiy murakkabliklari va falsafiy mulohazalari ifodalanadi. O‘xshatishlar

poetik tuyg‘ularni vizual va intuitiv ravishda o‘quvchiga yetkazadi. Bu jihatlar Zebo Mirzoning lingvopoetik tafakkuridagi yangilanishlarni ko‘rsatadi. Zebo Mirzo she’riyati o‘xshatishlar orqali nafaqat tabiiy tasvirlarni yaratadi, balki inson ruhining murakkab, ko‘p qirrali kechinmalarini chuqurroq anglatadi. Uning o‘xshatishlarida tabiiylik va psixologik obrazlar birlashib, o‘quvchini lirik sub’ektning ichki olamiga chuqurroq kirishga chorlaydi. Shu sababli uning poetik tili lingvopoetikaning mukammal namunasi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zebo Mirzo “Ishq”. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
2. G‘aniyeva N. She’riy nutq poetikasi. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Rasulov B. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Universitet, 2018.
4. Umarova S. Zamonaviy o‘zbek she’riyati poetikasi. – Samarqand, 2016.
5. Yuldasheva Z. Metafora va o‘xshatishning poetik tabiati. // O‘zbek tili va adabiyoti, 2020, №4.
6. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – T.: Mumtoz so’z, 2017.
7. Ma’ruf Yo’ldoshev. “Badiiy matn lingvopoetikasi”
8. J.Lapasov. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O’qituvchi

THE SOCIAL-CULTURAL AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF EDUCATIONAL DISCOURSE

Bobojonova Shahnoza,
Unitersity of Tashkent for Applied Sciences,
Associate professor, PhD,

Abstract: This article defines educational discourse as the study of socio-cultural and communicative interactions between teachers and students. It highlights the importance of analyzing these interactions to improve the effectiveness of modern teaching practices. The research is conducted from philological, sociolinguistic, pragmatic, and linguoculturological perspectives, providing a detailed analysis of the interactive communication system between the addressee and the addresser in educational contexts.

Keywords: Educational discourse, Institutional discourse, Addressee and addressant, Communicative functions, Socio-cultural context, addressee and the addresser

Introduction

Discourse, in a broad sense, is understood as a text connected with extralinguistic factors—pragmatic, socio-cultural, psychological, and others—essentially "language embedded in life" [1]. In a narrower sense, discourse refers to a set of texts expressed within a speech context, harmonized in a general communicative situation, and incorporating extralinguistic factors such as the specific conditions of communication (time and place), the characteristics of information transmission and reception, the social attributes of participants, and nonverbal communication tools [2]. In other words, discourse is limited by the specific combination of participants, conditions, and communication means, which is defined by socio-cultural characteristics. From this perspective, it is possible to speak about a specific type of discourse within the broader sense.

Nowadays, types of discourse are mainly classified from sociolinguistic and pragmalinguistic perspectives. From a sociolinguistic point of view, discourse is divided into person-oriented and status-oriented types. Person-oriented discourse has two main forms: everyday discourse and discourse related to existence. Status-oriented discourse corresponds to institutional discourse, representing verbal interactions that occur within social groups or institutions.

Literature review

Institutional discourse takes various forms. According to V. I. Karasik's classification, institutional discourse includes political, administrative, legal, military, pedagogical, educational, religious, mystical, medical, business, advertising, sports, scientific, theatrical, and mass media discourses [3]. Additionally, critical, moral, parental, and other forms are distinguished. Differences in terminology among linguists

are explained by the flexibility of social institutions and variations in the level of their differentiation.

Institutional discourse, in all its forms, is formed within the communicative space of a social institution and reflects communication based on the relationships between the addressee and the recipient. It transmits norms and standards of role behavior and reinforces them through official traditions and values. In addition, institutional discourse performs functions of authority, control, and supervision. Its main purpose is to strengthen in the collective consciousness the system of behavioral norms and values present in various social spheres. According to O. F. Rusakova and V. M. Rusakov, one of the key features of institutional discourse is the concept of a "social mission," meaning that a social institution provides some universal benefit for both individuals and society [6].

The communicative structure of institutional discourse and the role relationships between participants are formed in the education system based on this very mechanism. As a social institution, an educational establishment performs functions of authority, control, information transmission, and the formation of social values. Therefore, in educational discourse, the roles of the teacher (addresser) and the student (addressee), their status, and their speech behavior form a standardized communicative model. Therefore, analyzing educational discourse as a special form of institutional discourse is scientifically justified.

Research methodology

Educational discourse also encompasses the methods of thinking and using language that exist within education. Its practical significance largely lies in relying on language for complex social activities such as creating presentation materials, disseminating ideas, acquiring knowledge, and reinforcing students' understanding. Textbooks, essays, conference presentations, dissertations, lectures, and scholarly articles are products of academic activity, and in this type of activity, mastery of language and effective use of its potential is one of the key concerns. Individuals use language to write, solve problems, and understand issues in ways specific to particular social groups, shaping social realities, personal identities, and professional institutions. Any new discovery, insight, invention, or concept has no significance until it is communicated in a way that others can understand. Therefore, a thorough study of educational discourse is considered a primary criterion for success in academic life. Academic discourse has transformed our worldview and become the main way of interpreting reality and our existence. Its traces can be found not only in scientific and popular publications but also on pharmaceutical packaging, toothpaste advertisements, and television documentaries. As Halliday and Martin emphasize, "The language of science has become the language of literacy."

In the comparative analysis of the two types of discourse, it is effective to rely on the main parameters of communication. These include: 1) the addresser; 2) the addressee (direct or indirect); 3) the social distance and status relationships between participants; 4) the tone of communication; 5) the purpose; 6) the means and methods of communication; and 7) genres [4]. In summary, these parameters allow for a more

precise analysis of the structure of discourse, its purpose, and the relationships between participants.

The main participants in educational discourse are the teacher (addresser) and the student (addressee), and their interaction is based on a clear division of roles and behavioral norms. The emergence of digital technologies, distance learning formats, and multicultural audiences has made this discourse more complex and multi-layered. In such a context, ensuring effective communication requires not only the transmission of information but also cultural and pragmatic adaptation. In this discourse, the relationships between the addresser and the addressee are formed within a strict system of institutional roles: the addresser is the person who transmits knowledge, skills, and values, while the addressee participates as the receiver who understands and applies them in practice. Although hierarchical structures prevail in traditional education, in digital learning environments this structure is often supplemented by principles of horizontal collaboration.

The tone of communication in educational discourse is usually serious, formal, and goal-oriented. The addresser's speech typically involves instructions, explanations, and guidance, while the addressee's speech occurs in the form of questions, confirmations, or clarifications. The choice of linguistic means is also adapted to social status and roles: the addresser's speech emphasizes normative and logical structures, whereas the addressee participates through concise and clear responses.

Thus, the relationship between the addresser and the addressee in educational discourse is simultaneously hierarchical and institutional. At the same time, their roles and the tone of communication are key factors determining the effectiveness of the learning process. Pedagogical and psychological studies, in line with philological research, indicate that teachers and students are central participants in educational discourse. The teacher functions as a mentor, communicator, advisor, environment creator, behavior shaper, and guarantor of safety, generating distinct forms of social interaction in every communicative task. The main communicative goal of educational discourse is to socialize new members of society, introduce them to systems of knowledge, skills, and values, and prepare them for practical life. From this perspective, the addresser (teacher) serves as the primary source of information related to science, culture, and social life, while the addressee (student) receives, understands, and applies this knowledge. As a result, educational discourse actively facilitates the conscious adaptation of the individual to the social environment.

A person learns the basics of oral communication at home. The educational environment enhances this learning by teaching students how to interact with their peers and teachers. The quality of communication in a student's life often determines their professional communication skills in the future. Effective communication allows students to ask relevant questions and discuss what they do not understand, helping them gain more from the learning process. Efficient oral communication also supports socialization by facilitating new friendships, which in turn benefits the educational process. Moreover, strong communication skills promote career development. Communication abilities improve professionalism in speech styles, self-expression, and

interactions with others, and these qualities help students succeed in their future professional lives.

In any communicative situation, a speaker aims to achieve a specific goal, influencing the interlocutor either directly or indirectly. This goal, along with the speaker's attitude, the need to maintain interaction, and the situational context, shapes the choice of language, the topic, and the form of communication. In other words, speakers use deliberate strategies to reach their intended outcome. Linguistic units chosen according to the communicative goal thus carry particular importance.

A central focus of educational speech is the category of **pedagogical interaction,** which serves as a key factor in motivating students' learning. The educational process is guided not only by the teacher but also through active interaction between teacher and students.

The structure of educational discourse depends on both external and internal factors that determine its stages:

Stages of educational discourse:

1. Familiarization with the language of communication.
2. Introducing and confirming the topic of conversation.
3. Changing roles during the communicative act.
4. Shifting the topic within the conversation.
5. Concluding or exiting the communicative act.

During the learning process, participants communicate, share knowledge, and interact within the educational environment.

The natural changes in spoken and written language within educational discourse texts reflect how the mechanisms of language and speech self-regulation respond to shifts in social reality. It is well known that any change in spoken language also influences written language. In this regard, Wilhelm von Humboldt explains the relationship between education and language change as follows: "Different languages are not different signs for the same thing, but different perspectives on it." These changes also define in the linguistic markers of educational discourse—its stylistic features. For instance, contemporary texts have moved away from the traditional scientific-instructional style and are approaching a more popular scientific and academic-creative style.

Educational discourse aims to cultivate independent thinking, analytical skills, and creative approaches among students. Therefore, education goes beyond simply transmitting ready-made knowledge; it serves to develop the intellectual potential of individuals through communication. For this reason, educational discourse often combines pragmatic, informative, and motivational components, serving as an essential tool for organizing lessons effectively. Unlike other types of discourse, communication in educational discourse occurs in a formal and structured manner. Pedagogical language is formed between the addresser and addressee, incorporating specialized terminology, question-and-answer models, and explanatory formats. This language must be precise, consistent, and clear, as its primary goal is to deliver knowledge and ensure understanding.

For example, the teacher manages communication by giving instructions, explanations, tasks, or questions, while the student participates by responding, providing clarification, or identifying areas of misunderstanding. Such a communicative structure possesses institutional characteristics, with clearly defined roles.

Conclusion. In conclusion, the communicative purpose of educational discourse is not only to transmit knowledge but also to prepare students for social life, teach independent thinking, encourage a positive communicative environment, and promote intercultural interaction. Its communicative tools are characterized by formality, systematic organization, and clear objectives, while also incorporating flexibility and modern interactive approaches. The sharing of knowledge and values in educational discourse does not happen on its own; it is affected by changes in language over time. As teachers and students communicate, the way they speak and write adjusts to social, cultural, and technological developments. Therefore, changes in spoken and written language influence how educational discourse is expressed, showing the close connection between teaching and language use.

The list of used literature

1. Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В. Н. Ярцева. — М. : Советская энциклопедия, 1990. — С. 136–137.
2. Ван Дейк Т. А. Язык. Познание. Коммуникация. — М. : Прогресс, 1989. — 312 с.
3. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. — Волгоград : Перемена, 2002. — 477 с.
4. Богомолова Н. Н. Массовая коммуникация и общение. — М. : Знание, 1984. — 96 с.
5. Кубрякова Е. С. Язык и знание. — М. : Языки славянской культуры, 2004. — 555 с.
6. Русакова О. Ф., Русаков В. М. Институциональный дискурс: структура и функции // Вестник Челябинского государственного университета. — 2010. — № 17. — С. 60–67.
7. Vollmer H. J. Language Across the Curriculum. Strasbourg//: Europarat.–2006.-25p.
8. Halliday, M. A. K.; Martin, J. R. (Eds.) Writing Science: Literacy And Discursive Power. Bristol/London: The Falmer Press, 1993–155p.
9. Раупова, Л. Р. (2011). Диалогик нуткнинг дискурсив талкини. Т.: Фан.
10. Умаров, б. (2021). Discourse analysis as a method for assessing the communicative competence of PUPILS. Современное образование (Узбекистан), (3), 58-64.
11. Kizi, S. B. Y. (2022). Linguo-cultural characteristics of speech etiquette occurring in discourse. Current Research Journal of Philological Sciences, 3(11), 59-63.
12. Shakhnoza, B. (2024). Psycholinguistics and educational discourse. American Journal of Philological Sciences, 4(05), 200-204.

ABDULLA ORIPOV, MUHAMMAD YUSUF VA SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATI KORPUSINING AHAMIYATI

Maxammadiyeva Diyora,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmon she'riyati asosida yaratilgan poetik korpusning adabiyotshunoslikdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda korpus lingvistikasi metodlari orqali shoirlarning individual uslubi, poetik leksikoni, obrazlar tizimi va motivlar strukturasini empirik asosda o'rganish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, poetik korpus yordamida mualliflik izlarini aniqlash, zamonlararo poetik tafakkurni qiyosiy tahlil qilish va she'riyatda ijtimoiy-siyosiy ruhning aks etishini statistik ko'rsatkichlar asosida izohlash imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot o'zbek adabiyotshunosligida raqamli yondashuv va lingvostatistik metodlarning samaradorligini ilmiy asosda namoyon etadi.

Kalit so'zlar. Poetik korpus, korpus lingvistikasi, chastotali lug'at, konkordans, kollokatsiya, mualliflik izlari, motiv, poetik tafakkur, zamonlararo tahlil, raqamli adabiyotshunoslik.

Аннотация. В данной статье анализируется литературоведческое значение поэтического корпуса, созданного на основе творчества Абдуллы Орипова, Мухаммада Юсуфа и Шавката Рахмона. В исследовании рассматриваются пути эмпирического изучения индивидуального стиля поэтов, их поэтического лексикона, системы образов и структуры мотивов с использованием методов корпусной лингвистики. Кроме того, показаны возможности выявления авторских признаков, сравнительного анализа поэтического мышления разных эпох и интерпретации отражения социально-политической действительности в поэзии на основе статистических показателей. Работа научно обосновывает эффективность цифрового подхода и лингвостатистических методов в современном узбекском литературоведении.

Ключевые слова: поэтический корпус, корпусная лингвистика, частотный словарь, конкорданс, коллокация, авторские признаки, мотив, поэтическое мышление, межвременной анализ, цифровое литературоведение.

Abstract. This article analyzes the literary significance of the poetic corpus compiled from the works of Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, and Shavkat Rahmon. The study explores empirical approaches to examining the poets' individual style, poetic lexicon, imagery system, and motif structure through corpus linguistics methods. Furthermore, it demonstrates the possibilities of identifying authorial markers, conducting diachronic comparative analyses of poetic thought, and interpreting the reflection of socio-political realities in poetry using statistical indicators. The research scientifically substantiates the effectiveness of digital approaches and linguostatistical methods in modern Uzbek literary studies.

Keywords: poetic corpus, corpus linguistics, frequency dictionary, concordance, collocation, authorial markers, motif, poetic thought, diachronic analysis, digital literary studies**.**

Kirish. So‘nggi yillarda korpus lingvistikasi nafaqat tilshunoslikda, balki adabiyotshunoslik va ta’lim sohalarida ham samarali tadqiqot vositasiga aylanmoqda. Adabiy asarlarning elektron korpusini yaratish, ularni lingvostatistik tahlil qilish, poetik birliklarni raqamli muhitda qayta ishlash – zamonaviy ilm-fanning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, she’riy matnlar kabi murakkab va stilistik jihatdan boy qatlamni o‘rganishda **korpus lingvistikasi** yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek she’riyatida Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmon ijodiy merosi XX-XXI asr milliy adabiy tafakkur taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Ularning poetik korpusini yaratish orqali shoirlarning individual uslubiy xususiyatlari, leksik-semantik maydonlari, poetik ramzlari hamda badiiy-estetik qarashlarini tizimli o‘rganish imkoniyati yuzaga keladi. Tadqiqot uchun tuzilgan korpus umumiy hajmi **574 581 ta so‘z shakllari**ni o‘z ichiga oladi.

Poetik korpuslar, o‘z navbatida, nafaqat tilshunoslik balki adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi va madaniy tadqiqotlar uchun ham boy manba bo‘lib, muallifning ichki dunyosi, poetik idrok va badiiy tasvir imkoniyatlarini chuqur anglashga yordam beradi. Ayniqsa, mualliflik korpusi, ya’ni alohida shoir yoki adib ijodiga bag‘ishlangan matnlar majmuasi — poetik nutqdagi individual uslub belgilari va leksik-semantik o‘ziga xosliklarni aniqlashda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

So‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot ulkan matn korpuslarini kompyuter yordamida tahlil qilish orqali tadqiqotchilarga madaniy tendensiyalarni kuzatish va ularni miqdoriy tadqiq etish imkonini berdi[1]. Xususan, Moretti **“Graphs, Maps, Trees”** konsepsiyasi orqali adabiy jarayonlarni vizual modellar yordamida tahlil qilish metodini taklif etdi[2]. **Ganascia esa** raqamli adabiyotshunoslikda **“Big Data”** yondashuvi g‘oyasini ilgari surib, yirik hajmdagi matnlar ustida statistik, hisoblash va vizualizatsiya metodlarini qo‘llash adabiy tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqqanini ta’kidladi. Unga ko‘ra, **raqamli adabiyotshunoslik** asrlar davomida sezgi va aql-idrok ustuvor bo‘lgan faoliyat sohalarida endilikda tizimli va texnologik asoslangan metodologiyalarni taklif qilmoqda[3]. Bunday tadqiqotlarning barchasi kompyuter bashoratlari uchun **o‘quv korpusi**ni talab qiladi. Jacobs esa adabiyotni empirik o‘rganishda mukammal o‘quv korpusini topish yoki yaratish muhim muammo bo‘lib qolganini ta’kidlaydi[4]. Chunki odatiy korpuslar maxsus adabiy matnlar asosida tuzilmagan edi. Keyinchalik Jacobs **“Gutenberg English Poetry Corpus”** korpusini ingliz she’riyatini miqdoriy narrativ tahlil qilish uchun namunaviy platforma sifatida taqdim etadi. Ushbu tadqiqot adabiy matnlarni kompyuter lingvistikasi vositalari yordamida tizimli va empirik asosda o‘rganish imkonini kengaytirdi[5]. Umuman olganda, ushbu adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy adabiy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar, korpus lingvistikasi va “katta ma’lumotlar bazasi” (Big Data)

yondashuvi orqali yangi ilmiy paradigma shakllanmoqda. Bu yondashuv adabiy jarayonlarni nafaqat estetik va tarixiy, balki statistik va hisoblash asosida ham tahlil qilish imkoniyatini yaratmoqda.

Google Books loyihasi bunga yorqin misoldir: millionlab kitoblarning raqamlashtirilishi va metadata bilan ta’minlanishi natijasida tarixiy va madaniy jarayonlarni **miqdoriy kuzatish va lingvostatistik tahlil qilish** imkoniyati paydo bo‘ldi. Google Books’ni raqamlashtirish jarayoniga umumiy nazar tashlasak, 2004-yilda Google kitoblarni skanerlashni boshladi va ularning mazmunini onlayn qidirish va topish imkoniyatini yaratdi. Hozirga qadar Google 15 milliondan ortiq kitobni skanerlagan bo‘lib, bu barcha chop etilgan kitoblarning qariyb 11 foizini tashkil etadi. To‘plamda 5 milliard sahifa va 2 trillion so‘z mavjud bo‘lib, eng qadimgi kitob 1473-yilga tegishli, matnlar esa 478 tilda. Skanerlash jarayoni ko‘plab muhandislik muammolarini keltirib chiqardi, ular tarixiy n-gram korpusini yaratishda ham muhim ahamiyatga ega. Keyingi bosqichlar natijasi sifatida raqamli matnlar va har bir nashrga oid metama’lumotlar bazasi shakllantirildi. Google 100 dan ortiq metadata manbalaridan foydalanib, keng qamrovli kitoblar katalogini yaratdi. Bu manbalarga kutubxona kataloglari (masalan, Michigan Universiteti kolleksiyasi), savdo tashkilotlari (masalan, Fransiyadagi Decitre kitob do‘koni) va tijorat agregatorlari (masalan, Ingram) kiradi. Shuningdek, Google 30 ming hamkor nashriyotdan ham metadata oladi. Har bir metadata yozuvi odatda MARC (kutubxonalar orasida keng tarqalgan) yoki ONIX (nashriyot sanoatida ishlatiladigan) formatida bo‘ladi. Yozuvlarda kitob nomi, muallif, nashriyotchi, chop etilgan sana va til kabi bibliografik ma’lumotlar mavjud. 2010-yil avgustidagi hisob-kitoblarga ko‘ra, umumiy nashr etilgan kitoblarning soni 129 million deb baholangan. Bu miqdor yil sayin oshib bormoqda[6]. Google Books loyihasi bu sohada katta tajriba manbasi bo‘lsa-da, mazkur resursdan samarali foydalanish uchun **metama’lumotlarni birlashtirish, nashrlar va nashr turlarini ajratish, OCR va til metama’lumotlari sifatini nazorat qilish** kabi murakkab texnik jarayonlarni puxta boshqarish talab etiladi.

Bugungi kunda dunyo tajribasida bir necha xalqlarning she’riy korpuslari yaratilgan bo‘lib, ular turli darajada bir-biridan farqlanadi. Xususan Rus tili milliy korpusining bir qismi, ya’ni subkorpus sifatida yaratilgan poetik korpus 18-20-asarlardagi rus she’riyatini o‘zida jamlagan bo‘lib, 103626 matn, 14 milliondan ortiq so‘zlardan iborat (https://ruscorpora.ru/corpus/poetic)[7], ingliz she’riy matnlaridan iborat Gutenberg english poetry corpus 2 mlndan ortiq so‘zlardan iborat (https://github.com/aparrish/gutenberg-poetry-corpus)[8], York va Xelsinki mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan qadimgi ingliz she’riyati korpusi 71490 so‘z qo‘llash imkoniga ega (https://www-users.york.ac.uk/~lang18/pcorpus.html)[9], o‘rta asrlar ingliz she’riyati korpusi 233833 so‘z qo‘llash imkoniga ega

(https://pcmep.net/)[10], XIX asrning dastlabki davrlariga oid rus va fransuz she’riy matnlaridan tuzilgan parallel korpusning hajmi 13700 ta fransuz tili va 15000 ta rus tilidagi she’riy matnlardan iborat (http://nevmenandr.net/fr/)[11], Boshqird she’riyati korpusi esa 101 shoirning 17 mingdan ortiq she’rlarini jamlagan 1,8 mlndan ortiq so‘z qo‘llash imkoniga ega ekanligi bilan ahamiyatli.

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda o‘zbek tilining milliy korpusi (https://uznatcorpara.uz/)[12], o‘zbek tilining ta’limiy korpusi (https://uzschoolcorpara.uz/)[13], Alisher Navoiy mualliflik korpusi (http://alishernavoicorpus.uz/en)[14], O‘zbek tili korpusi (https://uzbekcorpus.uz/)[15] kabi bir qancha lingvistik korpuslar yaratildi. Ushbu korpuslarda yozma va og‘zaki matnlar ko‘lami keng bo‘lishiga qaramasdan she’riy matnlar birmuncha ozchilikni tashkil qiladi. Shuningdek, bugungi kungacha olib borilgan tadqiqotlarning hech birida o‘zbek she’riy matnlari korpusini yaratish kun tartibiga kiritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda **korpus lingvistikasi** va **lingvostatistik tahlil** metodlari asosida empirik yondashuv qo‘llanildi. **Matnlarni raqamlashtirish** va **tozalash** jarayonlari amalga oshirilib, 574 581 ta so‘z shaklidan iborat poetik korpus yaratildi. **Chastotali lug‘atlar** tuzilib, har bir shoirning faol va passiv leksik birliklari aniqlandi. **Konkordans tahlili** orqali metafora, epitet va obrazlarning kontekstual ishlatilishi o‘rganildi. **Semantik guruhlash** va **motiv tahlili** orqali shoirlarning poetik dunyoqarashi, tematik ustuvorliklari va badiiy-estetik qarashlari tahlil qilindi. **Qiyosiy-statistik tahlil** yordamida uch shoirning uslubiy o‘xshashlik va farqlari, shuningdek, ularning poetik tafakkuridagi davriy o‘zgarishlar haqida mulohazalar bildirildi. Mazkur metodologiya o‘zbek she’riyatini miqdoriy, semantik va stilistik mezonlarda o‘rganish uchun yangi ilmiy asos yaratadi.

Tahlil va natijalar.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda katta hajmli matn korpuslari til birliklarini tizimli va chuqur tahlil qilishning ishonchli metodologik asosiga aylanmoqda. Xususan, **poetik korpus**lar, ya’ni she’riyat matnlarining maxsus raqamlashtirilgan to‘plami – **til, uslub, obrazlar tizimi, poetik tafakkurdagi o‘zgarishlarni chuqur o‘rganish uchun noyob manba** bo‘la oladi. O‘zbek tilshunosligida bunday turdagi korpuslar hozircha ko‘p emas, mavjudlari esa asosan ma’lum bir mualliflik korpusining tarkibida yoki prozaik, publitsistik, rasmiy uslub doirasida shakllangan. Shu sababli, **she’riy matnlar asosida yaratilgan poetik korpus** o‘zbek tilining **badiiy qatlami**ni o‘rganishda muhim manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Poetik korpus **adabiyotshunoslar** uchun ko‘p qirrali va chuqur tadqiqot imkoniyatlarini yaratadi. Quyida uning asosiy yo‘nalishlar va tadqiq etish bosqichlarini sanab o‘tamiz:

1. Shoir uslubini tahlil qilish. **Ishni, a**vvalo, muallifga xos **stilistik vositalar**, obrazlar, metafora va epitetlarning chastotasini aniqlashdan boshlaymiz. Bunda korpusdagi matnlarda **metafora, epitet, obrazli ifodalar, ritorik vositalar** maxsus belgilab chiqiladi. Bu asosan qo‘lda yoki qisman avtomatik vositalar yordamida bajarilishi mumkin. Masalan, “qalbingda tong kabi yashab qolsin”, *“*parilarni kuvgan kabi dev hurkitib*” (M.Yusuf) metaforalari, “*avlodlar yulduz quyoshim rahnamo hamisha”, “oy va quyoshim mahshargacha tik” (A.Oripov) kabi epitetlarni aniqlab olish lozim. Belgilangandan so‘ng, chastotali hisoblash, ya’ni ularning **necha marta ishlatilgani** hisoblanadi. Bu orqali muallif ijodida qaysi vosita ustuvorligini ko‘rish mumkin. Shundan so‘ng Har bir muallifdagi stilistik birliklarning chastotasi taqqoslanadi va **muallifning uslubi** aniqlanadi. Misol sifatida biz Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon ijodidagi yuqori chastotali so‘zlarni korpus orqali aniqlaganimizda **Abdulla Oripov** she’riyatida “inson”, “ulug‘”, “temur”, “o‘zbekiston”, “xalq” kabi **tarixiy, falsafiy, va ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlar**ga oid birliklar yuqori chastotada, **Muhammad Yusuf** ijodida “dunyoda”, “qiz”, “onam”, “yor”, “o‘zing”, “bolam” kabi so‘zlar chastota, **Shavkat Rahmon she’riyati**da “buyuk”, “osmon”, “oq”, “og‘ir”, “nogoh”, “quyosh”, “tush”, “shamol”, “ko‘zlari”, “bahor” kabi **tasviriy**, **tabiatga oid**, **metaforik** birliklar yuqori chastotada qo‘llanilganligiga guvoh bo‘ldik. So‘zlarning konkordans matnlarida ishlatilish holatlari tekshiriladi. Bu **metafora yoki epitetning badiiy matndagi vazifasini** ko‘rsatadi. Mualliflarning **dominant obrazlari, metafora va epitetlari** asosida **muallifning uslubiy portreti belgilanadi. Shunday qilib, p**oetik korpusdagi stilistik vositalar **aniqlash → hisoblash → qiyoslash → kontekstual tahlil qilish** bosqichlari orqali tadqiq qilinadi. Bu esa muallifning badiiy dunyoqarashi va **individual uslubini ilmiy asosda tasvirlashga** imkon beradi.

Shoir uslubini tahlil qilishdagi ikkinchi qadam bu – har bir shoirning **individual poetik leksikoni**ni aniqlashdir. **Individual poetik leksikon – har bir shoir ijodiga xos, ammo boshqa ijodkorlarda deyarli qo‘llanilmagan, takrorlanmas so‘zlardir.** Buni poetik korpus orqali aniqlash uchun, avvalo, poetik korpus tuzilishi zarur. Buning uchun tanlangan shoirlarning barcha she’rlari raqamlashtiriladi, ortiqcha belgilar (imlo xatolari, takroriy matnlar) tozalanadi. Chastotali lug‘at tuzish orqali shoirlar ijodida eng faol va eng passiv ishlatilgan leksik birliklar aniqlanadi. Aynan passiv birliklar orasidan muallif ijodidagi unikal birliklar aniqlab olinadi. Mazkur yondashuv shoirning semantik markazini, tematik ustuvorligini, individual leksik strategiyasini empirik dalillar asosida aniq ko‘rsatib berdi. Masalan, biz tuzgan o‘zbek she’riyati korpusida Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon ijodidagi faol va passiv so‘zlar miqdoriy jihatdan o‘rganildi. Natijalarni quyidagi jadvallar orqali qiyosiy tahlil qilishimiz mumkin (1-2-3-jadval).

1-jadval. Abdulla Oripov she’riyatida faol va passiv leksik birliklar

T/R	Faol	Chastota	Passiv	Chastota
1.	inson	630	qutlovlar	1
2.	yil	604	tabriklar	1
3.	shoir	566	ketmonchi	1
4.	odam	549	o‘g‘liday	1
5.	buyuk	395	eshman	1
6.	o‘zbek	389	zakosan	1
7.	ulug‘	385	o‘lat	1
8.	temur	360	afshonadan	1
9.	yaxshi	333	javharini	1
10.	dunyo	331	elsevar	1

2-jadval. Muhammad Yusuf she’riyatida faol va passiv leksik birliklar

T/R	Faol	Chastota	Passiv	Chastota
1.	dunyoda	352	xushruxsori	1
2.	qiz	319	bog‘chaxolalar	1
3.	odam	319	o‘qariqdek	1
4.	qon	276	xushlasin	1
5.	o‘zing	275	yolmog‘iz	1
6.	onam	221	yalpizim	1
7.	yor	220	xanjarlar	1
8.	yig‘lar	214	tolbeshikni	1
9.	yaxshi	193	g‘aribgina	1
10.	o‘g‘lim	187	xonliklar	1

3-jadval. Shavkat Rahmon she’riyatida faol va passiv leksik birliklar

T/R	Faol	Chastota	Passiv	Chastota
1.	buyuk	115	podachilar	1
2.	osmon	96	ibtidolar	1
3.	dunyo	93	tarvuzday	1
4.	shoir	90	yobondan	1
5.	oq	84	archa	1
6.	og‘ir	82	pinachi	1
7.	vaqt	81	shomurutlar	1
8.	ko‘rdim	80	jodulanib	1
9.	go‘zal	79	daryojon	1

10.	tog‘lar	79	arijon	1

Aniqlangan yuqori chastotali birliklarni tarixiy, diniy, tabiat, oilaviy, falsafiy kabi semantik guruhlarga ajratish mumkin. Unikal so‘zlarni esa konkordans matnlarida tekshirib, shoirning u so‘z orqali qanday obraz va g‘oya yaratganini aniqlash mumkin. Masalan, quyidagi konkordans matnlarida uch shoir ijodiga oid takrorlanmas leksik birliklardan namunalar keltirilgan: “meros qoldirgan elsevar yurtning halovati” (A.Oripov), “gapga chechan bog‘chaxolalar belanchakda yotgan” (M.Yusuf), “ortidan kelar podachilar horg‘in parishon” (Sh.Rahmon). Shunday qilib har bir shoirning individual poetik leksikoni chastotali lug‘at tuzish → semantik guruhlash → konkordans tahlili orqali aniqlanadi.

2. Obrazlar tizimini o‘rganish. Poetik korpus orqali obrazlar tizimini o‘rganish – muallif dunyoqarashi va adabiy maktabini ochishda ishonchli vositalardan biridir. Bu jarayon statistik (miqdoriy) va semantik (mazmuniy) tahlilni birlashtiradi. Dastlab korpusdagi ko‘p uchraydigan simvol va timsollar belgilab olinadi: masalan, yo‘l, yurak, osmon, quyosh, ona, vatan kabi. Buning uchun korpusda avtomatik chastota ro‘yxati tuziladi. Yuqori o‘rinlarda chiqqan so‘zlar orasida semantik jihatdan obraz vazifasini bajara oladigan birliklar tanlab olinadi va ushbu so‘zlarning necha marta ishlatilgani va qaysi kontekstlarda uchrashi aniqlanadi. So‘zlarning faqat chastotasini emas, balki mazmuniy yukini ham o‘rgangan holda qaysi metafora, epitet yoki timsollar bilan birga kelishi, qaysi semantik maydon (sevgi, vatan, tabiat, taqdir)ga mansubligi ham tahlil qilinadi. Konkordans dasturi yordamida so‘zning barcha kontekstlari olinadi va tahlil qilinadi. Shundan so‘ng, har bir muallifning dominant obrazlari tizimi aniqlanadi. Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon she’riyati korpusi asosida tuzilgan chastotali lug‘at orqali “dunyo” leksik birligi har uchala shoir ijodida yuqori chastotada ekanligi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval. Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon she’riyatida “dunyo” so‘zining chastotasi.

Shoir	**“Dunyo” so‘zining qo‘llanishi (marta)**
Abdulla Oripov	331
Muhammad Yusuf	352
Shavkat Rahmon	93

O‘zbek she’riyati tarixida “dunyo” obrazi eng ko‘p qo‘llaniladigan semantik birliklardan biri sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmon ijodida ushbu birlikning yuqori chastotada qo‘llanishi shoirlarning badiiy-estetik qarashlari, dunyoqarashi va uslubiy xususiyatlarini ochib beruvchi muhim

mezon hisoblanadi. Konkordans asosida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “dunyo” obrazi uchala shoir poetikasida turlicha mazmun va semantik maydonlarga mansubligini namoyon qiladi (5-6-7-javal).

5-jadval. Abdulla Oripov she’riyatida “dunyo” so‘zining qo‘llanishi.

Ko‘chim turi	**Namuna (korpusdan)**	**Izoh / Mazmuniy yuk**	**Semantik maydon**
Epitet	buni qachon foniy *dunyo* topgaydir, bor gap foniy *dunyo* iskandarga	Hayotning o‘tkinchiligini ta’kidlaydi.	Taqdir / falsafa
Epitet	begumon dedim yorug‘ dunyo suvi, boqurman mana yorug‘ dunyo tomon	Umid, imkoniyat manbai sifatida ishlatiladi.	Tabiat / umid
Metafora	*dunyo* bir gulzordir keng va	Hayot go‘zallik va rang-baranglik manbai sifatida tasvirlangan.	Tabiat / sevgi
Timsol (boylik timsoli)	bo‘lsin molu mulk *dunyo* falaklar	Dunyoviy boylik va mol-mulkning beqarorligini ko‘rsatadi.	Ijtimoiy hayot / taqdir
Timsol (oxirat va hayot)	ikki *dunyo* qarzdorman uning qoshida	Hayot va oxirat o‘rtasidagi muvozanatni bildiradi.	Taqdir / diniy tasavvur
Metafora	jonni *dunyo* karvonining boshida bir	Hayotni karvon yo‘liga o‘xshatib, davomiylik va o‘tkinchilikni beradi.	Taqdir / tarix

6-jadval. Muhammad Yusuf she’riyatida “dunyo” so‘zining qo‘llanishi.

Ko‘chim turi	**Namuna (korpusdan)**	**Izoh / Mazmuniy yuk**	**Semantik maydon**
Metafora	“bu yorug‘ *dunyo* to‘polon daryoni”	Dunyo daryo, oqimga o‘xshatilgan. Beqaror hayot tasvirlangan.	Taqdir / hayot falsafasi
Metafora	“bir misqoldir *dunyo* yig‘ib netarsan”	Dunyoning foniyligi, qisqaligiga ishora qilib misqolga o‘xshatilgan.	Taqdir / falsafa
Epitet	ichra tengsiz *dunyo* zarchopon qalb	Eng yaxshi makon, insonlar tasvirlangan.	Vatan
Epitet	sensiz beqadr *dunyo* sanam dunyo	Dunyo sevgi ob’ekti, sevgisiz qadrsiz.	Sevgi
Timsollar	jazolar yolg‘on *dunyo* ekan dunyolar	Aldamchi, qiymatsiz dunyo	Taqdir / falsafa
Timsollar	“menga ikki dunyo bir sig‘mam”	Dunyo = moddiy va ma’naviy olam	Falsafa, ilohiyot

7-jadval. Shavkat Rahmon she’riyatida “dunyo” so‘zining qo‘llanishi.

Ko‘chim turi	**Namuna (korpusdan)**	**Izoh / Mazmuniy yuk**	**Semantik maydon**
Metafora	sovuq chil-chil sinar *dunyo* derazalari	Dunyo mo‘rt va beqaror tuzilma sifatida ko‘rsatilgan.	Taqdir / falsafa
Metafora	bir *dunyo* chayqalar charxga sig‘masdan	Hayot aylanishi, charx g‘ildiragi ramzi.	Taqdir
Epitet	po‘rtana bevafo *dunyo* bu vafosiz bu vafosiz *dunyo* o‘tganlar haq	Dunyo xiyonatkor va adolatsiz tarzda tasvirlangan.	Taqdir / falsafa
Epitet	dunyo qizil *dunyo* sariq deb	Hayot ranglar metaforasida beqarorlikni bildiradi.	Tabiat / falsafa
Epitet	ko‘p qadim *dunyo* na tubi	Dunyo qadimiylik va tarixiy davomiylik ramzi sifatida ishlatiladi.	Tarix / vatan
Timsol	pastdagiday *dunyo* torayib ko‘z o‘ngingda	Dunyo tor qafas, insonga yetarli bo‘lmagan makon.	Ruhiyat / taqdir
Timsol	pok qonlaridan *dunyo* ko‘z oldida	Dunyo sahna, ko‘z o‘ngida kechayotgan voqelik sifatida.	Ijtimoiy hayot

Qiyosiy tahlilga ko‘ra uch shoir ijodida “dunyo” obrazi hayot, taqdir va insoniy qadriyatlarning markaziy timsoli bo‘lib xizmat qilmoqda. U doimo **foniylik va abadiylik, go‘zallik va aldov, quvonch va fojiaga oid dualizm**ni ifodalaydi. Konkordans asosidagi tahlillar orqali “dunyo” leksemasi sevgi, vatan, tabiat, taqdir kabi semantik maydonlarda ko‘proq ishlatilishi ilmiy asosda aniqlandi. Xususan, Abdulla Oripovda falsafiy, ijtimoiy va milliy timsol ustun, Muhammad Yusufda xalqona va hissiy mazmun ko‘proq, Shavkat Rahmonda esa tragik-romantik va fojeiy talqin ustun degan xulosaga kelish mumkin.

3. Poetik dunyoqarashni motivlar orqali izohlash. Poetik korpus asosida muallifning **dunyoqarashi va estetik tizimi**ni aniqlashda “motiv” tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. Motiv — bu muallif poetikasida takrorlanib turuvchi, lekin har bir kontekstda yangicha ma’no oluvchi **mazmuniy yadroviy birlik**dir. Korpus lingvistikasida motivlar tahlili, odatda, **leksik-semantik birliklar, metaforalar, simvolik tasvirlar** va **kollokatsion bog‘lanishlar** asosida amalga oshiriladi. Poetik korpus orqali motivlarni tahlil qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

1) matnlarni raqamlashtirish;

2) yuqori chastotali birliklarni aniqlash;

3) ularni semantik guruhlarga (motiv maydonlariga) ajratish;

4) konkordans tahlili orqali kontekstual izoh berish;

5) har bir motivning shoir dunyoqarashidagi badiiy funksiyasini sharhlash.

Motivlar orqali shoirning **poetik olami** aniqlanadi, ya'ni ijodkor nimani o'ylaydi, qanday qadriyatlarni kuylaydi, hayotni qanday ko'radi. **Masalan:** Abdulla Oripovda *"vatan", "xalq", "tarix", "dunyo", "qismat"* kabi tushunchalarning takrorlanishi **milliy-falsafiy motivlarni;** Muhammad Yusufda *"ona", "yor", "o'g'il", "ko'ngil"* kabi birliklarning yuqori chastotada ekanligi **insoniy va oilaviy motivlarni;** Shavkat Rahmonda *"osmon", "vaqt", "tog'", "jimlik"* singari birliklar **tabiat va vaqt motivlarini ifodalaydi.** Bu so'zlarning chastotasi, ularning qanday kontekstlarda ishlatilgani shoirning **poetik dunyoqarash markazini** ko'rsatadi. Shu tariqa, motivlar orqali tahlil muallifning **badiiy olami, hissiy strukturalari va ideologik yo'nalishlarini** lingvostatistik asosda aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuv nafaqat individual poetik tafakkurni, balki butun bir davr **milliy poetik tafakkur evolyutsiyasini** tahlil qilish uchun ham ilmiy asos yaratadi.

4. Zamonlararo poetik tahlil. Mukammal va keng qamrovli poetik korpus yaratishning afzalliklaridan yana biri shundaki, u orqali zamonlararo poetik tafakkurni emperik asosda tahlil qilish imkoniyati mavjud. She'riyat har doim jamiyatning ruhiy holati, ijtimoiy-siyosiy muhit va milliy ong darajasining badiiy ifodasi bo'lib kelgan. Adabiyot tarixida poetik tafakkur — bu davr, jamiyat qarashlari va shoirning individual dunyoqarashi sintezida shakllanadigan estetik hodisadir. Har bir davr shoirining tili, obrazlar tizimi, metaforik strukturalari va semantik maydoni uning yashagan zamonidagi siyosiy voqeliklar bilan chambarchas bog'liq. Zamonlar o'tishi bilan poetik tafakkurda diniy, tasavvufiy, milliy uyg'onish va ekzistensial qatlamlar navbatma-navbat ustuvorlik kasb etgan. Mazkur o'zgarishlarni aniq, empirik ko'rsatkichlar orqali tahlil qilishda poetik korpus lingvistik manba sifatida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonlararo poetik tafakkur korpus orqali tadqiq etish uchun, avvalo, turli davrlarda ijod qilgan shoirlarni qamrab oluvchi korpus tuzish zarur bo'ladi. Korpus yaratilgach, dastlab poetik korpusdagi matnlar davrlarga, masalan, klassik (Navoiy, Bobur), milliy uyg'onish (Oripov, Vohidov) va zamonaviy (Rahmon, Yusuf) kabi davrlarga ajratiladi. Har bir davrning korpusida shoirlarning umumiy so'z birliklari (tokenlar) va ularning o'ziga xos takrorlanmas birliklari (type) chastotasi aniqlanadi. Dastlabki statistik tahlil natijasida har bir davr uchun eng yuqori chastotali leksik birliklar aniqlanadi. Korpus asosida shoirlar ijodida takrorlanadigan motivlar zanjiri aniqlanadi. Masalan, Alisher Navoiyda *ishq → sabr → ma'rifat* — tasavvufiy kamolot bosqichlari; Abdulla Oripovda *vatan → xalq → temur → odam* — milliy o'zlik g'oyasi; Shavkat Rahmonda *osmon → vaqt → sukut → tog'lar*— inson va zamon ziddiyatlari

kabi. Shuningdek, poetik korpus orqali biror so‘zning, deylik, “inson” so‘zining turli davrlarda qo‘llanish chastotasini va kontektual semantik yuklamasini ham tahlil qilish mumkin. Xullas, poetik korpus zamonlararo poetik tafakkurni miqdoriy, semantik va stilistik mezonlarda tahlil qilish uchun zamonaviy, ishonchli va empirik asosga ega metodologik vosita bo‘lib xizmat qila oladi.

5. Mualliflik izlarini aniqlash. Mualliflik izlari — bu tilning muayyan bir shaxsga xos, takrorlanuvchi va barqaror belgilar tizimi bo‘lib, ular orqali shoir yoki yozuvchining individualligi, estetik tafakkuri va uslubiy dunyoqarashi aniqlanadi. Poetik korpus asosida bu izlarni leksik, grammatik va stilistik darajalarda tahlil qilish shoirga xos badiiy uslubni aniqlash imkonini beradi. Korpus lingvistikasida mualliflik izlarini aniqlash **stilometriya, chastotaviy tahlil** va **n-gram modellash** kabi usullar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Korpus tayyorlash:** har bir shoirning barcha she’rlari raqamlashtiriladi va alohida **muallif korpusi** sifatida belgilanadi.
2. **Chastota va n-gram tahlili:** har bir korpusda eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlar, 2-3 so‘zli birikmalar (bi-gram, tri-gram) aniqlanadi.
3. **Leksik barqarorlikni o‘lchash:** har bir shoirda ma’lum so‘zlar yoki metaforik shakllarning takrorlanish chastotasi hisoblanadi. Poetik korpus asosida mualliflik izlarini aniqlash har bir shoirning **til va tafakkur individualligini** aniqlashga adabiyotshunoslikdagi **sub’yektiv tahlilni obyektiv statistik asosga** o‘tkazishga beminnat yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot orqali adabiy matnlarni korpus lingvistikasi asosida o‘rganish metodlari, ularning ilmiy va amaliy natijalari o‘zbek she’riyati korpusi uchun dolzarb va samarali ekani ayon bo‘ldi. Xususan, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmonning she’riy merosidan tuzilgan elektron korpus adabiyotni empirik o‘rganishda quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. **Chastotali va kollokatsion naqshlarni aniqlash.** O‘zbek she’riyati korpusida so‘zlarning chastota darajasi va ular bilan bog‘liq kollokatsiyalar shoirlarning individual uslubini ochib beradi. Masalan, Abdulla Oripov ijodida “vatan”, “xalq”, “temur”, “o‘zbek**”** kabi so‘zlarning yuqori chastotasi uning ijtimoiy-ma’naviy qarashlarini ifodalasa, Muhammad Yusuf she’riyatida “ona”, “sevgi”, “yor” “o‘g‘il” kabi birliklar shaxsiy tuyg‘ular va milliy qadriyatlar uyg‘unligini ko‘rsatadi. Shavkat Rahmon esa “dunyo”, “osmon”, “vaqt” kabi birliklar orqali o‘ziga xos poetik olamni yaratadi.
2. **Adabiy jarayonni empirik tahlil qilish.** O‘zbek adabiyotshunosligida an’anaviy usullar ko‘proq mazmuniy va estetik tahlilga asoslangan. Ammo korpus lingvistikasi metodlari matnlarda yashirin leksik, grammatik va stilistik tendensiyalarni empirik asosda ko‘rsatib beradi. Bu esa shoirlarning ijodiy uslubi,

davr ta’siri va umumiy badiiy rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

3. **Ta’lim va tadqiqot jarayonidagi qo‘llanilishi**. She’riyat korpusidan foydalanish o‘quv jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar, talabalar matnlarda chastota tahlili, konkordans va kollokatsiyalarni o‘rganish orqali mustaqil ilmiy izlanish ko‘nikmalarini hosil qiladilar. Masalan, Abdulla Oripov va Muhammad Yusufning **“ona” so‘zi bilan bog‘liq kollokatsiyalari** orqali ularning milliy o‘zlikni ifodalash usullarini qiyosiy tahlil qilishlari mumkin.
4. **Yirik o‘zbek adabiy korpusini yaratish zaruriyati.** Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, yanada mukammal natijaga erishish uchun keng ko‘lamli adabiy korpus yaratish zarur. Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va Shavkat Rahmon ijodini birlashtiruvchi poetik korpus kelgusida boshqa zamonaviy shoirlarning asarlari bilan boyitilsa, o‘zbek adabiyotining lingvostatistik xaritasi shakllanadi. Bu esa xalqaro miqyosda o‘zbek adabiy merosini empirik asosda taqdim etish imkonini beradi.
5. **Madaniy va ijtimoiy tendensiyalarni kuzatish**. She’riyat korpusi orqali jamiyatning ma’naviy yo‘nalishlari ham kuzatiladi. Abdulla Oripovning istiqlol va milliy ozodlik g‘oyalari, Muhammad Yusufning xalqona ohanglari va o‘zbek xalqiga cheksiz mehr-muhabbati, Shavkat Rahmonning **tasviriy, tabiatga oid, metaforik** o‘xshatmalari chastota va kollokatsion tahlil orqali aniqroq ko‘rinadi. Bu nafaqat shoirlarning badiiy dunyoqarashini, balki o‘z davrining ijtimoiy-madaniy ruhini ham empirik asosda yoritishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, poetik korpus adabiy jarayonlarni **empirik, obyektiv va tizimli** tarzda o‘rganish uchun qulay va ishonchli vosita. Poetik korpusning yaratilishi bugungi kun o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida kechiktirib bo‘lmas dolzarb masalalardan biri. Korpus kelgusida raqamli yondashuvlar orqali milliy poetik tafakkur evolyutsiyasini tadqiq etish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Michel, J.B., Shen, Y.K., Aiden, A.P., Veres, A., Gray, M.K, Google Books Team, et al. (2011). Quantitative analysis of culture using millions of digitized books. Science331: 176–82.
2. Moretti, F. (2005). Graphs, Maps, Trees: Abstract Models for a Literary History.
3. Ganascia, J.-G. (2015). The logic of the big data turn in digital literary studies. Frontiers in Digital Humanities2:7. doi:10.3389/fdigh.2015.00007.
4. Jacobs, A.M. (2015c). The scientific study of literary experience: sampling the state of the art. Scientific Study of Literature5: 139–70. doi:10.1075/ssol.5.2.01jac.
5. Jacobs AM (2018) The Gutenberg English Poetry Corpus: Exemplary Quantitative Narrative Analyses. Front. Digit. Humanit. 5:5. doi:

10.3389/fdigh.2018.00005.
6. Michel et al. "Quantitative analysis of culture using millions of digitized books. See discussions, stats, and author profiles for this publication at: https://www.researchgate.net/publication/49688894
7. https://ruscorpora.ru/corpus/poetic
8. https://github.com/aparrish/gutenberg-poetry-corpus
9. https://www-users.york.ac.uk/~lang18/pcorpus.html
10. https://pcmep.net/
11. http://nevmenandr.net/fr/
12. https://uznatcorpara.uz/
13. https://uzschoolcorpara.uz/
14. http://alishernavoicorpus.uz/en
15. https://uzbekcorpus.uz/

FONATSION NOVERBAL VOSITALAR SEMANTIKASI

Yusubova Umida,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada noverbal vositalarning bir turi bo'lgan fonatsion noverbal vositalar xususida so'z yuritilgan. Badiiy nutqda qo'llanilgan noverbal vositalarning ishlatilish sabablari izohlangan.

Kalit so'zlar: paralingvistika, noverbal vosita, fonatsion noverbal vosita, personaj nutqi, muallif nutqi, emotsionallik.

Аннотация. В этой статье рассматриваются фонационные невербальные инструменты, которые являются разновидностью невербальных инструментов. Объяснены причины использования невербальных средств, используемых в художественной речи.

Ключевые слова: паралингвистика, невербальная моторика, фонационная невербальная моторика, речь персонажа, речь автора, эмоциональность.

Kirish. Milliy qadriyatlarimiz, milliy-madaniy boyliklarimiz, mental jihatlarimizning barchasi tilda o'z aksini topadi, birlamchi, o'zaro muloqotga kirishishimizda ham ma'naviyatimiznng darajasi bilinib turadi, chunki muloqotni jamiyat a'zolarining o'zaro aloqa-aralashuvisiz va ularning bir-biriga ta'sirini fikr almashtirish (axborot berish va axborot olish)siz tasavvur qilish mumkin emas. Muloqotning tarkibiy qismini nutq, fikr almashish, axborot berish tashkil etadi. Fikr bayon qilish jarayoni verbal hamda noverbal imkoniyatlarning moddiy voqelanishi bilan yuzaga chiqadi. Biz noverbal vositalar, ularning milliy-madaniy xarakterga egaligi va bugungi kun yoshlari nutqiga ta'siri xususida to'xtalmoqimiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'tgan asrning 60-yillaridan tilshunoslikda noverbal kommunikatsiya o'rganila boshlangan bo'lsa, 70-yillarda L.A.Kapanadze (1973), G.V.Kolshanskiy (1974), G.A.Kovalev (1979) tomonidan mavzuni keng o'rganish boshlandi. O'zbek tilshunosligida A.Nurmonovning "O'zbek tilining paralingvistik vositalari" (1980), M.Saidxonovning "Noverbal vositalar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi" (1993), Sh.Iskandarovaning "O'zbek nutq odatining muloqot shakllar" (1993), S.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" (2000), B.Ahmedovning "Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi" (2021), A.**Meliqo'ziyevning** "Paralingvistik vositalarning tipologik tadqiqi" (2021) ishlarida keng o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tahlilida fonatsion noverbal vositalarning yuzaga chiqishi so‘zlovchi ruhiyati bilan bog‘liqlikda tahlil etilib, komponent tahlil va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Noverbal muloqot so‘zlarga tayanmaydigan harakat va jestlardan iborat bo‘lgan barcha shakllarni o‘zida mujassam etgan til sifatida tasniflanadi. Psixologlarning e‘tirof etishicha, noverbal signallarni (psixologlar vositalarni signallar deb atashadi. – ta’kid bizniki) o‘qish samarali muloqotning muhim shartidir. Nima uchun noverbal signallar muloqotda shunchalik muhim? Birinchidan, noverbal signal orqali inson o‘zining qaysi millatga xosligini, ya’ni qaysi til egasi ekanligini namoyon qiladi. Ikkinchidan, 70%ga yaqin ma‘lumotni inson ko‘rish, kuzatish kanallari orqali (vizual) qabul qiladi. Uchinchidan, noverbal signallar suhbatdoshning haqiqiy hislari va fikrlarini tushunishni taqozo etadi; to‘rtinidan, bizning suhbatdoshga munosabatimiz ko‘pincha birinchi taassurot orqali shakllanadi. Bu, o‘z navbatida, noverbal faktorlarning ta‘siri natijasidir – yurish-turish, yuz tuzilishi, qarash, o‘zni tutish, kiyinish va h.k.

Rus tilshunoslari muloqotga kirishishda verbal vositalarga (o‘z navbatida, gap, so‘z birikmasi va so‘z kabi birliklar sifatida nutqda voqelanadi) qaraganda noverbal vositalarning ta’sir etish qiymati yuqori ekanligini quyidagicha foizda ko‘rsatadilar: so‘zlar faqat 7% ni, qolgan 93% hollarda bu vazifani noverbal vositalar ta’minlaydi. Noverbal muloqot o‘zida beshta tasnifni jam qilgan: 1. Makon tasnifi; 2. Nigoh; 3.O‘zida quyidagilarni qamrab olgan optik-kinetik tasnif: suhbatdoshning tashqi ko‘rinishi; mimika (yuz ifodasi); pantomimika (imo-ishoralar); 4. Paralingvistik yoki nutqqa yaqin tasnif: ovozning vokal sifati; uning diapozoni; toni; tembri. 5. Ekstralingvistik yoki nutqdan tashqari tasnif: nutqning tempi; pauza; kulgu va h.k.

Bizning aqliy harakatlarimiz aslida intellektimiz darajasini belgilaydi. Kishining muloqotga kirishuvida nutqini verbal yokii noverbal tarzda ifodalashi bevosita nutqni tashkil etish jarayonidagi psixologik vaziyati, albatta, psixologiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Bu borada D.Veksler intellektual qobiliyatlarni verbal va noverbal turlarga (tasavvurga bo‘lgan qobiliyat) ajratgan va turli kishilarda u yoki bu guruh ustunlik qilishini ko‘rsatib bergan [1]. Olimlar jahon tilshunosligida kishilar o‘rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonini lingvistik xususiyatlar asosida ikki guruhga ajratib o‘rganishni tavsiya etadilar:

1. Tovush tili – eshitish asosidagi mazmun va shakl.
2. Imo-ishora – ko‘rish vositasi bilan amalga oshiriladigan til [2].

Nutqiy muloqot deganda muloqot jarayonida yuqorida keltirilgan ikkala guruhning birgalikda, hamkorlikda ishlatilishi tushuniladi. Imo-ishora – ko‘rish vositasi bilan amalga oshiriladigan til noverbal kommunikatsiya (lot. verbalis – “og‘zaki” va lot. communication – “muloqot”) deb ataladi. “Noverbal” terminini “muloqotga tovush tili

bilan emas, balki lisoniy vositalarsiz kirishish" deb tushuniladi. Masalan, noverbal vositalarga quyidagilar kiradi:

1. Fonatsion noverbal vositalar.
2. Kinetik noverbal vositalar.
3. Aralash noverbal vositalar[3].

Fonatsion noverbal vositalar bevosita so'zlashuvchilarning artikulyatsiyasi bilan bog'liq. Har kim o'ziga xos tovushning sifat belgilari (tovushning balandligi, kuchi (intensivligi), tembri) hamda tovushning miqdor belgisi(tovushning cho'ziqligi)ga ega. A.Nurmonov fikr ifodalashda tilga yondosh bo'lgan, funksional jihatdan uni kompensatsiya qiluvchi yoki kuzatib boruvchi paralingvistik vositalar haqida to'xtalib, aloqa-aralashuvda ahamiyatli bo'lgan ovozning sifatiy, miqdoriy xususiyatlari, shuningdek, imo-ishoralar tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lishi darkorligini ta'kidlab o'tadi [4]

"Ovozning sifati bilan bog'liq parafonetik vositalar g'arb va sharq tillarida juda katta farq qiladi. Bu farqni rus, yapon va boshqa tillarda ham kuzatish mumkin. Ovoz toni, intonatsiya, to'xtam, tovushning cho'ziq qisqaligi kabi fonetik konsept sistemasi universaliya bo'lishdan tashqari individuallik ham kasb etib, nutq pragmatikasini kengaytiradi." [5]. Har bir kishiga xos bo'lgan tovushning fizik-akustik tabiati uning xarakterini, intellektini belgilaydi. Shuningdek, muloqotda ovozning pasayishi yoki kuchayishi, pauza bilan gapirish yoki to'xtamasdan tez gapirish, sekin gapirish yoki qattiq gapirish, tom ma'noda, ohang va tembr nutqqa qo'shimcha bo'yoq beruvchi vositalar sanaladi. Eng muhimi, bu holat insonning psixologik holati bilan bog'liq. Masalan: *Uning ovozini ko'chadan o'tib borayotib eshitib qolgandim. «Hech narsangni bermayman - deb* ***baqirardi*** *u qandaydir* ***qirindi tovushda****, - agar topib bermasangiz, sizga qo'shib uyga ham o't qo'yaman». So'ng taraqa-turuqlar,* ***ihrashlar****, cholning nimadir deb so'kingani eshitildi* (Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidan). Ushbu matnda yoshligida yaxshi tarbiya ko'rmagan, onasi erta o'lib ketib otasi mehridan uzoqda ulg'aygan, natijada qimorboz, kissavur bo'lib ketgan o'g'ilning otasidan noroziligi, insoniylikdan yiroqligini muallif nutqida uning tovush sifatiga berilgan "baqirmoq", "ixrash" so'zlaridan anglash mumkin.

Fonatsion noverbal vositalar shaxsning psixologik holatini aynan ifodalab, uning qalb qiyofasini bor bo'y-basti bilan ko'rsatadi: - *Hammasi tartib bilan terib qo'yilgan, va u tomondan boshlanadi, - dedi* ***hirqiroq*** *tovushda uning tovushi ham shunchalik* ***sovuq*** *ediki, beixtiyor etim junjikib ketdi; indamay ayvonning to'riga qarab yo'l oldim.* (Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidan). Bu tovush umri amal kursisida o'tgan, sobiq tuzumga jonini ayamay xizmat qilib, oilasini unutgan, asosiysi, insoniylikni unutgan, biroq keksayib, yolg'iz qolganda umrining behuda o'tganini anglagan, ichidan tan olib yolg'iz ovunchog'i – suratlarga mixlagan insonning

ovozidir. Bunday ovoz sovuq bo‘ladi. Bu sovuq ovoz inson xarakteriga va hayotiga chizgi beradi. Yozuvchi ushbu qahramonning ayanchli hayotiga u chizgan suratlardan anglashiluvchi mazmun orqali ham ishora qilgan.

“So‘zlarning mazmuni ovoz tonining ohangdorligini o‘z ichiga oluvchi tovush tomonining turli-tuman o‘zgarishlari / bundan tashqari, yana nutq tezligi, ovozning turlicha bosqichdagi kuchi, ba’zi nutq organlarining tovush hosil qilishdagi harakatlari, masalan, so‘lg‘in yoki shiddatli faoliyat va boshqalar / va nihoyat ishoralar bilan to‘ldirib boriladi” [6]. Ma’lumki, gapirayotganimizda tovushning fizik-akustik tabiatining o‘zgarib turishi muloqot jarayonida ular so‘zga nisbatan ham ahamiyati ba’zan muhimroq bo‘ladi. Fonatsion noverbal vositalar orqali har bir emotsional holatni o‘ziga xos belgilari namoyon bo‘lishi aniqlanadi: gapirish tarzi (manerasi), nutq balandligi, tezligi, toni, ritmi, intonatsiya va hokazolar. Masalan, mayin tovush ayollarga xos ko‘plab ijobiy sifatlarni anglatadi: *Shu onda* ***mayin*** *bir tovush: - Otajon, sug‘ormang! — dedi*. (A.Qahhorning “Xotinlar” hikoyasidan). Hatto so‘zlovchi bilan yuzma-yuz bo‘lmay turib ham yoki uning ovozini audio yozuvdan eshitib ham har biror emotsiyaning namoyon bo‘lishini, his-tuyg‘ularni aniq anglash mumkin. So‘zlovchining mayin tovushi turli konnotativ ma’noni ifodalashi mumkin, masalan, kinoya ma’nosi anglashinishi mumkin: - *E, hoy, anor olib bermadimmi? — dedi Turobjon* ***mayin tovush*** *bilan, ammo bu* ***mayin tovushdan*** *qo‘rqqulik edi, — sira anor olib kelmadimmi?* (A.Qahhorning “Anor” hikoyasidan). Hikoyada Turobjon bir safar anor olib kelganligini xotiniga mayin, biroq kinoyali tovush bilan eslatmoqda.

Og‘zaki nutqning fonatsion tuzilishi o‘ta murakkab bo‘lib, fonatsion noverbal vositalarda baho munosabati yaqqol yuzaga chiqadi, chunkinutq ishtirokchilarining ruhiy holati, bir-biriga munosabati, nutq yuzaga chiqayotgan sharoit, yoshi, jinsi kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Nutqiy muloqotda yuzaga chiqqan fonatsion noverbal vositalaring gender omili tahlil qilinganda, erkaklar nutqida salbiy baho ifodalovchi noverbal vositalarning faolligini ko‘rish mumkin. Erkaklar nutqining fonetik ifodasida nutqiy vaziyatga subyektiv munosabat bo‘rtib turadi va turli pragmatik ma’nolar yuzaga chiqadi. Badiiy matnda muallif nutqi orqali qahramon nutqidagi fonatsion noverballikka izoh beriladi. Masalan*: Sultonmurot og‘riq va g‘azabdan joni boricha baqirib, nima qilayotganini o‘zi ham bilmay ot o‘g‘rilari izidan chopdi: – To‘xta! Qochib qutulolmaysanlar! Yetib olaman! Sizlar Chopdorni o‘ldirdinglar! Otamning oti Chopdorni nimaga o‘ldirasanlar! U o‘zini bilmay g‘azab va jon-jahdi bilan yugurar, ularning ortidan xuddi yetib oladiganday, to‘xtatib orqaga qaytarib qola oladiganday quvib borar edi.* (Ch.Aytmatov). Yuqoridagi misolda erkak kishining boshqa erkaklarga nisbatan salbiy munosabati muallif nutqi orqali keltirilgan *og‘riq va g‘azabdan joni boricha baqirib; o‘zini bilmay g‘azab va jon-jahdi bilan* ifodalari orqali kuchli ifodalangan, takror qo‘llangan *g‘azab* so‘zi erkak tabiatiga xoslikni, salbiy

munosabatdagi ovoz ohangini shakllantirishga, salbiy baho munosabatini oydinlashtirishga xizmat qilgan. Kuchli g‘azab, qahrli ohang asosan erkaklar nutqiga xos, J.Kengboyevning “Erkak” hikoyasida bu jihat yaqqol ko‘zga tashlanadi.

1. Saydali bir muddat ularga termulib turgach, bir chimdim qahr aralash buyruq berdi: – Hoy, buyoqqa kelinglar-chi!

2. – Sen erkakmisan?! O‘zbekmisan?! – dedi qahrdan titrab ketgan qo‘llari bilan changalidagini o‘xshatib bo‘g‘ar ekan. – Erkak bo‘lsang, erkakka o‘xshab yurgin-da, zang‘ar hezalak!!!

Keyingi misolda qahrning kuchliligi personaj nutqidagi so‘zlar semantikasidan, gap ohangini anglatib turuvchi tinish belgilari orqali yaqqol ko‘zga tashlanib, gapda salbiy bahoning o‘ta yuqoriligini qo‘rsatib turibdi.

Fonatsion noverbal vositalar shaxsning fiziologik xususiyatlari bilanaloqador bo‘lib, uning psixologik holati bilan bog‘liq bo‘ladi va doimo nutqiy so‘zlashuv jarayonini to‘ldirib boradi” [7].

Turli xil salbiy holatlar, harakatlar ayollarda ham kuchli g‘azabning yuzaga chiqishiga sabab bo‘ladi, masalan, – *Meni kechiring, dadajon. O‘zini o‘zi o‘g‘riga tutqazib bergan, baxtini ham, o‘zini ham o‘g‘irlatgan qizingizni kechiring* gapida pushaymonlik, afsuslanish borligi ma’lum, biroq bu pushaymonlik g‘azab ortidan yuzaga chiqqanini bilish mushkul, matnda yangi kelinning (Nigora) eri qamalib, uning yaqinlari uydagi qimmatbaho narsalar musodara bo‘lmasligini oldini olish uchun bu narsalar kelinning uyidan olib kelingan deb ko‘rsatmoqchi bo‘lishadi, kelinning otasi bunga unamagandan so‘ng, kuyovning yaqinlari ularni tagi past deb kesatishadi, shunda yosh kelin g‘azabi kelib otasiga yuqoridagi gaplarni aytadi. Muallif nutqi orqali g‘azab quyidagicha bayon etilgan: Nigoraning ko‘zlari yalt etib ochilib ketdi. Kelinlik liboslari muzga aylanib badanini sovutib yuborgandek bo‘ldi. Ko‘zlariga g‘azab to‘lib atrofga jovdirab boqdi-yu, shaxt yurib narigi uyga chiqib ketdi. Ayollarga xos kuchli g‘azab ifodasida sifatlashlar, o‘xshatishlar, ko‘chimlar ham mohiyatan genderlikka ishora qilib turadi. Nigoradagi salbiy munosabatni yorqinroq ko‘rsatishda o‘xshatish salbiy bahoni keltirib chiqarishga parallel vosita sifatida keltirilgan.

Xulosa va takliflar. Kuzatganimizdek, fonatsion noverbal vositapar badiiy nutqda doimiy qo‘llanilib kelinadi, ular insonlar orasidagi o‘zaro munosabatning ta’sirchan, tushunarli va aniq bo‘lishiga xizmat qiladi, ularverbal vosita o‘rnida qo‘llanadi, verbal vositani to‘ldiradi, ya’ni ekspressiv-stilistik vazifa bajaradi, ta’kidlash, izohlash kabi ma’nolarni bildirib, aralash holda qo‘llanadi. Shu o‘rinda aytish joizki, noverbal axborot verbal ifodalanadigan axborotga nisbatan ko`proq axborotni ifodalashi mumkin. Shu sababli bunday noverbal vositalar orqali uzatilayotgan axborotni tushunishda kommunikantlarning ijtimoiy mavqeyi va yoshi, xulq-atvori kabi belgilarga asosiy e’tibor beriladi. Milliy ma‘noli harakatlar

salomlashish muloqotida yagona imkoniyat bo‘lib qoladi va mental ahamiyatga ega bo‘lgan kommunikatsion funksiya vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Wechsler, D. The measurement and appraisal of adult intelligence. – Baltimore, MD: The Williams & Wilkins Company, 1958.
2. Xakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol.fan.dokt. diss.. T., 2001. 37-bet.
3. Saidxonov M.M. Noverbal vositalar va o‘zbek tilida ularning ifodalanishi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. - T., 1993. 54-bet.
4. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jild. Toshkent: “Akademnashr”, 2012.
5. Axmedov B. Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi – Andijon, 2021. – B.14.
6. Polivanov Ye.E. Po povodu zvukovых jestov yaponskogo yazыka // Stati po obщetu yazыkoznaniyu. –M., 1968. – S.296.
7. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. – T.: Fan. 2008. – B.44.

NUTQIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA O‘LKASHUNOSLIK MATERIALLARI USTIDA ISHLASHDA AUTENTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Saitxanova Dinara,
Toshkent amaliy fanlar universiteti,
dotsent, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tili darslarida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda autentik o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanishning afzalliklari tahlil qilinadi. Samarqand shahriga bag‘ishlangan inglizcha autentik matn misolida tinglab tushunish, o‘qish va og‘zaki nutqni rivojlantiruvchi topshiriqlar namunasi ishlab chiqiladi. Shuningdek, autentik matn asosida o‘qitishning lingvodidaktik va psixologik jihatlari yoritiladi.

Аннотация. В статье анализируются преимущества использования аутентичных краеведческих материалов в развитии навыков говорения на уроках английского языка. На примере аутентичного английского текста о городе Самарканде разработан пример заданий, развивающих аудирование, чтение и устную речь. Также освещаются лингводидактические и психологические аспекты обучения на основе аутентичных текстов.

Annotation. The article analyses the advantages of using authentic local history materials in developing speaking skills in English lessons. Using an authentic English text about the city of Samarkand as an example, a set of tasks has been developed to develop listening, reading and speaking skills. It also highlights the linguistic and psychological aspects of teaching based on authentic texts.

Kalit so‘zlar: autentik material, o‘lkashunoslik, nutqiy ko‘nikma, ingliz tili, muloqot kompetensiyasi, Samarqand.

Ключевые слова: аутентичный материал, краеведение, речевые навыки, английский язык, коммуникативная компетентность, Самарканд.

Keywords: authentic material, local history, speaking skills, English language, communicative competence, Samarkand.

KIRISH. Zamonaviy globallashuv davrida chet tillarini, xususan, ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatish jarayoniga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bugungi kunda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitishda autentik materiallardan foydalanish kommunikativ yondashuvning muhim sharti sifatida e’tirof etiladi. Autentik materiallar – bu ona tilida so‘zlashuvchi muhitda yaratilgan, o‘quv jarayonidan tashqarida qo‘llaniladigan haqiqiy til birliklari bo‘lib, ular o‘quvchiga tabiiy til muhitini his qilish imkonini beradi. O‘lkashunoslik materiallari bilan integratsiya etilgan autentik manbalar esa talabalarda nafaqat tilni, balki madaniyatni anglash va ifoda etish ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil Prezidentlik lavozimi vazifasida ish boshlagan ilk kunlaridayoq xorijiy tilni mukammal bilgan tadbirkor yoshlarni tayyorlashga qaratilgan bir qator qonun hujjatlarini[78] imzoladi.

Mamlakatimizda bir qator qonun hujjatlari doirasida xorijiy tillarni o‘qitishning sifatini oshirishda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi natijalarga erishgan maktablarni aniqlash va davlat organlariga ishga qabul qilishda xorijiy tillarni bilish talablari[79] . kiritilganligi muhim ahamiyatga molikdir.

“O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish”[80] ustuvor vazifa etib belgilandi.

Inson ona tilidan tashqari boshqa tillarni o‘rganishga umri davomida ehtiyoj sezadi. Fikrlash, ijodiy fikrlash uchun har bir kishiga ona tili zarur bo‘ladi, shu ma’noda til nazariyasining asoschisi bo‘lgan V.Gumbolt XIX asrdayoq “Til – millat ruhi” deb aytgan edi[81].

Keying yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, autentik materiallardan foydalanish o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, real muloqot muhitini yaratadi va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi[82] .

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda autentik materiallar **nutqiy faoliyatning barcha turlari** — tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘lkashunoslik mavzulariga oid haqiqiy videolavhalar, intervyular, sayohat broshyuralari, mahalliy yangiliklar portallaridan olingan maqolalar va afishalar orqali talabalar mintaqa madaniyati, geografiyasi, tarixiy obidalari haqida ingliz tilida real ma’lumot oladilar.

Bunday materiallar asosida quyidagi interaktiv topshiriq turlarini ishlab chiqish samarali hisoblanadi:

Topshiriq turi	**Autentik material namunasi**	**Rivojlanadigan nutqiy ko‘nikma**
Audio tinglab mazmunini tushunish	“BBC Travel” yoki “National Geographic” saytidagi O‘zbekiston haqidagi podkastlar	Tinglab tushunish, mazmunni umumlashtirish

[78] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel / (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).

[79] Mirzakarimova M.M. Ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning mohiyati va mazmuni. // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. – Nukus: 2022, № 4 (58), 93 - 96 b.

[80] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. Elektron resurs: https://president.uz/oz/lists/view/4327 (Murojat qilingan sana: 22.05.2024)

81 Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. - М., 1984. - С. 301-302

[82] Solijonova M. (2024). Autentik materiallarning ingliz tilini o’qitishdagi samaradorligi. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(9), 146–150.

Topshiriq turi	**Autentik material namunasi**	**Rivojlanadigan nutqiy ko‘nikma**
Dialogik nutq yaratish	Mahalliy aholi bilan intervyu (video) asosida suhbat tayyorlash	Gapirish, fikr almashish
O‘qish topshiriqlari	O‘zbekiston shaharlari haqidagi ingliz tilidagi maqolalar	O‘qib tushunish, asosiy g‘oyani aniqlash
Yozma nutq topshiriqlari	Broshyura, reklama, yoki sayyohlik veb-sahifasini tahlil qilib insho yozish	Yozish, matn tuzish

Autentik materiallardan foydalanish **psixologik jihatdan ham ijobiy ta’sir** ko‘rsatadi. Chunki talabalar o‘z mintaqasiga, madaniyatiga oid ma’lumotni o‘rganayotganda **ichki motivatsiya** kuchayadi, o‘zini xorijiy til vositasida ifoda etishga ishtiyoq ortadi. Shu bilan birga, haqiqiy nutq namunalarida til birliklarining **intonatsiya, talaffuz, tildagi variantlilik** kabi xususiyatlarini eshitish, idrok etish imkoniyati yuzaga keladi.

Pedagogik jihatdan esa, autentik materiallar **o‘lkashunoslik kompetensiyasini** rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Talaba o‘z mamlakati, madaniy qadriyatlari haqida ingliz tilida so‘zlay olishni o‘rganadi, bu esa **madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi**ni shakllantiradi.

Autentik materiallardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchi:

- materialni **til darajasi** va **mavzuga mosligi**ni hisobga olishi;
- **madaniy kontekstni izohlab**, tahlil qilishga yo‘naltiruvchi savollar berishi;
- o‘quvchilarning **mustaqil izlanish va muhokama faoliyatini** rag‘batlantirishi zarur.

Shunday qilib, o‘lkashunoslik materiallari ustida ishlashda autentik manbalardan foydalanish o‘quvchilarning **nutqiy, kommunikativ va madaniy kompetensiyalarini** uyg‘un tarzda rivojlantiradi. Bu esa xorijiy til o‘qitish jarayonini real hayot bilan bog‘laydi hamda talabalarning nutqiy faoliyatini tabiiy muloqot sharoitlariga yaqinlashtiradi. O‘lkashunoslik materiallari asosida autentik manbalardan foydalanish xorijiy tilni o‘qitishda **nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishi** sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotlar va amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, talabalarning nutqiy faoliyatida **real hayotiy kontekstda ishlash**, **madaniy va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli ma’lumotlarni tahlil qilish** ularning muloqotga kirishish qobiliyatini ancha faollashtiradi.

Umuman olganda, autentik o‘lkashunoslik materiallari:

1. Talabalarda **motivatsiyani oshiradi**, o‘rganilayotgan tilga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni shakllantiradi;
2. **Real muloqot sharoitlarini yaratadi**, bunda til birliklari tabiiy kontekstdagi qo‘llanishda o‘zlashtiriladi;
3. **Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi**, ya’ni o‘z mamlakati va xalqaro madaniyatni taqqoslab o‘rganish imkonini beradi;
4. Talabalarning **mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o‘z fikrini bayon etish** ko‘nikmalarini shakllantiradi;

5. O‘qituvchilarga darsni **interaktiv va kommunikativ asosda tashkil etish** imkonini beradi.

Amaliy tavsiyalar:

1. **Autentik manbalarni tizimli tanlash.** O‘qituvchi materiallarni talabalarning til darajasi, mavzu yo‘nalishi va yosh xususiyatlariga mos holda saralashi lozim.

2. **Integratsion yondashuvni qo‘llash.** Har bir autentik material tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish topshiriqlari bilan uyg‘unlashtirilsin.

3. **Mahalliy madaniyatni ingliz tilida ifodalash.** Darslarda O‘zbekistonning madaniy obidalari, urf-odatlari, milliy bayramlari haqida ingliz tilida loyihalar, taqdimotlar tashkil etish tavsiya etiladi.

4. **Raqamli platformalardan foydalanish.** BBC Learning English, National Geographic, Uzbekistan Travel, va boshqa saytlardagi videolar, maqolalar o‘lkashunoslik ruhidagi haqiqiy til materiallari sifatida qo‘llanishi mumkin.

5. **Baholashni kommunikativ yondashuvga asoslash.** Talabalarning faqat grammatik to‘g‘riligini emas, balki **muloqotdagi faolligi, fikrni ifodalash aniqligi, madaniy kontekstni tushunish darajasi** ham baholanadi.

Masalan, o‘zbek guruhlarida ingliz tilidan dars beruvchi o‘qituvchilar endi o‘ragnishni boshlayotgan talabalarga Britaniya, AQSh muloqotida qo‘llaniladigan monolog va dialoglarni qo‘yib eshittiradi, yoki shunga doir matn (Masalan, "London") beradi. Talaba o‘ziga tanish bo‘lmagan shahar haqida o‘qib tushunganlarini gapirib berishga majbur bo‘ladi, ammo notanish bo‘lgani bois, tarjima qilishga, gapirib berishga qiynladi. Shuning uchun ham ingliz tilini endi o‘rganayotgan A1 darajadagi talabaga o‘lkashunoslik matnlari asosida audiovizual materillar tayyorlab berilsa, u o‘zi ko‘rgan yo eshitgan shahar, joy haqida tushunchalariga tayanib o‘rgana boshlaydi. Masalan, quyidagi matnning audio varianti eshittirilsa:

THE NATURE OF UZBEKISTAN

Uzbekistan — a wonderful warm region, which is characterized by a variety of natural areas.

The Republic of Uzbekistan is located between two rivers Amudarya and Syrdarya and occupies an area of 447,4 thousand square km, the length of the country from West to East is 1,425 kilometers and from North to South is 930 kilometers.

The climate of Uzbekistan is sharply continental. Drought, arid desert regions of our country has taught people to appreciate the source of water, each canal and ditch. There are a lot of hills and Rocky Mountains, deserts or plains, and lush oases, small mountain stream in our country.

There are a very few lakes in the Republic. The largest of them is the Aral, as it occupies a large area. In the present time Uzbekistan is a remarkable country with beautiful landscapes.

There are a lot of cities in antiquity were located on the Great Silk Road, on the road between East and West, on which caravans with goods. A great environmental disaster was the destruction of the Aral sea. This happened due to the fact that the waters of the Amu Darya and Syr Darya were allocated to the channels.

The favorable nature of our region is always glad to meet guests from other countries and other nationalities.

Shunday qilib, o‘lkashunoslik va autentik materiallar asosida o‘qitish modeli — bu **nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali pedagogik tizimi** bo‘lib, talabalarning shaxsiy faolligini, madaniy tafakkurini va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, "Samarqand" matni bo‘yicha ham autentik matn tayyorlash mumkin:

1. Autentik o‘lkashunoslik materialining o‘quv jarayonidagi ahamiyati

Autentik materiallar orqali o‘qitish kommunikativ yondashuv tamoyillariga asoslanadi. Bunday manbalar talabalarda:

- tabiiy muloqotda ishlatiladigan iboralar va turg‘un birikmalarni o‘zlashtirish;
- o‘z madaniyatini xorijiy tilda ifodalash;
- ijtimoiy-madaniy kontekstni tushunish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Masalan, quyidagi qisqa **autentik matn** o‘lkashunoslik darslarida samarali qo‘llanishi mumkin:

"Samarkand, one of the oldest cities in the world, is often called 'The Pearl of the East'. Located on the ancient Silk Road, it has been a center of culture, science, and architecture for more than two thousand years. The Registan Square, with its magnificent madrasahs, reflects the glory of the Timurid dynasty. Visitors are amazed by the beauty of Bibi-Khanym Mosque, the grandeur of Gur-Emir Mausoleum, and the colorful domes of Shah-i-Zinda."

Bu matn o‘z mazmuni, leksik boyligi va madaniy komponentlari bilan o‘quvchilarda **o‘qish, tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini** bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi.

2. Matn asosida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimi

Autentik matn bilan ishlashda topshiriqlarni uch bosqichda tashkil etish maqsadga muvofiq:

1-bosqich. Oldindan tayyorlov topshiriqlari (Pre-reading / Pre-listening)

- "What do you know about Samarkand?"
- "Which historical places would you recommend foreign tourists to visit?"

Bu savollar orqali talabalar mavzuga motivatsion jihatdan tayyorlanadi.

2-bosqich. Matn bilan ishlash (While-reading / While-listening)

- "Match the landmarks with their descriptions."
- "True or False: The Registan is located in Bukhara."
- "Find words in the text related to architecture."

Bu mashqlar o‘qish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini faollashtiradi, shuningdek, so‘z boyligini kengaytiradi.

3-bosqich. Matndan keyingi topshiriqlar (Post-reading / Speaking / Writing)

- **Speaking:** "Describe Samarkand to a foreign guest in 5–6 sentences."
- **Writing:** "Write a short travel blog about your visit to Samarkand."

Bu bosqichda talabalar o‘z fikrini erkin bayon etish, muloqot kompetensiyasini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Autentik materiallar asosida o‘qitishning psixologik va pedagogik jihatlari

Psixologik nuqtayi nazardan, autentik materiallar o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi, ularni haqiqiy muloqotga yaqinlashtiradi va o‘rganishga ichki motivatsiya uyg‘otadi. Pedagogik jihatdan esa, o‘qituvchi bunday materiallar orqali **madaniy taqqoslash** (culture comparison) metodidan foydalanishi mumkin: masalan, **Samarqanddagi me’moriy obidalar** bilan **London yoki Parisdagi yodgorliklarni** qiyoslash orqali o‘quvchilar madaniyatlararo o‘xshashlik va farqlarni tahlil qiladi.

Autentik o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish ingliz tili ta’limida talabalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Xususan, Samarqand haqidagi inglizcha matnlar asosida:

- o‘quvchilarda **madaniy identifikatsiya** shakllanadi;
- **tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish** ko‘nikmalari bir butunlikda rivojlanadi;
- **tilni real kontekstda qo‘llashga tayyorlik** ortadi.

Shunday qilib, autentik materiallar asosidagi o‘lkashunoslik darslari o‘quvchilarning ingliz tilida erkin, ifodali va madaniy jihatdan to‘g‘ri nutq so‘zlash kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar. O‘lkashunoslik materiallari o‘quvchilarning milliy madaniyatini xorijiy til vositasida anglashiga yordam beradi; autentik manbalar muloqotning tabiiy muhitini yaratadi va nutqiy faollikni oshiradi; darslarda multimedia, videomaterial va interaktiv topshiriqlarni ko‘paytirish zarur; talabalarning nutqiy ko‘nikmalarini baholashda ularning madaniy kontekstni tushunish va fikrni izchil bayon etish darajasi e’tiborga olinishi kerak. Natijada, o‘lkashunoslik materiallari asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyati talabalarni chet tilida erkin muloqotga tayyorlaydi, ularning shaxsiy faolligini va madaniyatlararo tafakkurini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel / (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).
2. Mirzakarimova M.M. Ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning mohiyati va mazmuni. // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. – Nukus: 2022, № 4 (58), 93 - 96 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. Elektron resurs: https://president.uz/oz/lists/view/4327 (Murojat qilingan sana: 22.05.2024)
4. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. - М., 1984. - С. 301-302
5. Буслаев Ф.И О преподавании отечественного языка. 2-е изд. М., 1867. (переизд.: Л., 1941).
6. Ismatova M. (2025). Ingliz tilini o'rganishda autentik materiallardan foydalanish metodikasini takomillashtirish modeli. Maktabgacha Va Maktab Ta'limi Jurnali, 3(1), 6–8.

7. Solijonova M. (2024). Autentik materiallarning ingliz tilini o’qitishdagi samaradorligi. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(9), 146–150.

BILIMLARNI KOGNITIV MODELLASHTIRISH VOSITALARI: ELEKTRON ENSIKLOPEDIK LUG'AT UCHUN MEZONLAR VA MUVOFIQLIK MODELI

Abduqaxxorov Sardorbek
Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada bilimlarni formal ifodalashning asosiy vositalari elektron ensiklopedik lug'at ehtiyojlari nuqtai nazaridan qiyoslanadi. Tahlilga birinchi tartibli mantiq, tavsifiy mantiqlar, freymlar, semantik tarmoqlar, konseptual graflar, ACT-R kognitiv arxitekturasi, konseptual fazolar va neyron til modellari jalb qilindi. R. Brachman va H. Levesque hamda R. Davis va hammualliflarining nazariy qoidalari asosida olti baholash mezoni shakllantirildi. Vositalar shu mezonlar bo'yicha sifat jihatdan baholandi va ensiklopedik maqoladagi olti bilim turiga moslashtirildi. Natijada hech bir vosita barcha bilim turlarini birdek ifodalay olmasligi asoslandi. Taklif qilingan muvofiqlik modelida taksonomik va faktual bilim tavsifiy mantiq asosidagi yadroga, vaziyatli bilim freymlarga, assotsiativ va prototipik bilim tarmoq va fazoviy modellarga, matndan bilim ajratish esa neyron vositalarga biriktiriladi. Model o'zbek tilidagi ensiklopedik resurslarni loyihalashda vosita tanlashni asoslash uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: bilimlarni ifodalash; kognitiv modellashtirish; tavsifiy mantiq; freym; semantik tarmoq; konseptual graf; konseptual fazo; katta til modellari; elektron ensiklopedik lug'at.

Аннотация. В статье основные средства формального представления знаний сопоставляются с точки зрения потребностей электронного энциклопедического словаря. Рассмотрены логика первого порядка, дескрипционные логики, фреймы, семантические сети, концептуальные графы, когнитивная архитектура ACT-R, концептуальные пространства и нейронные языковые модели. На основе теоретических положений Р. Брахмана и Г. Левеска, а также Р. Дэвиса и соавторов сформулированы шесть критериев оценки. Средства качественно оценены по этим критериям и соотнесены с шестью типами знания в энциклопедической статье. Обосновано, что ни одно средство не представляет все типы знания в равной мере. В предложенной модели соответствия таксономическое и фактуальное знание закрепляется за ядром на основе дескрипционной логики, ситуативное знание за фреймами, ассоциативное и прототипическое знание за сетевыми и пространственными моделями, извлечение знаний из текста за нейронными средствами. Модель предназначена для обоснования выбора средств при проектировании узбекоязычных энциклопедических ресурсов.

Ключевые слова: представление знаний; когнитивное моделирование; дескрипционная логика; фрейм; семантическая сеть; концептуальный граф; концептуальное пространство; большие языковые модели; электронный энциклопедический словарь.

Abstract. The article compares the main tools of formal knowledge representation from the standpoint of the needs of an electronic encyclopedic dictionary. First-order logic, description logics, frames, semantic networks, conceptual graphs, the ACT-R cognitive architecture, conceptual spaces and neural language models are examined. Six evaluation criteria are derived from the theoretical positions of R. Brachman and H. Levesque and of R. Davis and co-authors. The tools are assessed qualitatively against these criteria and matched to six types of knowledge found in an encyclopedic entry. It is argued that no single tool represents all knowledge types equally well. In the proposed fit model, taxonomic and factual knowledge is assigned to a core based on description logic, situational knowledge to frames, associative and prototypical knowledge to network and spatial models, and knowledge extraction from text to neural tools. The model is intended to justify the choice of tools in designing Uzbek encyclopedic resources.

Keywords: knowledge representation; cognitive modelling; description logic; frame; semantic network; conceptual graph; conceptual space; large language models; electronic encyclopedic dictionary.

KIRISH. Ensiklopedik maqolani mashina o‘qiy oladigan shaklga keltirmoqchi bo‘lgan loyihachi oldida birinchi navbatda texnik emas, nazariy savol turadi. Maqoladagi bilimni qanday til bilan yozish kerak? Sun’iy intellekt tarixida bu savolga turli javoblar berilgan. Mantiqchilar bilimni formulalar to‘plami deb qaragan, psixologiyaga yaqin tadqiqotchilar tarmoq va freymlarni taklif qilgan, so‘nggi o‘n yillikda esa bilimning katta qismi neyron tarmoq parametrlariga “singdirilgan” holda saqlanishi mumkinligi haqida bahs boshlandi. Har bir yondashuv o‘z kuchli tomoniga ega, ammo ularning birortasi ham ensiklopedik lug‘atni ko‘zda tutib yaratilmagan.

Ensiklopedik maqola tarkiban bir jinsli emas. Unda obyektning qaysi sinfga kirishi, uning sanaga yoki songa oid xossalari, u qatnashadigan jarayonlar, boshqa tushunchalar bilan erkin assotsiatsiyalari va madaniy obrazi yonma-yon turadi. Bu bilimlarning tabiati turlicha bo‘lgani uchun ularni bitta formalizm bilan bir xil sifatda ifodalash qiyin. Amaliyotda esa vosita ko‘pincha mavjud dasturiy muhit yoki loyiha jamoasining tajribasiga qarab tanlanadi, aniq mezonga tayanilmaydi.

O‘zbek tili uchun bu masala yangi resurslar loyihalanayotgan bosqichda ayniqsa dolzarb. Milliy ensiklopedik matnlar raqamlashtirilmoqda, ammo ularni qaysi formal model asosida tuzilmaviy bilimga aylantirish masalasi hali tizimli muhokama qilinmagan. Xato tanlov keyinchalik qimmatga tushadi, chunki bir formalizmda yig‘ilgan bilimni boshqasiga ko‘chirish ko‘p mehnat talab qiladi.

Maqolaning maqsadi bilimni ifodalash vositalarini aniq mezonlar asosida qiyoslash va ularni ensiklopedik maqoladagi bilim turlariga moslashtiruvchi model taklif etishdir. Tadqiqot savoli quyidagicha. Bilimni ifodalashning qaysi vositasi elektron ensiklopedik lug‘atdagi qaysi bilim turini ifodalash uchun mos keladi va bu muvofiqlikni qanday nazariy mezonlar bilan asoslash mumkin?

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bilimni ifodalash nazariyasining tayanch asari sifatida R. Brachman va H. Levesque darsligini olish mumkin [1]. Mualliflar bilimni ifodalashni olamga oid propozitsiyalarni belgilar orqali yozish, mulohazani esa shu belgilardan yangi propozitsiyalarni hosil qilish sifatida ta’riflaydi. Ular bitta formalizm doirasida qolgan holda ifoda kuchi va mulohaza samaradorligi o‘rtasida murosa topish zarurligini ko‘rsatadi. Bu g‘oya avvalroq H. Levesque va R. Brachmanning maqolasida ifoda kuchi va hisoblash qulayligi o‘rtasidagi ziddiyat sifatida asoslangan edi [2]. R. Davis, H. Shrobe va P. Szolovits esa savolni boshqacha qo‘yadi [3]. Ularning fikricha, bilim ifodasi bir vaqtning o‘zida beshta rol bajaradi. U olamdagi narsalarning o‘rinbosari, ontologik majburiyatlar to‘plami, intellektual mulohazaning qisman nazariyasi, samarali hisoblash muhiti va inson fikrini ifodalash vositasidir. Bu besh rol keyingi tahlilda baholash mezonlarining manbai bo‘ldi.

Ramziy vositalar tarixida tarmoq va freym yondashuvlari ayricha yo‘l tutgan. M. R. Quillian semantik xotira modelida so‘z ma’nosini tugunlar va ular orasidagi assotsiativ bog‘lanishlar konfiguratsiyasi sifatida tasvirlagan, ikki tushuncha o‘rtasidagi aloqani esa ulardan tarmoq bo‘ylab qidiruv tarqatish orqali topishni taklif qilgan [4]. M. Minsky freymni stereotip vaziyatni ifodalovchi ma’lumot tuzilmasi deb ta’riflagan. Freymning bo‘sh joylari, ya’ni terminallari odatiy qiymatlar bilan to‘ldiriladi va bu qiymatlar yangi dalil kelganda almashtirilishi mumkin [5]. J. Sowa konseptual graflarni

tushuncha va munosabat tugunlaridan iborat ikki ulushli graf sifatida qurgan va ularni birinchi tartibli mantiq formulalariga o‘girish yo‘lini ko‘rsatgan [6]. Keyingi asarida u bilimni ifodalashni mantiq, ontologiya va hisoblash tutashuvidagi soha deb ta’riflaydi [7].

Freym va tarmoqlarning semantikasini aniqlashtirish ehtiyoji tavsifiy mantiqlarni yuzaga keltirdi. F. Baader va hammualliflari tahrir qilgan qo‘llanmada tushunchalar va rollar tili, terminologik (TBox) va faktual (ABox) bilim ajratilishi hamda sinflararo qamrov munosabatini hisoblash masalalari tizimli bayon etilgan [8]. W3C tavsiyasi bo‘lgan OWL 2 tili shu an’anaga tayanadi va ifoda kuchi kamaytirilgan, ammo hisoblash tezroq bo‘lgan EL, QL va RL profillarini belgilaydi [9]. Bu profillar Levesque va Brachman ta’kidlagan murosaning standart darajasidagi amaliy ifodasidir.

Ontologiya tushunchasi bilim muhandisligida T. Gruber ta’rifi orqali keng tarqalgan [10]. R. Studer, V. Benjamins va D. Fensel bilim muhandisligini ekspert bilimini ko‘chirish emas, modellashtirish jarayoni sifatida qaraydi [11]. N. Guarino esa ontologiyani formal lug‘atning ko‘zda tutilgan ma’nosini qisman aks ettiruvchi mantiqiy nazariya deb hisoblaydi [12]. Bu qarash har qanday formal modelning faqat taqribiy ekanini, ya’ni ko‘zda tutilgan ma’noning bir qismi doim tashqarida qolishini tan oladi.

Kognitiv yo‘nalishda ikki manba ayniqsa foydali. J. Anderson va hammualliflari ACT-R arxitekturasida deklarativ bilimni chanklar, protsedural bilimni produksion qoidalar orqali ifodalaydi, chanklarning esga olinishi esa ularning faollik darajasiga bog‘liq bo‘ladi [13]. P. Gärdenfors ramziy va konneksionistik darajalar o‘rtasiga konseptual daraja qo‘yadi, unda tushuncha sifat o‘lchamlari bilan berilgan fazodagi qavariq soha sifatida tasvirlanadi [14]. Lingvistik tomondan C. Fillmore so‘z ma’nosini u tayangan freym, ya’ni fon bilim tuzilmasiga nisbatan tushunish kerakligini asoslagan [15], G. Lakoff va M. Johnson esa kundalik tafakkur konseptual metaforalar asosida tuzilishini ko‘rsatgan [16].

Neyron modellar bo‘yicha bahslar ham mezon tanlashga ta’sir qiladi. E. Bender va A. Koller faqat til shakli asosida o‘qitilgan tizim ma’noni o‘rganishga oldindan kafolat bera olmasligini ta’kidlaydi [17]. F. Petroni va hammualliflari esa oldindan o‘qitilgan til modeli ayrim munosabatli faktlarni bo‘sh joyni to‘ldirish shaklidagi so‘rovlarda qaytara olishini ko‘rsatgan [18].

O‘zbek va rus tilidagi ishlar orasida Sh. Safarovning kognitiv tilshunoslikka oid kitobi [19] konsept va freym kabi tushunchalarni o‘zbek ilmiy muomalasiga olib kirgan. A. Po‘latov va S. Muhamedovaning o‘quv qo‘llanmasi [20] kompyuter lingvistikasining asosiy yo‘nalishlari va atamalarini o‘zbek tilida bayon qiladi. Rus an’anasida D. A. Pospelov boshqariladigan obyektni vaziyatlarning semiotik modellari orqali tavsiflashni taklif qilgan [21], G. S. Osipov esa bilimni ifodalash modellarini sun’iy intellekt usullari tizimida ko‘rib chiqadi [22]. Ko‘rib chiqilgan ishlarda vositalar alohida-alohida chuqur tahlil qilingan, ammo ularni ensiklopedik maqoladagi bilim turlari bilan aniq mezonlar asosida solishtiruvchi model uchramadi.

TADQIQOT MATERIALI VA METODLARI

Tadqiqot nazariy-tizimlashtiruvchi xarakterga ega. Material sifatida bilimni ifodalashning sakkiz vositasini tavsiflovchi asosiy nashrlar olindi. Ular birinchi tartibli

mantiq [1; 7], tavsifiy mantiqlar va OWL 2 [8; 9], freymlar [5], semantik tarmoqlar [4], konseptual graflar [6], ACT-R kognitiv arxitekturasi [13], konseptual fazolar [14] hamda neyron va katta til modellari [17; 18]. Vosita tahlilga kiritilishi uchun ikki shart qo‘yildi. Birinchidan, uning nazariy asosi asl manbada bayon qilingan bo‘lishi, ikkinchidan, u leksikografiya yoki bilim muhandisligida bilim saqlash vositasi sifatida qo‘llangan yoki taklif qilingan bo‘lishi kerak edi. Prolog kabi dasturlash tillari va ma’lumotlar bazasi sxemalari tahlilga kiritilmadi, chunki ular bilim modelining o‘zi emas, uni amalga oshirish vositasidir.

Tahlil to‘rt bosqichda bajarildi. Birinchi bosqichda Brachman va Levesque hamda Davis va hammualliflarining qoidalaridan baholash mezonlari chiqarildi. Ikkinchi bosqichda har bir vosita asl manbalardagi tavsifi asosida mezonlar bo‘yicha “yuqori”, “o‘rta” yoki “past” deb baholandi. Uchinchi bosqichda ensiklopedik maqoladagi bilim turlari ajratildi. Buning uchun lingvistik freym nazariyasi [15], konseptual metafora nazariyasi [16] va ontologiyada terminologik hamda faktual bilim farqi [8] tayanch qilib olindi. To‘rtinchi bosqichda bilim turlari va vositalar profili solishtirilib, muvofiqlik modeli tuzildi.

Metodning cheklovi ochiq aytilishi kerak. Baholash sifat darajasida, adabiyotdagi tavsiflarga tayanib bajarildi, tajribaviy o‘lchov o‘tkazilmadi. Shuning uchun “yuqori” yoki “past” bahosi vositaning mezonga nisbatan nazariy imkoniyatini bildiradi, uning biror dasturdagi ish sifatini emas. O‘zbek tilidagi misollar shartli misol sifatida tuzildi va hech bir mavjud lug‘atdan olinmagan.

NATIJALAR

1. Baholash mezonlari

Davis va hammualliflari ta’riflagan besh rol [3] hamda Brachman va Levesque murosasi [1; 2] asosida olti mezon ajratildi.

K1. Ontologik aniqlik. Vosita olamni qanday birliklarga bo‘lishni, ya’ni sinf, xossa, voqea yoki vaziyatni qanchalik aniq belgilashga majbur qiladi. Bu mezon ontologik majburiyat roliga mos keladi.

K2. Ifoda kuchi. Inkor, umumiylik kvantori, son cheklovi, munosabatlar zanjiri kabi bilimlarni yozish imkoniyati.

K3. Hisoblash samaradorligi. Xulosa chiqarish masalasi hal qilinuvchanmi va katta hajmli resursda amalda qancha vaqt oladi. Bu mezon samarali hisoblash muhiti roli bilan bog‘liq.

K4. Leksikograf uchun o‘qiluvchanlik. Lug‘atchi formal yozuvni dasturchisiz tushunib, tahrir qila oladimi. Davis va hammualliflari buni inson fikrini ifodalash vositasi sifatida qayd etgan.

K5. Tipiklik va darajalilikka moslik. Vosita odatiy qiymatni, istisnoni, tushunchaning markaziy va chekka a’zolari farqini ifodalay oladimi. Bu mezon Minskyning odatiy qiymatlar g‘oyasi [5] va Gärdenforsning konseptual fazolari [14] asosida kiritildi.

K6. Manbaga qaytarish. Har bir xulosa yoki faktning qaysi ma’lumotdan kelib chiqqanini ko‘rsatish mumkinmi. Ensiklopediya uchun bu mezon zaruriy, chunki ishonchlilik faktning manbasini tekshirish orqali ta’minlanadi.

Dastlabki uch mezon mashina ehtiyojini, keyingi uchtasi esa lug‘atchi va

foydalanuvchi ehtiyojini aks ettiradi. Shu tufayli mezonlar to‘plami muvozanatli bo‘lib, vositalarni faqat hisoblash yoki faqat qulaylik nuqtai nazaridan baholashning oldini oladi.

2. Vositalarning sifat profili

Sakkiz vositani olti mezon bo‘yicha baholash natijasi 1-jadvalda jamlangan.

1-jadval. Bilimni ifodalash vositalarining mezonlar bo‘yicha sifat profili (adabiyot asosidagi nazariy baho)

Vosita	**K1**	**K2**	**K3**	**K4**	**K5**	**K6**
Birinchi tartibli mantiq	o‘rta	yuqori	past	past	past	yuqori
Tavsifiy mantiqlar, OWL 2	yuqori	o‘rta	yuqori	o‘rta	past	yuqori
Freymlar	o‘rta	o‘rta	o‘rta	yuqori	o‘rta	o‘rta
Semantik tarmoqlar	past	o‘rta	yuqori	yuqori	o‘rta	o‘rta
Konseptual graflar	o‘rta	yuqori	o‘rta	o‘rta	past	yuqori
ACT-R arxitekturasi	past	o‘rta	o‘rta	past	yuqori	o‘rta
Konseptual fazolar	o‘rta	o‘rta	o‘rta	past	yuqori	past
Neyron va katta til modellari	past	yuqori	o‘rta	o‘rta	yuqori	past

Baholarning asosi quyidagicha. Birinchi tartibli mantiq eng katta ifoda kuchiga ega, lekin unda mantiqiy kelib chiqishni tekshirish umumiy holda hal qilinmaydi [1]. Tavsifiy mantiqlar ifoda kuchining bir qismidan voz kechish evaziga hal qilinuvchan mulohazaga erishadi [8], OWL 2 profillari esa bu tanlovni yanada aniq darajalarga ajratadi [9]. Ularning K5 bo‘yicha past bahosi klassik semantikaning monotonligidan kelib chiqadi, ya’ni yangi fakt qo‘shilganda avvalgi xulosa bekor qilinmaydi va “odatda shunday” turidagi bilim bevosita ifodalanmaydi.

Freymlar lug‘atchi uchun eng tushunarli shaklni beradi, chunki maqola tuzilishining o‘zi ham maydonlarga bo‘lingan. Minsky ko‘rsatgan odatiy qiymatlar K5 bo‘yicha o‘rta baho uchun asos bo‘ladi [5]. Semantik tarmoqlar tez qidiruv va ko‘rgazmalilikni ta’minlaydi, ammo ularda bog‘lanish turlarining ma’nosi formal belgilanmagan bo‘lsa, bir xil chiziq turli munosabatlarni bildirishi mumkin. Shu sababli K1 past baholandi. Konseptual graflar mantiqqa o‘giriluvchanligi tufayli [6] K2 va K6 bo‘yicha yuqori, ammo ularning amaliy vositalari kamroq tarqalgan.

ACT-R va konseptual fazolar bilim saqlash formati sifatida emas, bilimga murojaat va tushuncha tuzilishi modeli sifatida baholandi. ACT-R da faollik darajasi bilimning qanchalik tez va qanchalik ishonchli esga olinishini belgilaydi [13], konseptual fazolarda esa tushunchaning markazi va chegarasi geometrik masofa orqali beriladi [14]. Neyron modellar keng qamrov va tabiiy matn bilan ishlash imkonini beradi [18], biroq ular faktni manbasi bilan qaytarishni kafolatlamaydi va Bender hamda Koller ko‘rsatgan shakl va ma’no farqi [17] ularni yagona bilim manbai sifatida qo‘llashga yo‘l bermaydi.

3. Ensiklopedik maqoladagi bilim turlari va muvofiqlik

Uchinchi bosqichda ensiklopedik maqolada olti bilim turi ajratildi. Ularning har biriga profil jihatidan eng mos vosita biriktirildi.

Taksonomik bilim obyektning sinfga mansubligi va sinflararo iyerarxiyani bildiradi. Bu bilim uchun K1 va K3 hal qiluvchi, shuning uchun u tavsifiy mantiq

asosidagi terminologik qismga biriktiriladi [8]. Faktual bilim aniq obyektning sanalari, joyi, o‘lchami va boshqa obyektlar bilan aloqasidir. U ABox darajasida yoziladi va har bir fakt manba ko‘rsatkichi bilan birga saqlanadi, chunki bu turda K6 eng muhim mezondir.

Vaziyatli bilim jarayon, marosim yoki voqeaning ishtirokchilari, bosqichlari va natijasini qamraydi. Bu turda Minsky va Fillmore freymlari tabiiy tanlovdir [5; 15]. Shartli misol sifatida “hashar” tushunchasini olaylik. Uning freymida tashabbuskor, ishtirokchilar, maqsad, ish turi, vaqt va yakuniy dasturxon kabi bo‘sh joylar bo‘ladi, ishtirokchilar uchun “mahalla aholisi” odatiy qiymat sifatida beriladi. Bunday bilimni sinf va xossa ko‘rinishiga to‘liq aylantirish mumkin, ammo bunda bosqichlar ketma-ketligi va odatiy qiymatlar yo‘qolishi ehtimoli bor.

Assotsiativ bilim tushunchalar o‘rtasidagi qat’iy mantiqiy emas, mazmuniy yaqinlikdir. U “Ko‘ring”, “Yana qarang” turidagi havolalarda va qidiruvda tavsiya berishda ishlaydi. Bu tur uchun Quillian tarmog‘i va undagi qidiruv tarqatish g‘oyasi [4] mos keladi, havolalarni tartiblashda esa ACT-R dagi faollik tamoyili [13] foydali o‘xshatish beradi.

Prototipik-obrazli bilim tushunchaning tipik a’zosi, darajali belgilari va madaniy obrazidir. Masalan, o‘zbek madaniy muhitida “qovun” tushunchasining tipik vakili, uning shirinlik va xushbo‘ylik o‘lchamlari bo‘yicha joylashuvi (shartli misol) konseptual fazo orqali qulayroq beriladi [14]. Metaforik ko‘chimlar esa ikki konseptual soha o‘rtasidagi moslik sifatida alohida qayd etiladi [16].

Matnli bilim maqolaning erkin bayonidagi hali tuzilmaga keltirilmagan axborotdir. Uni avtomatik ajratish va qisqacha mazmun tuzish uchun neyron modellar samarali, lekin ular yaratgan har bir fakt ramziy yadroga kiritilishidan oldin manba matni bilan solishtirilishi kerak [17; 18].

4. Qatlamli gibrid model

Muvofiqlik natijalari bitta formalizm o‘rniga qatlamli gibrid tuzilmaga olib keladi. Uning markazida tavsifiy mantiq asosidagi ramziy yadro turadi. Yadro taksonomik va faktual bilimni saqlaydi va resursning “haqiqat manbai” vazifasini bajaradi. Yadroga ikki yordamchi qatlam ulanadi. Birinchisi freym qatlami bo‘lib, vaziyatli bilimni yadrodagi sinflarga havola qiluvchi tuzilmalarda saqlaydi. Ikkinchisi assotsiativ-fazoviy qatlam bo‘lib, yaqinlik, tipiklik va metaforik bog‘lanishlarni ifodalaydi. Eng tashqi qatlamda neyron vositalar joylashadi, ular matndan bilim taklif qiladi, ammo bu taklif yadroga faqat tekshiruvdan keyin o‘tadi.

Modelning asosiy tamoyili nazorat yo‘nalishidir. Bilim tashqi qatlamdan ichki qatlamga faqat tasdiqlangandan keyin harakatlanadi, ichki qatlamdagi qarorlar esa tashqi qatlamdagi natijalarni cheklaydi. Konseptual graflar ikki joyda yordamchi rol o‘ynaydi. Ular lug‘atchi yozgan ta’rif matnini mantiqiy shaklga yaqinlashtiruvchi oraliq yozuv bo‘lib xizmat qiladi va yadrodagi xulosani inson tushunadigan ko‘rinishda tushuntirishga yordam beradi [6; 7].

MUHOKAMA

Natija Sowa ta’rifidagi mantiq, ontologiya va hisoblash uchligi [7] bilan mos keladi, biroq unga leksikografik o‘lcham qo‘shadi. Sowa uchun vositalar oxir-oqibat mantiqqa o‘giriluvchanlik nuqtai nazaridan baholanadi. Ensiklopedik lug‘atda esa

bunga leksikograf uchun o‘qiluvchanlik va manbaga qaytarish talablari qo‘shiladi, chunki resursni dasturchi emas, lug‘atchilar jamoasi to‘ldiradi. Davis va hammualliflari ta’kidlagan inson fikrini ifodalash roli [3] aynan shu sababli mezonlar orasida teng huquqli o‘rinni egalladi.

Brachman va Levesque murosasi [1; 2] modelda bir vosita ichida emas, qatlamlar o‘rtasida hal qilinadi. Yadro samaradorlik va ishonchlilik uchun ifoda kuchidan qisman voz kechadi, tashqi qatlamlar esa yadro ifodalay olmagan bilimni boshqa formalizmlarda saqlaydi. Bu yondashuv OWL 2 profillari g‘oyasiga [9] yaqin, farqi shundaki, profillar bir til ichidagi darajalar bo‘lsa, taklif qilingan modelda turli tabiatli formalizmlar birlashtiriladi.

Gärdenfors taklif qilgan uch darajali qarash [14] modelning nazariy asosini mustahkamlaydi. Ramziy yadro uning ramziy darajasiga, assotsiativ-fazoviy qatlam konseptual darajaga, neyron qatlam esa subkonseptual darajaga mos keladi. Guarino ontologiyani ko‘zda tutilgan ma’noning taqribiy ifodasi deb hisoblagani [12] ham shu bilan bog‘lanadi. Yadro qanchalik qat’iy bo‘lmasin, tushunchaning tipiklik va obraz kabi jihatlari undan tashqarida qoladi va ularga alohida qatlam kerak bo‘ladi. Fillmore va Lakoff hamda Johnson ishlarining modelga kiritilishi shu bo‘shliqni to‘ldirish ehtiyojidan kelib chiqqan.

Neyron vositalarga berilgan cheklangan o‘rin ularning imkoniyatini kamsitish emas. Petroni va hammualliflari natijalari [18] til modellari faktual bilimning bir qismini o‘zida saqlashini ko‘rsatadi va bu ularni matndan bilim ajratishda foydali qiladi. Biroq Bender va Koller argumenti [17] ensiklopediya uchun hal qiluvchi bo‘lgan savolni ochiq qoldiradi, ya’ni model chiqargan fakt olamdagi holatga emas, matnlardagi statistik qonuniyatga tayanadi. Ensiklopedik resursda bunday faktni manbasiz qabul qilish K6 mezonini buzadi.

O‘zbek tili uchun modeldan bir necha amaliy oqibat kelib chiqadi. Birinchidan, ramziy yadroni xalqaro ontologiyalardan tayyor holda olish faqat qisman mumkin, chunki “mahalla”, “hashar” yoki “to‘y” kabi milliy realiyalar uchun mos sinflar ko‘pincha mavjud emas. Bunday tushunchalarni avval freym qatlamida tavsiflab, keyin ularning barqaror qismini yadroga o‘tkazish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, o‘zbek tili uchun neyron modellar o‘qitiladigan matn hajmi yirik tillarnikidan ancha kichik, shuning uchun tashqi qatlamdagi tekshiruv bosqichi o‘zbek resursida yanada qat’iy bo‘lishi kerak. Uchinchidan, lotin va kirill yozuvidagi nom variantlari yadroda bitta obyektning turli yorliqlari sifatida saqlanishi lozim. Shunda yozuv farqi bilim farqiga aylanmaydi.

Rus va o‘zbek an’anasi bilan qiyos ham foydali. Pospelovning vaziyatli boshqaruv g‘oyasi [21] freym qatlamiga yaqin, chunki u ham bilimni vaziyat tavsifi orqali tuzadi. Osipov ko‘rib chiqqan modellar tizimi [22] esa bitta model emas, bir nechta modelning birgalikda qo‘llanishi tabiiy ekanini tasdiqlaydi. Safarov tomonidan o‘zbek tilshunosligiga olib kirilgan konsept va freym atamalari [19] modelning lingvistik qatlamlari uchun tayyor atama bazasini beradi, Po‘latov va Muhamedova qo‘llanmasi [20] esa hisoblash tomoni uchun o‘zbekcha atamalar manbai bo‘la oladi.

Natijalarning cheklovlari ham bor. Baholash nazariy va sifat darajasida bajarildi, uni o‘zbek tilidagi aniq maqolalar to‘plamida sinab ko‘rish keyingi vazifadir. Bilim

turlari o‘rtasidagi chegara ham ba’zan shartli, masalan, faktual bilim vaziyat freymining bir qismi bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda qaysi qatlam asosiy bo‘lishini aniqlovchi qoidalar alohida ishlab chiqilishi lozim.

XULOSA

Bilimni ifodalash vositalarini Brachman va Levesque hamda Davis va hammualliflarining qoidalariga tayangan olti mezon bo‘yicha qiyoslash ularning birortasi ham ensiklopedik maqoladagi barcha bilim turlarini birdek yaxshi ifodalamasligini ko‘rsatdi. Tavsifiy mantiqlar taksonomik va faktual bilim uchun, freymlar vaziyatli bilim uchun, semantik tarmoqlar va konseptual fazolar assotsiativ va prototipik bilim uchun eng mos keladi. Neyron modellar esa matndan bilim ajratish vositasi sifatida foydali, ammo ishonchli manba sifatida emas.

Taklif qilingan qatlamli gibrid model vosita tanlashni texnik qulaylikdan nazariy asoslangan qarorga aylantiradi. Uning asosiy tamoyili ramziy yadroning nazorati ostida tashqi qatlamlardan bilim qabul qilishdir. O‘zbek tilidagi elektron ensiklopedik lug‘at uchun bu milliy realiyalarni freym orqali bosqichma-bosqich formallashtirish va neyron natijalarni qat’iy tekshiruvdan o‘tkazishni anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Brachman R.J., Levesque H.J. Knowledge Representation and Reasoning. – San Francisco: Morgan Kaufmann, 2004. – 381 p.
2. Levesque H.J., Brachman R.J. Expressiveness and tractability in knowledge representation and reasoning // Computational Intelligence. – 1987. – Vol. 3, № 1. – P. 78–93.
3. Davis R., Shrobe H., Szolovits P. What is a knowledge representation? // AI Magazine. – 1993. – Vol. 14, № 1. – P. 17–33.
4. Quillian M.R. Semantic memory // Semantic Information Processing / Ed. by M. Minsky. – Cambridge, MA: MIT Press, 1968. – P. 227–270.
5. Minsky M. A framework for representing knowledge // The Psychology of Computer Vision / Ed. by P.H. Winston. – New York: McGraw-Hill, 1975. – P. 211–277.
6. Sowa J.F. Conceptual Structures: Information Processing in Mind and Machine. – Reading, MA: Addison-Wesley, 1984. – 481 p.
7. Sowa J.F. Knowledge Representation: Logical, Philosophical, and Computational Foundations. – Pacific Grove, CA: Brooks/Cole, 2000. – 594 p.
8. Baader F., Calvanese D., McGuinness D.L., Nardi D., Patel-Schneider P.F. (eds.) The Description Logic Handbook: Theory, Implementation, and Applications. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 601 p.
9. W3C OWL Working Group. OWL 2 Web Ontology Language Document Overview (Second Edition): W3C Recommendation 11 December 2012. – URL: https://www.w3.org/TR/owl2-overview/ (murojaat sanasi: [kk.oo.2026]).
10. Gruber T.R. A translation approach to portable ontology specifications // Knowledge Acquisition. – 1993. – Vol. 5, № 2. – P. 199–220.

11. Studer R., Benjamins V.R., Fensel D. Knowledge engineering: Principles and methods // Data & Knowledge Engineering. – 1998. – Vol. 25, № 1–2. – P. 161–197.

12. Guarino N. Formal ontology and information systems // Formal Ontology in Information Systems: Proceedings of FOIS’98 / Ed. by N. Guarino. – Amsterdam: IOS Press, 1998. – P. 3–15.

13. Anderson J.R., Bothell D., Byrne M.D., Douglass S., Lebiere C., Qin Y. An integrated theory of the mind // Psychological Review. – 2004. – Vol. 111, № 4. – P. 1036–1060.

14. Gärdenfors P. Conceptual Spaces: The Geometry of Thought. – Cambridge, MA: MIT Press, 2000. – 307 p.

15. Fillmore Ch.J. Frame semantics // Linguistics in the Morning Calm / Ed. by The Linguistic Society of Korea. – Seoul: Hanshin, 1982. – P. 111–137.

16. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

17. Bender E.M., Koller A. Climbing towards NLU: On meaning, form, and understanding in the age of data // Proceedings of the 58th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics. – 2020. – P. 5185–5198.

18. Petroni F., Rocktäschel T., Lewis P. et al. Language models as knowledge bases? // Proceedings of EMNLP-IJCNLP 2019. – Hong Kong, 2019. – P. 2463–2473.

19. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.

20. Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2012.

21. Поспелов Д.А. Ситуационное управление: теория и практика. – М.: Наука, 1986. Осипов Г.С. Методы искусственного интеллекта. – М.: Физматлит, 2011

THE USE OF SPEECH VERBS IN UZBEK AND ENGLISH

Ziyayeva Dilnoza,
PhD, ESP teacher Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sino

Abstract. This paper explores the methods and strategies for teaching speech verbs in Uzbek and English languages, emphasizing the importance of effective communication in language acquisition. Speech verbs, which denote actions related to speaking, such as "say," "tell," "ask," and their Uzbek equivalents, play a crucial role in conveying meaning and intent in both languages. The study examines various pedagogical approaches, including comparative analysis, contextual learning, and interactive exercises, to enhance learners' understanding and usage of speech verbs.

Key words. Speech Verbs, Language Teaching, Uzbek Language, English Language, Pedagogical Strategies, Communication Skills, Comparative Analysis, Contextual Learning, Interactive Exercises,Linguistic Differences.

The intricate nature of speech verbs in both Uzbek and English languages highlights the necessity for a comprehensive examination of pedagogical approaches that support their effective instruction. The differentiation in linguistic structures, cultural implications, and contextual usage of these verbs poses unique challenges for learners and educators alike. Consequently, the pursuit of effective teaching methods requires an understanding of not only the linguistic distinctions but also the cognitive processes involved in language acquisition, emphasizing the importance of tailored instructional strategies. Moreover, the interplay between sociolinguistic factors and educational practices is pivotal in shaping students' grasp of speech verbs. Teaching methodologies that encompass interactive and context-based learning can significantly enhance comprehension and retention. Techniques that foster engagement, such as cooperative learning activities or technology-enhanced instruction, demonstrate promising results in bridging the gap between theoretical knowledge and practical application. Ultimately, this exploration necessitates a critical evaluation of existing curricula and the implementation of innovative practices that integrate cultural relevancy and linguistic authenticity. By scrutinizing the variances and commonalities in the treatment of speech verbs across these two languages, educators can refine their approaches, thereby equipping learners with the necessary skills to navigate complex linguistic landscapes effectively.

Speech verbs, or verbs that describe dialogues and communication, play a pivotal role in both linguistic and pedagogical contexts. They not only convey the Act of communication but also imbue sentences with emotion, intent, and nuances of meaning.

Understanding this importance is crucial for language learners, as it equips them with the tools to express themselves effectively and persuasively in conversations. In teaching contexts, speech verbs serve as key indicators of interpersonal relations and emotional tone, transforming mere statements into vivid interactions. For instance, verbs such as explain, argue, and whisper can alter the interpretation of a dialogue significantly. The methodical instruction of these verbs, particularly in languages such as Uzbek and English, reinforces learners comprehension and enhances their expressive capabilities. In this regard, the presence and correct usage of speech verbs are essential, as they foster clarity and depth in communication, aligning with learners abilities to engage in meaningful exchanges.

Language teaching methodologies encompass a variety of approaches that have evolved over time to meet the needs of diverse learners. Historically, methods such as the Grammar-Translation Method focused on reading and writing skills, emphasizing grammatical rules and vocabulary memorization. This approach, however, often neglects spoken language proficiency, which is vital for effective communication. In contrast, contemporary methods like Communicative Language Teaching (CLT) prioritize interaction and functional language use, aligning closely with the practical demands of learners in a global context. For instance, as noted in studies regarding error analysis among Uzbek learners of English, common pitfalls often arise from differences in linguistic structure, such as article usage and sentence construction. This disparity underscores the necessity for methodologies that emphasize both comprehension and expressive capabilities, notably in teaching nuanced language elements, such as speech verbs, across languages like Uzbek and English. This comprehensive understanding informs best practices in teacher training and curriculum development, thereby enhancing language acquisition.

The exploration of teaching methodologies for speech verbs in both Uzbek and English encompasses a comprehensive analysis of linguistic structures, practical pedagogical strategies, and cultural contexts. This research aims to identify effective instructional practices that enhance learners' comprehension and utilization of speech verbs, reflecting a dual focus on theoretical frameworks and classroom applications. By examining these verbs, which are pivotal in both languages due to their role in communication and expression, the study seeks to address teaching challenges specific to less widely used languages, akin to the insights offered in.

II. Comparative Analysis of Speech Verbs in Uzbek and English

Understanding the intricacies of speech verbs in both Uzbek and English reveals significant linguistic divergences that can impact teaching methodologies. Speech verbs, which convey actions of verbal communication, serve not only as functional components of sentences but also as reflections of cultural nuances embedded within each language. In Uzbek, speech verbs can manifest in a variety of forms that indicate aspects such as learning and communication, aligning with pedagogical frameworks that emphasize sociolinguistic awareness. Conversely, English exhibits a more straightforward verb structure that often relies on auxiliary verbs to modify meaning. This structural difference necessitates distinct teaching strategies to facilitate comprehension and application among learners. For instance, employing comparative

linguistic analysis, as practiced in institutions like University College London to teach less widely used languages such as Hungarian and Finnish, could similarly enhance the teaching of speech verbs in Uzbek and English. Furthermore, initiatives like the Conference on Central Asian Languages and Linguistics highlight the importance of fostering a professional community to enhance pedagogical techniques and research in Central Asian language education. This comparative analysis not only elucidates the complexities of each language system but also establishes a foundation for developing effective instructional methods tailored to the unique challenges presented by speech verbs in both Uzbek and English.

A. Structural Differences in Speech Verb Usage

Understanding the structural differences in speech verb usage between Uzbek and English is vital for developing effective pedagogical strategies. Central to this analysis is how each language employs morphological principles in speech verbs, which profoundly influences learner acquisition and instructional methods. The complexity of speech verbs in Uzbek often requires a more nuanced approach due to its agglutinative nature, where multiple suffixes can create new meanings or grammatical relationships. In contrast, English tends to utilize a more straightforward structure, often relying on auxiliary verbs and fixed expressions that can complicate the teaching process for Uzbek speakers.

B. Semantic Variations and Cultural Contexts

Understanding semantic variations and their cultural contexts is crucial for teaching speech verbs effectively since language is inherently tied to the cultural nuances of its speakers. For instance, the concept of politeness can diverge significantly between Uzbek and English, as speech verbs often encapsulate cultural values, including hierarchy and respect. This divergence necessitates a curriculum that not only addresses the grammatical structures of speech verbs but also incorporates cultural insights, allowing learners to navigate these complexities.

C. Frequency and Functionality in Everyday Communication

Understanding how frequency and functionality intersect in everyday communication is critical for language instruction, particularly in the context of speech verbs in both Uzbek and English. The prevalence of certain speech verbs, such as say in English and aytmoq in Uzbek, highlights their utility in various conversational contexts, reflecting the cultural norms of communication. For instance, educators can enhance learners' grasp of these verbs by emphasizing their usage in authentic dialogues and interactions. By analyzing the patterns of usage found in linguistic studies, such as those presented in the Conference on Central Asian Languages and Linguistics, instructional methods can be tailored to reflect real-world applications. This strategy not only aids in vocabulary retention but also encourages a deeper understanding of cultural nuances that govern communication behaviors, as illustrated by the varied approaches to teaching language usage discussed in the conference proceedings (Kent et al., 2015). Ultimately, a focus on frequency and functionality can significantly enhance language acquisition and communicative competence in learners.

III. Teaching Methods for Speech Verbs in Uzbek Language

The effective teaching of speech verbs in the Uzbek language necessitates an innovative pedagogical approach, drawing on comparative linguistic strategies to enhance comprehension and retention. Instructors can implement context-rich scenarios that allow students to practice speech verbs in various communicative situations, thereby fostering pragmatic awareness that aligns with their cultural usage. This method not only aids in vocabulary acquisition but also encourages students to engage with the nuanced meanings conveyed through different verbs in specific contexts. Given that Finnish and Hungarian utilize similar techniques to expose learners to linguistic subtleties, as articulated in related research environments, it is evident that such a linguistically oriented approach can significantly benefit less commonly taught languages like Uzbek. By integrating comparative analysis and sociolinguistic elements into the curriculum, educators can help students draw connections between Uzbek and their native languages, ultimately facilitating a deeper understanding of speech verbs.

A. Traditional Approaches: Grammar-Translation Method

The Grammar-Translation Method, a prevalent traditional approach in language instruction, emphasizes rote memorization of grammatical rules and extensive translation exercises. This method, often criticized for its lack of focus on communicative competence, has been foundational in teaching less widely used languages, such as Uzbek.

Through its systematic approach to grammar, learners develop a nuanced understanding of sentence structure, a crucial aspect when mastering speech verbs in both Uzbek and English. For instance, this method allows students to draw comparisons between their native and target languages, illustrating syntactic and semantic differences that inform the use of verbs in speech contexts. In addition, as noted in (Tarsoly et al., 2011), a linguistically oriented framework can enhance this learning experience by fostering critical thinking and sociolinguistic awareness among students, effectively bridging the gap between formal grammar instruction and practical language application. Thus, while the Grammar-Translation Method has limitations, its structured approach can still provide a solid foundation for language learners.

B. Communicative Language Teaching Strategies

Effective language teaching, particularly in the context of speech verbs, greatly benefits from Communicative Language Teaching (CLT) strategies. By prioritizing interaction and real-life communication, CLT facilitates learners ability to express and comprehend nuanced meanings, an essential aspect when addressing speech verbs in both Uzbek and English. For instance, a comparative analysis of Finnish and Hungarian teaching methodologies highlights the critical role of linguistic awareness in enhancing learner engagement and fluency ((Tarsoly et al., 2011)). This approach allows students to analyze and apply their understanding of language structures in pragmatic contexts, promoting deeper cognitive connections. Moreover, the establishment of platforms like the Conference on Central Asian Languages and Linguistics, as indicated in (Kent et al., 2015), underscores the importance of networking strategies in fostering collaboration among language educators. These frameworks not only cultivate pedagogical innovations but also reinforce the significance of culturally sensitive instruction in mastering the complexities of speech verbs across languages.

C. Use of Technology and Multimedia Resources

Incorporating technology and multimedia resources into the pedagogical framework significantly enhances the engagement and comprehension of students learning speech verbs in both Uzbek and English. By leveraging interactive platforms and digital tools, educators can illustrate the nuances of speech verbs through contextualized, dynamic examples that traditional methods may fail to convey.

IV. Teaching Methods for Speech Verbs in English Language

Effective teaching methods for speech verbs in English necessitate a comprehensive understanding of both linguistic theory and practical application in instructional settings. An approach that emphasizes a linguistically oriented framework enables learners to critically engage with the complexities of verb usage in various communicative contexts.

By integrating comparative analysis and historical perspectives, instructors can illuminate the nuanced differences between speech verbs and their implications in language use. For instance, the effective teaching of speech acts not only enhances students grammatical proficiency but also their sociolinguistic awareness, as highlighted in research focusing on less widely taught languages (cite24). Consequently, employing a multifaceted approach ensures that learners not only master speech verbs but also appreciate their contextual significance in English communication.

A. Task-Based Language Teaching Techniques

Effective language instruction requires innovative pedagogical methods, and Task-Based Language Teaching (TBLT) presents a practical framework for enhancing learners' engagement with speech verbs in both Uzbek and English. TBLT emphasizes the use of meaningful tasks that mirror real-life language use, allowing students to negotiate meaning while utilizing relevant linguistic structures. This approach cultivates linguistic competence and communicative strategies, enabling learners to reflexively apply their knowledge in authentic contexts.

B. The Role of Contextual Learning in Vocabulary Acquisition

Contextual learning significantly enhances vocabulary acquisition by situating language within meaningful interactions and scenarios, thus promoting deeper understanding and retention. This pedagogical approach aligns with the findings presented in contemporary research, which underscores the importance of authentic contexts for language learners. For instance, when examining the process of teaching speech verbs across Uzbek and English, integrating contextual examples can elucidate the nuances of usage, thereby aiding students' comprehension and ability to apply vocabulary in appropriate situations. Ultimately, the incorporation of context in vocabulary teaching fosters a richer, more interactive learning experience.

C. Incorporating Authentic Materials in Instruction

Authentic materials play a pivotal role in language instruction, shaping learners' understanding of speech verbs in both Uzbek and English. Incorporating real-world texts, such as newspapers, interviews, and literature, allows students to interact with language as it is used in natural contexts, thereby enhancing their comprehension and retention of speech verbs. For instance, exposure to authentic discourse can illuminate the nuances of speech acts that may not be evident in traditional textbook examples.

Furthermore, the integration of such materials fosters critical thinking, as students engage with various linguistic sub-disciplines that inform their understanding of both Finnish and Hungarian, akin to the complexity present in Uzbek and English speech verbs. Thus, the authentic materials not only enrich learners' linguistic competence but also prepare them for practical language use in diverse settings.

V. Conclusion

In summation, the exploration of teaching methods and strategies for speech verbs in both Uzbek and English underscores the complexities inherent in language acquisition, particularly in contexts where structural and cultural differences abound. This study reveals that error analysis plays a crucial role in identifying learners challenges, as evidenced by the findings from Uzbek EFL learners, which highlight prevalent issues such as spelling and word choice errors. By integrating these insights into pedagogical practices, educators can tailor their approaches to address specific linguistic obstacles. Moreover, as articulated in the framework established by CeLCAR, fostering collaboration among linguists and language educators is vital for refining instructional strategies and enhancing curriculum development (Kent et al., 2015). Ultimately, the synthesis of these methodologies points toward a more effective and culturally responsive pedagogy that not only facilitates language mastery but also empowers learners to navigate the intricacies of bilingualism.

A. Summary of Key Findings

The investigation into the methods and strategies of teaching speech verbs in Uzbek and English has revealed significant pedagogical implications. Notably, a linguistically oriented approach appears to facilitate a deeper understanding of these complex linguistic components, allowing learners to draw comparisons across both languages. This strategy is supported by findings indicating that comparative analyses enhance students sociolinguistic awareness and promote a more nuanced grasp of language use in varied contexts, as underscored in studies on less widely used languages ((Tarsoly et al., 2011)). Moreover, the research indicates that fostering a community of language educators and linguists is essential for effective teaching, as highlighted by the Conference on Central Asian Languages and Linguistics ((Kent et al., 2015)). Collectively, these findings suggest that integrative teaching methods, combining formal linguistic structures with practical application, may significantly improve the acquisition and teaching efficacy of speech verbs in both Uzbek and English.

B. Implications for Language Teaching Practices

Effective language teaching practices must consider the unique linguistic features and cultural contexts of the languages being taught. In the case of Uzbek and English, a comparative analysis of language errors can significantly inform instructional strategies. For instance, studies have shown that Uzbek EFL learners frequently struggle with specific aspects such as spelling, articles, and word choice, which suggests a need for targeted intervention in these areas. By understanding these error patterns, educators can adapt their curricula to incorporate focused practice on common difficulties, thereby enhancing learners proficiency in speech verbs specific to each language. Furthermore, as evidenced by initiatives like the Conference on Central Asian Languages and Linguistics, fostering a community of language educators can facilitate the sharing of

effective methodologies and resources. Consequently, integrating collaborative teacher training and research-oriented approaches can lead to more effective strategies that cater to the nuanced challenges faced by learners in both languages.

C. Recommendations for Future Research

Future research in the realm of teaching speech verbs in both Uzbek and English should prioritize a comparative analysis that incorporates various pedagogical approaches, thus enhancing our understanding of effective instructional methods. Emphasis should be placed on longitudinal studies that track student progress over time, allowing researchers to assess the long-term benefits of specific teaching strategies. Additionally, exploring the impact of technological integration—such as interactive software and online platforms—on the acquisition of speech verbs could yield valuable insights, particularly in the context of remote or hybrid learning environments. Moreover, it would be advantageous to investigate the sociocultural influences that shape learners perceptions and usages of speech verbs in both languages, thereby enriching the framework for teaching interventions. Ultimately, such research endeavors could lead to the formulation of a more nuanced and effective curriculum that caters to the needs of diverse language learners in both linguistic settings.

The list of used literature

1. Kent, Amber Kennedy, Özçelik, Öner (2015), "Proceedings of the 1st Conference on Central Asian Languages and Linguistics (ConCALL)"
2. Tarsoly, E., Valijärvi, R. (2011), "The role of linguistics in language teaching: the case of two, less widely taught languages - Finnish and Hungarian"
3. Kent, Amber Kennedy, Özçelik, Öner (2015), "Proceedings of the 1st Conference on Central Asian Languages and Linguistics (ConCALL)"
4. Kutlimuratova, Barno (2021), "Uzbek students learning English as a foreign language: Error analysis using corpora"
5. Kent, Amber Kennedy, Özçelik, Öner (2015), "Proceedings of the 1st Conference on Central Asian Languages and Linguistics (ConCALL)"

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “MUHABBAT / LOVE” KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV TUZILISHI: SEVGI VA SUB’EKTNING MAKONIY MUNOSABATI

Mamatkulova Saidaxon
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida sevgi bilan uni boshdan kechiruvchi shaxs o‘rtasidagi makoniy munosabat qanday tasavvur qilinishi qiyosiy o‘rganiladi. Material izohli, etimologik va frazeologik lug‘atlardan, o‘zbek maqollar to‘plamidan hamda muallif tuzgan ikki badiiy korpusdan (o‘zbekcha 1 278 225 va inglizcha 1 019 718 so‘z) olindi. Tahlilda nominativ maydon, sevgining paydo bo‘lish yo‘nalishi, sevgi o‘rnining nomlari va metaforik modellar yagona leksikallashuv mezoni asosida baholandi. Ikki tilda ham sevgi tushish harakati bilan paydo bo‘ladi, biroq yo‘nalish qarama-qarshi. O‘zbek tilida sevgi shaxsga, aniqrog‘i uning ko‘ngliga tushadi va idish vazifasini ko‘ngil bajaradi. Ingliz tilida shaxsning o‘zi sevgiga tushadi va sevgi uni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: muhabbat; love; konsept; nominativ maydon; konseptual metafora; idish obrazi; ko‘ngil; heart; leksikallashuv.

Аннотация. В статье сопоставляется, как в английском и узбекском языках представлено пространственное соотношение любви и переживающего её человека. Материалом послужили толковые, этимологические и фразеологические словари, сборник узбекских пословиц и два художественных корпуса, составленных автором (1 278 225 узбекских и 1 019 718 английских словоупотреблений). Номинативное поле, направление возникновения любви, наименования её вместилища и метафорические модели оценивались по единому критерию лексикализации. В обоих языках любовь возникает через образ падения, однако направление противоположно. В узбекском языке любовь падает на человека, в его кўнгил, и роль вместилища выполняет кўнгил. В английском языке человек сам падает в любовь, и любовь его вмещает.

Ключевые слова: любовь; концепт; номинативное поле; концептуальная метафора; образ вместилища; кўнгил; heart; лексикализация.

Abstract. The article compares how English and Uzbek represent the spatial relation between love and the person who experiences it. The material was drawn from explanatory, etymological and phraseological dictionaries, a collection of Uzbek proverbs and two fiction corpora compiled by the author (1,278,225 Uzbek and 1,019,718 English words). The nominative field, the direction in which love arises, the names of its seat and the metaphorical models were assessed by a single lexicalisation criterion. In both languages love arises through an image of falling, but the direction is opposite. In Uzbek love falls upon a person, into the ko‘ngil, and the ko‘ngil serves as the container. In English the person falls into love, and love contains the person.

Keywords: love; concept; nominative field; conceptual metaphor; container image; ko‘ngil; heart; lexicalisation.

KIRISH

Hissiy konseptlarni qiyoslaganda tadqiqotchi ko‘pincha his qanday baholanishini so‘raydi. Sevgida esa oldinroq boshqa savol turadi, chunki u odamni boshqa odamga, oilaga va yurtga bog‘laydigan his. Bog‘lanish bor joyda yo‘nalish ham bor. Sevgi qayerdan keladi, qayerga joylashadi, sub’ekt esa unga nisbatan qayerda turadi? Til bu savollarga oddiy iboralar orqali javob beradi. O‘zbekcha *ишқ(и) мушоҳа* va inglizcha *fall in love* birikmalarida harakat bir xil, ikkalasida ham nimadir tushadi. Ammo tushayotgan narsa ham, u tushadigan joy ham ikki tilda boshqa-boshqa.

O‘zbek va ingliz sevgi konseptini yonma-yon qo‘ygan ishlar oz emas, biroq ular ko‘proq antropomorf modellar va somatik iboralar ustida to‘xtaydi [5, 233–235-b.]. Sevgi nomlarining ikki tildagi taqsimoti, sevgi joylashadigan a’zoning nomlari va paydo bo‘lish yo‘nalishi bitta tizimda solishtirilmagan. Avvalgi maqolamizda sevgi paremiyasining madaniy kodlari va qadriyat o‘qlari ko‘rilgan edi, bu safar konseptning kognitiv qatlami, ya’ni uning makoniy sxemasi markazga olinadi. Maqsadimiz nominativ maydon, sevgining o‘rni va metaforik modellar bir xil makoniy qolipga bo‘ysunadimi yoki yo‘qmi, shuni aniqlashdir. Tadqiqot savoli quyidagicha qo‘yiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida sevgi bilan sub’ektdan qaysi biri harakatlanadi va qaysi biri idish vazifasini bajaradi, bu farq esa ikki konseptning boshqa qatlamlarida qanday aks etadi?

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sevgi rus tilshunosligida eng ko‘p tadqiq qilingan hissiy konseptlar sirasiga kiradi. S. Vorkachev bu konseptni “ikki karra teleonom” deb ataydi. Uning talqinida sevgi bir tomondan hayotga mazmun beruvchi oliy ne’mat, ikkinchi tomondan odamning o‘z “men”idan chiqib, mazmunni tashqarida topish yo‘li [1, c. 124]. Bizningcha, bu ta’rifning o‘zida makon obrazi yashirin, chunki chiqish chegarani kesib o‘tishni nazarda tutadi. Vorkachev sevgi metaforalarini yordamchi sub’ektga ko‘ra biomorf, reimorf, makoniy, voqea-jarayon va sinestezik turlarga ajratadi, rus she’riyatida personifikatsiya obrazli assotsiatsiyalarning beshdan biridan ortig‘ini olishini aytadi [1, c. 94]. Kasallik, dard va telbalikni u alohida patologik guruhga chiqaradi [1, c. 97]. Olim V. Karasikning semiotik zichlik mezonini ham sevgi materialiga tatbiq etgan, unga ko‘ra konseptni nomlovchi birliklarning ko‘pligi uning madaniyatdagi qadrini ko‘rsatadi [1, c. 104].

Yo‘nalish masalasiga Yu. Stepanovning etimologik kuzatishi bevosita tegishli. Olim любить fe’lidagi kauzativlikni qadimgi hind tilidagi lobhayati “возбуждать желание” shakliga olib boradi [2, c. 279–280]. Demak, sevgi qadimgi tasavvurda sub’ektning o‘zidan emas, unda qo‘zg‘atiladigan holatdan boshlanadi. Bu fikr o‘zbek materialidagi tashqaridan keluvchi sevgi obrazi bilan tutashadi.

Nazariy tayanch sifatida G. Lakoff va M. Johnsonning metafora turlari olindi. Ular struktur va oriyentatsion metaforadan tashqari ontologik metaforani ajratadi. Unda his va fikr narsa yoki modda qiyofasini oladi, bu qiyofa esa tana tajribasiga tayanadi [3, p. 14, 25, 61]. Sevgini idish yoki idishga tushgan modda deb ko‘rish ham, bizning talqinimizda, xuddi shu turga kiradi. Idish va modda rolining qaysi biri sevgiga berilishi esa tilga qarab o‘zgaradi.

Rus va ingliz frazeologiyasini qiyoslagan L. Lepixina Lakoff ko‘rsatgan yetti modelni yana beshta model bilan, jumladan olov, suv stixiyasi va o‘yin modellari bilan to‘ldiradi hamda ingliz tilida ko‘z va bosh ishtirokidagi iboralar zichligini qayd etadi [4, c. 12–13]. Uning uchun *fall in love* sevgining aqlga bo‘ysunmasligini ko‘rsatuvchi dalil [4, c. 11]. Lepixina intensivlik ikki tilda turli o‘lchov bilan berilishini ham kuzatgan. Rus tili kuchga (сильная любовь), ingliz tili chuqurlikka (deep love, love deeply) tayanadi [4, c. 15]. Yana bir kuzatishi shundaki, ingliz frazeologiyasida “ни одного устойчивого выражения, которое бы связывало воедино душу человека и любовь” topilmagan [4, c. 13].

O‘zbek va ingliz tillari bo‘yicha M. Tadjiyeva MUHABBAT – INSON va MUHABBAT – RAQIB modellarini o‘zbek (Cho‘lpon, Said Ahmad, T. Malik) va ingliz (J. Austen, D. Lawrence) nasri asosida ko‘rsatgan [5, 233–235-b.]. Makon modellari bu ishda ko‘rilmagan. Tipologik fon uchun M. Lipińskaning fransuz va polyak tillariga oid ishi foydali. Unda maqol va iqtiboslarning 490 birligidan 128 tasi SEVGI SHAXS modeliga to‘g‘ri kelgani, shuningdek LOVE ICM larining umumlashgan ro‘yxati keltirilgan [6, p. 41, 46]. Nihoyat, Z. Kövecses va G. Radden emotsiya nomi his sababchisini atashi mumkinligini EMOTION FOR CAUSE OF EMOTION deb nomlangan metonimiya (You are

my joy) orqali ko‘rsatgan [7, p. 56]. Ular ANGER IS HEAT metaforasini tana harorati bilan bog‘liq EFFECT FOR CAUSE metonimiyasidan keltirib chiqaradi [7, p. 61]. Bu ikki kuzatish murojaat shakllari va olov modelini izohlashda kerak bo‘ladi.

Sharhdan ko‘rinadiki, sevgi metaforalari bo‘yicha boy tasnif bor, biroq o‘zbek va ingliz materialida harakat yo‘nalishi va idish roli alohida o‘lchov sifatida olinmagan. Maqolada aynan shu o‘lchov tahlilning o‘zagiga aylanadi.

TADQIQOT MATERIALI VA METODLARI

Lug‘aviy material uchun besh jildli “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” (II va III jildlar) [8; 9], Sh. Rahmatullayevning arab so‘zlariga bag‘ishlangan etimologik lug‘ati [10] va izohli frazeologik lug‘ati [11] ko‘rib chiqildi. Ingliz tomonida A. Kuninning inglizcha-ruscha frazeologik lug‘ati [12] va J. Ayto tahriridagi Oxford idiomalar lug‘ati [13] olindi. O‘zbek maqollari T. Mirzayev va boshqalar tuzgan 2005 yilgi to‘plamdan keltirildi [14]. Nutqdagi qo‘llanish muallif tuzgan ikki badiiy korpusda tekshirildi. O‘zbek korpusi ziyouz.uz elektron kutubxonasidagi nasr asosida tuzilgan, takroriy sahifalar chiqarilgach 442 sahifa va 1 278 225 so‘z qoldi. Ingliz korpusi Project Gutenberg nashrlaridagi 10 asardan iborat bo‘lib, 1 019 718 so‘z-shaklni o‘z ichiga oladi. Chastotalar million so‘zga nisbatan (ppm) berildi.

Tanlash mezoni oddiy edi. Lug‘atdan sevgi nomlari, ularning ma’nolari va shu nomlar ishtirokidagi iboralar olindi. Korpusdan esa nomlarning barcha qo‘llanishlari sanaldi va makon, harakat yoki idish obrazi bor kontekstlar ajratib olindi. O‘zbek tomonida muhabbat, sevgi (sev- fe’li alohida), ishq va mehr, ingliz tomonida love ning ot va fe’l shakllari hisobga olindi.

Tahlil to‘rt bosqichda borgan. Avval nominativ maydon nomlarning lug‘atdagi birinchi ma’nosi, kelib chiqishi va korpus chastotasi bo‘yicha tavsiflandi. Ikkinchi bosqichda sevgining paydo bo‘lishini ifodalovchi iboralar yo‘nalish jihatidan guruhlandi. Uchinchi bosqichda sevgi joylashadigan a’zoning nomlari sanaldi. To‘rtinchi bosqichda metaforik modellar yagona leksikallashuv mezoni bilan baholandi. Ikki tilning har birida lug‘at yoki paremiyaga kirgan model izomorf sanaldi. Agar u bir tomonda lug‘atga kirib, boshqa tomonda faqat matnda uchrasa, allomorf deb belgilandi. Faqat bir tilning matnida ko‘ringan model lakuna nomzodi, bir tomoni ko‘rilmagan model esa ochiq deb olindi.

Cheklovlar ham bor. Ingliz izohli lug‘atlarining love maqolasi va bu so‘zning etimologiyasi tekshirilgan manbalar qatoriga kirmagan, shuning uchun ingliz yadrosi frazeologiya va korpus orqali tiklandi. Korpuslarning davri va janrlari ham bir xil emas. Ingliz to‘plamida XIX asr romanlari, o‘zbek to‘plamida XX asr nasri ustun, demak chastota nisbatlarini faqat yo‘nalish ko‘rsatkichi deb o‘qish kerak. Respondentlar ishtirokidagi assotsiativ tajriba keyingi bosqichga qoldirildi.

NATIJALAR

1. Nominativ maydon: to‘rt nom va bitta nom

Ingliz tilida konseptning asosiy nomi bitta, o‘zbek tilida esa shu ma’no maydoni muhabbat, sevgi, ishq va mehr o‘rtasida bo‘lingan. O‘zbek nomlarining lug‘aviy yadrosida bir umumiy sema takrorlanadi. Muhabbat izohida “кимсанинг кимсага қалбдан берилиш ҳисси” deyiladi [8, 775-b.], sevgi esa “чин қалбдан ва фидокорона илиқ муносабат туйғуси” sifatida ta’riflanadi [9, 470-b.]. Ishq ham shaxsga berilish va intilish hissi deb izohlanadi [8, 305-b.]. Barcha ta’riflarda his qalb orqali boshqaga berilish sifatida ko‘rinadi. Etimologik lug‘at bu semani ichki shakl darajasida qo‘llab-quvvatlaydi, arabcha muḥabbat ḥabba “севди, кўнгил берди” fe’liga olib boriladi [10, 307-b.].

Nomlar orasida vazifa taqsimoti aniq. Muhabbat eng keng nom, uning ikkinchi ma’nosida obyekt ish yoki san’at bo‘lishi mumkin (мусиқага муҳаббат қўймоқ). Ishq ehtirosni ataydi, lug‘atdagi *Ёр ишқида ёнмоқ* misoli buni yaqqol ko‘rsatadi [8, 305-b.]. Mehr esa oilaviy yaqinlik va shafqatni qamraydi [8, 687-b.]. Ingliz love bu qatlamlarning hammasini bitta so‘zda saqlaydi, farqni esa sifat yoki birikma beradi. Kunin lug‘atida *calf love, Platonic love, make love* va sport hisobidagi *love all* yonma-yon turadi [12, c. 471–472].

Korpus raqamlari shu taqsimotning nutqdagi aksini ko‘rsatadi. O‘zbek nomlari va sev- fe’li birgalikda 1150 marta (899,7 ppm) uchraydi. Otlar ichida muhabbat (317) va mehr (290) oldinda, ishq 170, sevgi 153 marta qayd etilgan, sev- fe’li esa 220 marta. Ingliz love 401 marta (393,2 ppm), fe’l va

ot shakllari bilan 542 marta (531,5 ppm) uchraydi. Bu raqamlardan hisoblaganda o'zbek maydoni yolg'iz love dan taxminan 2,3 baravar, uning barcha shakllaridan esa taxminan 1,7 baravar zichroq chiqadi.

2. Paydo bo'lish: kim kimga tushadi

O'zbek frazeologik lug'atida sevgining boshlanishi ikki xil ibora bilan beriladi. Birinchi xilda his sub'ektga o'zi keladi, *ишқ(и) тушди* "севиб қолмоқ" [11, 120-b.] va *меҳр(и) тушди* [11, 180-b.] shunday iboralar. Grammatik sub'ekt bu yerda his nomi, odam esa egalik qo'shimchasi orqali qabul qiluvchi sifatida beriladi. Ikkinchi xilda faol tomon odamning o'zi, u ko'nglini beradi yoki qo'yadi, masalan *кўнгил бермоқ, кўнгил қўймоқ* [11, 153-b.], *муҳаббат қўймоқ* [11, 183-b.], *меҳр қўймоқ* [11, 180-b.]. Ikki guruh ketma-ket bosqichlar sifatida o'qiladi. Avval sevgi tushadi, so'ng uni qabul qilgan odam ko'nglini obyektga yo'naltiradi.

Korpusda birinchi bosqichning eng aniq misoli Said Ahmadda uchraydi, unda qahramonning *кўнглига муҳаббат олови тушган* [15]. Bu gapda uchta obraz bir joyga yig'ilgan. Sevgi olov, u yuqoridan tushadi, tushadigan joy esa ko'ngil. Ko'ngil shu tariqa idish rolini oladi, sevgi esa unga tushgan modda.

Ingliz tilida manzara teskari. Odam sevgiga tushadi, *fall in love* [12, c. 471], va shu harakatdan keyin sevgi ichida qoladi. Korpusda holat birikmasi harakat birikmasidan ancha ko'p. *In love with* 53 marta (52,0 ppm) qayd etilgan, *fall in love* barcha shakllari bilan 13 marta, ya'ni holat qariyb to'rt baravar ko'p. Austen matnida *in love* aniq holat predikati sifatida ishlaydi, "Captain Wentworth was not in love with either. They were more in love with him; yet there it was not love. It was a little fever of admiration" [16]. Idishning chuqurligi ham o'lchanadi, *over head and ears in love* idiomasi korpusda aynan lug'atdagi shaklda uchraydi, "they were over head and ears in love with each other from the first moment they met" [17]. G. Chestertonda tushish o'zining jismoniy ma'nosiga qaytariladi, "one of those quite arbitrary emotions, like jumping off a cliff or falling in love" [18].

Natijada ikki tilda harakat umumiy, rollar esa almashgan. O'zbek tilida harakatlanuvchi narsa sevgi, ingliz tilida odam. O'zbek tilida idish sub'ektning ichida (ko'ngil), ingliz tilida esa sevgining o'zi idish.

3. Sevgining o'rni: ko'ngil idishi va ko'chma yurak

Sevgi joylashadigan a'zo o'zbek tilida to'rt nom bilan ataladi, bular ko'ngil, yurak, dil va qalb. Frazeologik lug'atda ko'ngil ishtirokidagi bosh iboralar qirqdan, yurak ishtirokidagilar o'ttizdan oshadi [11, 153–170, 274–278-b.]. Poklikni bildiruvchi ibora to'rt o'rin nomining har biri bilan variant hosil qiladi, *кўнгл(и) тоза, юраг(и) тоза, кўнгл(и) пок, қалб(и) пок* [11, 168-b.]. Ingliz idioma lug'ati sevgi o'rni uchun bitta nomni, heart ni beradi, masalan *lose your heart to, steal someone's heart, wear your heart on your sleeve* [13]. Shunday qilib, to'rt nomga bitta nom nisbati nominativ maydonda ham, o'rin nomlarida ham takrorlanadi.

Makon jihatidan bu a'zolar ikki tilda turlicha ishlaydi. O'zbek maqollarida ko'ngil to'ldirilishi kerak bo'lgan joy sifatida tasvirlanadi. Sevgisiz ko'ngil bo'sh qolgan makon bilan qiyoslanadi, *Ishqsiz ko'ngil — egasiz uy, Sevgisiz ko'ngil — vayrona* [14, 242, 245-b.], *Ishqsiz ko'ngil — o'tsiz o'choq* [14, 242-b.]. Har uch maqolda ko'ngil idish yoki bino, sevgi esa uning ichini to'ldiradigan ega, olov yoki obodlik. Ingliz idiomalarida heart ko'pincha idish emas, qo'ldan qo'lga o'tadigan narsa. Uni yo'qotish, o'g'irlash yoki yengga taqib yurish mumkin. *Lose your heart to* iborasida yurak sub'ektdan chiqib obyektga o'tadi. Bizningcha, bu o'zbek *кўнгил бермоқ* iborasining ingliz tilidagi eng yaqin juftidir, chunki ikkalasida ham sevgi o'rni egasidan ajralib, boshqaga beriladi.

Jon sevgi o'rni bo'la oladimi, degan savol ham tekshirildi. Frazeologik lug'atda jon bilan 43 ta bosh ibora bor, lekin ularning birortasi sevgi ma'nosida kelmaydi [11, 93–101-b.]. Bu jihatdan o'zbek lug'ati Lepixina ingliz tili uchun qayd etgan holatga mos tushadi.

4. Metaforik modellar va ularning makoniy yuki

Ajratilgan to'qqiz model 1-jadvalda berilgan.

1-jadval. “Muhabbat / Love” konseptining metaforik modellari

Model	**O‘zbek tilida**	**Ingliz tilida**	**Belgi**
LOVE IS BLINDNESS	*Muhabbatning ko‘zi — ko‘r, Sevgining ko‘zi ayb ko‘rmas*	*Love is blind*	izomorf
LOVE IS A LIVING BEING	*Muhabbat muhabbatni tug‘dirar, Ko‘ngil gulini sevgi suvi sug‘orar*	*love begets love, love is the mother of love*	izomorf
LOVE IS A COMMODITY	*Sevgi bozorda sotilmas, Muhabbat boylikka boqmas*	*not for love or money, cupboard love*	izomorf
LOVE IS A FORCE	*Po‘lat olovda, sevgi hijronda sinalar*	*Love laughs at locksmiths*	izomorf
Paydo bo‘lish yo‘nalishi	*ишқ(и) тушди, кўнгил бермоқ*	*fall in love, over head and ears in love*	allomorf
Sevgining o‘rni	ko‘ngil, yurak, dil, qalb	heart	allomorf
LOVE IS A HOUSE	*Ishqsiz ko‘ngil — egasiz uy*	*love in a cottage*	allomorf
LOVE IS FIRE	*ёр ишқида ёнмоқ, Muhabbatsiz umr — o‘t olmas ko‘mir*	*carry a torch for, an old flame* (love so‘zisiz), *ardent love* (nutq)	allomorf
LOVE IS ILLNESS / MADNESS	*Davosiz dard — muhabbat, ишқ савдоси*	*lovesick, a little fever of admiration* (nutq)	ochiq

Izomorf modellarning ichida ham makon farqi seziladi. Uy modelida bu farq eng ochiq ko‘rinadi. O‘zbek maqolida ko‘ngil uy, sevgi esa uning egasi yoki ustuni, ingliz *love in a cottage* va *love lives in cottages as well as in courts* iboralarida esa sevgi uyda yashovchi narsa [12, c. 472]. Kuch modelida ham harakatlanuvchi tomon almashadi. Ingliz *Love laughs at locksmiths* maqolida sevgi to‘siqni yengib o‘tadi [12, c. 472], o‘zbek *Po‘lat olovda, sevgi hijronda sinalar* maqolida esa to‘siq sevgini sinaydi [14, 244-b.].

Olov modeli ikki tilda turli darajada mustahkamlangan. O‘zbek tilida u izohli lug‘atga ham, maqolga ham kirgan (*Muhabbatsiz umr — o‘t olmas ko‘mir*) [14, 243-b.]. Ingliz tilida love so‘zi bilan olov obrazi lug‘atda qayd etilmagan, nutqda esa issiqlik sifatlari orqali yoyiladi, masalan Austenda “that still ardent love for Marianne” [17]. Kasallik modeli o‘zbek tilida *Davosiz dard — muhabbat* maqoli [14, 241-b.] va *ишқ савдоси* birikmasi [8, 305-b.] bilan mustahkam, ingliz lug‘ati esa bu jihatdan to‘liq tekshirilmagani uchun model ochiq qoldirildi. Mezon qo‘llangach, izomorf va allomorf modellar to‘rttadan chiqdi, bitta model ochiq qoldi.

MUHOKAMA

Natijalar tadqiqot savoliga aniq javob beradi. Ikki tilda sevgi bir xil harakat, ya’ni tushish orqali boshlanadi, lekin harakatlanuvchi va qabul qiluvchi rollari almashgan. O‘zbek tilida sevgi sub’ektga tashqaridan keladi va uning ichidagi ko‘ngilga joylashadi. Ingliz tilida sub’ekt sevgi ichiga o‘zi kiradi va uning chegarasida qoladi. Bu farq konseptning bir necha qatlamida takrorlanadi.

O‘zbek tomonidagi manzarani Stepanovning kauzativlik haqidagi kuzatishi [2, c. 279–280] bilan izohlash mumkin. Sevgi qo‘zg‘atiladigan holat bo‘lsa, uning manbai sub’ektdan tashqarida turadi. *Ишқ(и) тушди* iborasidagi grammatik tuzilish aynan shuni aks ettiradi, his ega o‘rnida, odam esa egalik shaklida. Biroq o‘zbek materiali bu bilan cheklanmaydi. Ikkinchi bosqich iboralari (*кўнгил бермоқ, муҳаббат қўймоқ*) sub’ektni yana faol qiladi. Etimologik lug‘atdagi ḥabba izohi ham ko‘ngil berish semasiga tayanadi. Shunday qilib, o‘zbek konseptida sevgi qabul qilish va berish halqasidan iborat. Ko‘ngil avval idish, keyin esa in’om bo‘ladi.

Ingliz tomonidagi manzara Vorkachevning o‘z “men”idan chiqish haqidagi talqiniga [1, c. 124] ancha yaqin. Ingliz sub’ekti chegarani kesib o‘tadi va boshqa makonga tushadi. Lepixina *fall in love* da irratsionallik belgisini ko‘rgan [4, c. 11], Chestertonning jar yoqasidan sakrash o‘xshatishi esa bu belgining makoniy asosini ochib beradi. Odam qulaydi, qulash esa iroda bilan boshqarilmaydi. Shu bilan birga korpus raqami ingliz konseptida yakuniy holat muhimroq ekanini ko‘rsatadi. *In love with* ning *fall in love* dan to‘rt baravarga yaqin ko‘pligi sevgi ko‘proq kirib bo‘lingan joy sifatida tasavvur qilinishini bildiradi. Intensivlikning chuqurlik bilan o‘lchanishi [4, c. 15] ham shu sxemaga mos. Idish bo‘lsa, uning chuqurligi bor, *over head and ears in love* esa odam idishga boshi bilan botganini aytadi.

Lakoff va Johnson ta’riflagan ontologik metafora [3, p. 14, 25, 61] ikki tilda bir xil asosga ega, ammo rollar taqsimoti turlicha. O‘zbek tilida sevgi modda (olov, suv, ega), ingliz tilida esa makon. Bu farq paremiyadagi olov modelida ham ko‘rinadi. O‘zbek olovi ko‘ngil o‘chog‘ida yonadi, ya’ni yana ichki idishga joylashadi. Kövecses va Radden ko‘rsatgan tana harorati asosi [7, p. 61] ikki tilda umumiy, lekin ingliz materialida olov love so‘ziga lug‘at darajasida bog‘lanmagan. Murojaatda ham shunga o‘xshash holat bor. Korpusda *my love* 28 marta qayd etilgan, ulardan 24 tasi Austen matnlarida. Bu EMOTION FOR CAUSE OF EMOTION metonimiyasining [7, p. 56] ingliz tilidagi odatiy ko‘rinishidir.

Tadjiyeva ajratgan antropomorf modellar [5, 233–235-b.] va Lipińska qayd etgan shaxs modelining zichligi [6, p. 41, 46] bizning materialda ham tasdiqlanadi, jonli mavjudot modeli ikki tilda izomorf. Ammo ikki til eng ko‘p farqlanadigan joy antropomorf obrazlar emas, makoniy sxemalar ekani ma’lum bo‘ldi. Izomorf modellar ichidagi obraz farqlari (uy egasi va uydagi yashovchi, sinaladigan po‘lat va qulfga kuladigan kuch) ham harakat va idish rollarining almashuviga borib taqaladi.

Sevgi o‘rni bo‘yicha natija Lepixina kuzatishini o‘zbek materialiga ko‘chirish imkonini beradi. Rus tilida душа sevgi iboralarida faol qatnashadi, ingliz tilida esa bunday iboralar topilmagan [4, c. 13]. O‘zbek tilida jon o‘rnini egallashi kutilgan edi, lekin frazeologik lug‘at buni tasdiqlamadi. Demak, jon masalasida o‘zbek lug‘ati rus manzarasidan uzoqlashib, ingliz manzarasiga yaqinlashadi. Ikki til o‘rtasidagi farq esa o‘rin nomlarining soni va roli bilan bog‘liq.

Xulosalarimizni cheklovlar bilan birga o‘qish kerak. Birinchidan, sxemaga zid misollar ham bor. O‘zbek nasrida sevgi odamni cho‘ktiruvchi yuk sifatida tasvirlangan, Said Ahmadda “Бу севги бўйнимга боғланган оғир тош бўлди. Шу тош мени ўзи билан сув тубига тортар” deyiladi [19]. Bu misolda sub’ekt ingliz tilidagidek chuqurlikka tortiladi, biroq obraz lug‘at va paremiyada mustahkamlanmagan va nutq darajasida qoladi. Ikkinchidan, ingliz yadrosi izohli lug‘atsiz tiklandi, shuning uchun ingliz tomonidagi xulosalar frazeologiya va korpusga tayanadi. Uchinchidan, korpuslar davr va janr jihatidan farq qiladi, demak *in love with* ning ustunligi qisman Austen matnlarining ulushiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ingliz korpusidagi 53 qo‘llanishdan 48 tasi aynan Austenda. Til egalari ongida bu sxemalar qanchalik faol ekani keyingi bosqichdagi assotsiativ eksperimentda tekshiriladi.

XULOSA

Ingliz va o‘zbek tillarida sevgi tushish harakati orqali paydo bo‘ladi, ammo harakatlanuvchi va idish rollari teskari taqsimlangan. O‘zbek tilida sevgi sub’ektga tushadi va ko‘ngilda joylashadi, so‘ng sub’ekt ko‘nglini obyektga beradi. Ingliz tilida sub’ekt sevgiga tushadi va unda holat sifatida qoladi, korpusda *in love with* birikmasi *fall in love* dan qariyb to‘rt baravar ko‘p.

Bu sxema nominativ maydonda ham, sevgi o‘rni nomlarida ham davom etadi. O‘zbek tilida to‘rt sevgi nomi va to‘rt o‘rin nomi bor, ingliz tilida ikkala holda bitta nom. O‘zbek maydoni yolg‘iz love dan taxminan 2,3 baravar zich. Metaforik modellarda izomorf va allomorf belgilar teng (to‘rttadan), bitta model ochiq, izomorf modellar ichidagi obraz farqlari esa ko‘pincha shu makoniy rol almashuvidan kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR

1. Воркачев С.Г. Любовь как лингвокультурный концепт: монография. – М.: Гнозис, 2007. – 284 с.
2. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1997. – 824 с.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago; London: The University of Chicago Press, 2003 [1980].
4. Лепихина Л.Н. Фразеологизмы со значением любви в русском и английском языках: автореф. дис. … канд. филол. наук: 10.02.20. – М.: МГУ, 2009. – 24 с.
5. Tadjiyeva M.F. Ingliz va o‘zbek tillarida muhabbat konseptli antropomorf metaforik modellar // Tamaddun nuri. – 2024. – № 10 (61). – B. 233–235.
6. Lipińska M. L’amour en français et en polonais – étude cognitive // Folia Litteraria Romanica. – 2021. – № 16. – P. 39–48. – DOI: 10.18778/1505-9065.16.04.

7. Kövecses Z., Radden G. Metonymy: Developing a Cognitive Linguistic View // Cognitive Linguistics. – 1998. – Vol. 9, № 1. – P. 37–77. – DOI: 10.1515/cogl.1998.9.1.37.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли. II жилд (Е–М). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли. III жилд / Таҳрир ҳайъати: Т. Мирзаев ва б. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II: Араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар. – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.
11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 405 б.
12. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Русский язык, 1984. – 944 с.
13. Ayto J. (ed.) Oxford Dictionary of English Idioms. – 4th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2020.
14. Ўзбек халқ мақоллари / Тузувчилар: Т. Мирзаев, А. Мусоқулов, Б. Саримсоқов; масъул муҳаррир Ш. Турдимов. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 512 б.
15. Саид Аҳмад. Алла // ziyouz.uz электрон кутубхонаси (мурожаат санаси: 29.09.2026).
16. Austen J. Persuasion. – Project Gutenberg (elektron nashr).
17. Austen J. Sense and Sensibility. – Project Gutenberg (elektron nashr).
18. Chesterton G.K. The Man Who Was Thursday. – Project Gutenberg (elektron nashr).
19. Саид Аҳмад. Бегона // ziyouz.uz электрон кутубхонаси (мурожаат санаси: 29.09.2026).

STILISTIK VA SINTAKTIK VOSITALARNING BADIIY MATNDA INTENSIVLIKNI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Jo‘rayeva Muhayyo,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida sintaktik strukturalar hamda stilistik figuralarning badiiy matnda intensivlikni oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda ergashish, bog‘lanish, asindeton, kumulyatsiya, inversiya,intonatsion pauzalar, takror, antiteza, gradasiya va ritorik so‘roq kabi sintaktik vositalar tahlil etilib, ularning emotsional-ekspressiv funksiyasi ochib beriladi. Tahlillar Bakhtin, Galperin, Vinogradov, Halliday kabi olimlarning asarlari hamda o‘zbek va ingliz adabiyotlaridan olingan matn namunalari asosida olib borilgan.
Kalit so‘zlar: stilistik figura, polipredikativ birlik, sintaktik intensivlik, inversiya, anafora, gradasiya, ritorik so‘roq.
Annotation. The article analyzes the role of stylistic figures and syntactic structures in increasing discourse intensity in English and Uzbek literary texts. It focuses on polypredicative sentences, inversion, anaphora, antithesis, gradation, and rhetorical questions as means of emotional and expressive enhancement. The research is based on the works of Bakhtin, Galperin, Vinogradov, and Halliday, and examples are drawn from English and Uzbek literature.
Keywords: stylistic device, syntactic structure, intensity, inversion, anaphora, gradation, rhetorical question.
Аннотация. В статье рассматривается роль стилистических фигур и синтаксических структур в усилении интенсивности литературного дискурса на английском и узбекском языках. Анализируются полипредикативные конструкции, инверсия, анафора, антитеза, градация и риторический вопрос. Исследование основано на трудах Бахтина, Гальперина, Виноградова и Халлидея, а также на примерах из английской и узбекской литературы.
Ключевые слова: стилистическая фигура, интенсивность, инверсия, анафора, градация, риторический вопрос.

Kirish

Tilning badiiy-estetik imkoniyatlarini ochib berishda sintaktik qurilmalar muhim o‘rin tutadi. Polipredikativ birliklar, ya’ni bir necha predikatsiyadan tashkil topgan gaplar, fikrning bosqichma-bosqich ifodalanishini, mantiqiy hamda emotsional kuchayishni ta’minlaydi. Badiiy matnda intensiya – fikrning kuchi va ta’sirchanlik darajasi – ko‘pincha sintaktik vositalar orqali vujudga keladi. Tilshunoslikda bu jarayonni o‘rganish Galperin, Vinogradov, Bakhtin, Shomahmudov va Halliday kabi olimlarning asarlarida alohida o‘rin tutadi. Maqolada sintaktik vositalarning badiiy matnda ta’sirchanlik va estetik ifoda hosil qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tilshunoslikning bir necha yo‘nalishlarini qamrab oladi. Rus tilshunosligida

M.M Bakhtin , M. Ya. Blokh, D. E. Rozental, Sh. Balli, ingliz tilshunosligida esa M.A.K. Halliday va C. Matthiessen tomonidan ishlab chiqilgan funksional grammatika nazariyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek stilistikasida A. Shomahmudov, I. Rasulov, X. Rustamov, R. Sayfullayeva, E. Qilichev, G‘. Abdurahmonov kabi olimlar badiiy matn sintaksisi, gap tuzilishi va ifoda vositalarining uslubiy vazifasini tahlil qilganlar.

M. M. Bakhtin o‘zining "Dialogik nutq" konsepsiyasida badiiy matndagi polifonik va dialogik strukturalarning emotsional kuchini ifodalab bergan.U matndagi har bir sintaktik birlikni “intonatsion energiya markazi” sifatida izohlaydi.

Blokhning nazariyasida sintaktik inversiya, zeroing va bog‘lovchisiz bog‘lanishlar badiiy nutqda ichki dramatizmni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. U gap tuzilmasining o‘zgarishi orqali fikr urg‘usining siljishini “stilistik dinamika” deb ataydi. Tilshunos tomonidan tavsiflangan inversive constructions (teskari konstruktsiyalar) — bu sintaktik tuzilma va semantik urg‘u o‘rtasidagi tafovutga asoslangan murakkab gaplar bo’lib, uning ta’kidlashicha ,bunday turdagi murakkab gaplar tilshunoslikda semantikaning sintaktik tuzilishga qarshi qo‘yilishi nazarda tutiladi

Galperin esa sintaktik konstruktsiyalarni stilistik figura sifatida ko‘rib chiqib, ularning ma’no va ohang birligi bilan uzviy aloqadorligini ta’kidlaydi. U “syntactic synonymy” nazariyasida bir fikrni turli gap tuzilmalari orqali ifodalash uslubiy boylik va intensivlikni oshirishini ko‘rsatadi.

Vinogradovning fikricha, badiiy nutqda sintaktik tuzilma so‘zning estetik qimmatini belgilaydi. Takror, qarama-qarshilik, periodik tuzilma va pauzalar orqali o‘quvchiga psixologik ta’sir kuchayadi.

Ingliz tilshunosi M.A.K Hallidayning “Functional Grammar” nazariyasi sintaktik strukturalarning matnning “axborot oqimi”ni belgilashdagi o‘rnini ochib beradi. Unga ko‘ra, har bir gapning “theme” (mavzu) va “rheme” (fikrning yangiligi) bo‘linishi badiiy matnda urg‘u va ta’sir kuchini shakllantiradi. Cleft va pseudo-cleft tuzilmalar fikr markazini o‘zgartirish orqali emotsional kuchayish yaratadi.Rozental stilistik sinonimiya orqali badiiy nutqning madaniy ifodaviyligini oshirishni nazariy asosda tushuntiradi. Gap tuzilmasi orqali diqqat markazining siljishi va ritm yaratilishi matn intensivligini belgilaydi.

O’zbek tilshunosi R.R. Sayfullayeva ham “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”da tema–rema munosabati, so‘z tartibi va urg‘u orqali axborotning markazlashuvi xususida izlanish olib boradi. Bu strukturalar badiiy matnda ma’no kuchayishini ta’minlashligini ta’kidlaydi.

A.Shomahmudov , I. Rasulov , X.Rustamovlar sintaktik sinonimiya, qo‘shma gaplar, zidlov bog‘lovchilar va inversiyalarni badiiy nutqda fikr ifodaliligi va dramatizmini oshiruvchi vositalar sifatida tavsiflashadi.

E. Qilichev “O‘zbek tilining amaliy stilistikasi”da qo‘shma gaplarning badiiy matndagi ifoda kuchini oshirishdagi roli ko‘rsatiladi. Unga ko‘ra, so‘z tartibi va bog‘lovchilar tanlovi emotsional kuchayishning grammatik mexanizmidir. Bunday intensivlikka erishishda stilistik sinonim qo‘shma gaplar katta ahamiyatga ega ekanligini , garchi ular bir xil semantik mazmunga ega bo‘lsa-da, nutqdagi stilistik yuklama, intonatsion

urg‘u yoki konnotatsion bo‘yoq orqali farq qilishini ifodalab bergan. Tilshunos G‘. Abdurahmonovning qayd etishicha sintaktik darajadagi intonatsion pauzalar ham ifoda kuchini oshirishga xizmat qiladi. Zidlovchi bo‘g‘lovchilardan keyin keladigan pauzalar yoki qiyoslovchi birliklar oldidagi urg‘ular mazmuni qiyoslanayotgan bo‘lakning ma’nosini qabartiradi, diqqatni o‘ziga jalb etadi — bu hodisa dramatik kuchayishning intonatsion vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sintaktik vositalar badiiy matnning emotsional va ekspressiv kuchini oshirishda asosiy o‘rin tutadi. Inversiya, asyndeton, kumulyatsiya kabi sintaktik usullar voqea rivojining dramatik kuchayishiga xizmat qiladi. Badiiy matnda takrorni kamaytirish, ritmik ixchamlikni saqlash va emotsional urg‘uni markazlash uchun predicative zeroing — ya’ni murakkab gap tarkibida ergash qismdagi predikativ elementning tushirilishi xizmat qiladi.

Bog‘lovchisiz bog‘lanish (asyndeton) — bu ikki yoki undan ortiq predikativ birliklar orasida hech qanday bog‘lovchisiz bog‘lanishidir. Y.M.Bloxning ta’kidlashicha, ergash gaplarning asindetik bog‘lanishi o‘ziga xos funksional qiymatga ega va aynan shu xususiy qiymat til tizimidagi asindetik polipredikatsiyaning mavjudligini asoslab beradi va uni qo‘llab-quvvatlaydi.Bunday tuzilma stilistik jihatdan emotsional-psixologik kuchlanishni ifodalashda, nutqning tabiiy va tez sur’atda o‘tishini ifodalashda xizmat qiladi. Masalan: *"He saw her, she smiled, he looked away."* Bunda har bir gap mustaqil, ammo ulardagi ichki aloqadorlik ohang orqali ifodalanadi. Shu jumladan, Dickensning asarlarida asyndeton vositasi personajning ichki kechinmalarini tezkor va jonli ifodalashga imkon beradi. Galperin va Halliday ta’kidlaganidek, sintaktik sinonimlar, parallelizm va takror orqali fikr ritmik shaklga kiradi. Bu o‘quvchida “ichki musiqiylik” hissini uyg‘otadi. Ayniqsa, yozma nutqda intonatsiyaning ifodalanmagan holatida, bunday konstruktsiyalar o‘quvchiga axborot oqimini to‘g‘ri talqin qilish imkonini beradi. Masalan,” *It was his teacher who persuaded him to continue”* gapida urg‘u aynan “*his teacher*” komponentiga qaratilib, semantik qarama-qarshilikni ochib beradi. Shuningdek, *pseudo-cleft* (yoki *wh-cleft*) tuzilmalar ham — masalan, “*What she disliked was his attitude”* — gapdagi yangilikni (New) oldinga olib chiqish orqali intensiyani kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu sintaktik qurilmalar nafaqat semantik urg‘u vositasi, balki uslubiy jihatdan ham matnga ekspressivlik, kontrastlilik va diqqat markazlashuvini olib kiradi.

O‘zbek adabiyotida esa Oybek yoki O‘. Hoshimov asarlarida kumulyativ gaplar orqali ruhiy holatning kuchayishi kuzatiladi.*“U jim qoldi, yuragi tez urdi, o‘yladi.”* Bunday tuzilmalar harakat tezligini oshiradi va o‘quvchini emotsional cho‘qqiga olib chiqadi.

Stilistik figuralar – anafora, epifora, antiteza, gradasiya, ritorik so‘roq – fikrning ta’sirchanligini oshiruvchi vositalardir. Masalan, G‘afur G‘ulomning “*Qayda partiyamiz ish ko‘rar bo‘lsa… Qayda biror mash’al gurkirar bo‘lsa…*” satrlarida anafora (bir nechta gap, strofa yoki abzatsning bir xil konstruksiya bilan boshlanishi) vositasi bo‘lib, takror orqali tinglovchi diqqatini jalb qiladi , fikrni ta’kidlaydi va emotsional kuchayish yaratadi. Shuningdek, antitezalar va takrorlar orqali ma’naviy qarama-qarshiliklar ta’kidlanadi, bir so‘z, bo‘lak yoki gapning takroran qo‘llanishi orqali ma’noni

kuchaytirish va hissiy ta’sirni oshirishga erishiladi. Sh. Balli takrorning yuzaga kelishini emotsional impulslar bilan izohlaydi. Uning ta’kidlashicha, impulslar qanchalik ko‘p bo‘lsa, takrorlar ham shunchalik ko‘p bo‘ladi. *Ikromjon yig‘ladi, yig‘ladi, yig‘idan ko‘z yosh quridi (S. A.); Hammasi bo‘ladi, hammasi bo‘ladi! (H. Abd.); To‘xtanglar, to‘xtanglar, o‘rtoq-lar! (X. F.).Albatta, quyidagi matn asosida “Tahlil va natijalar” bo‘limiga moslashtirilgan ilmiy-stilistik shaklni keltiraman:*

Ritorik so‘roq o‘zbek badiiy nutqida emotsional kuch, estetik go‘zallik va ma’naviy ta’sirni oshirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nutqning ekspressiv imkoniyatlarini boyitadi, mavzu va g‘oyaning badiiy ta’sirini kuchaytiradi, hamda o‘quvchi hissiyotini harakatga keltiruvchi muhim stilistik mexanizm sifatida xizmat qiladi. U sof so‘roq ma’nosini emas, balki hukmni ta’kidlash, baholash, yoki hissiy holatni ifodalash vazifasini bajaradi. Ritorik so‘roq orqali subyekt javob kutmaydi, balki o‘z ichki kechinmasini yoki da’vatini kuchaytiradi.Masalan: *“Kim o‘z yuragini o‘zi sug‘urib olgisi keladi? Kaftiga qo‘ngan qushni uloqtirib yuborishga ko‘zi qiymaydigan odam bormi?” (O‘. X.)* Bu gaplarda javob kutilmaydi, lekin hissiy ohang, kechirim va ichki kurash kuchaygan. Shunday savollar orqali muallif o‘quvchini o‘ylashga, ruhiy jarayonni his etishga undaydi. Halliday va Matthiessen nazariyasiga ko‘ra, bunday sintaktik strukturalar matnning ‘discourse intensity’ darajasini belgilaydi, ya’ni ularni emotsional, ritmik va semantik jihatdan boyitadi.

Blokh o‘zining “Teoreticheskaya grammatika angliyskogo yazyka” (1983) asarida ingliz tilida predicative zeroing — ya’ni murakkab gap tarkibida ergash qismdagi predikativ elementning tushirilishi — uslubiy va semantik jihatdan muhim hodisa ekanini ta’kidlaydi. U bu jarayonni paradigmatic de-zeroing deb ataydi, ya’ni tushirilgan fe’l shaklini sintaktik jihatdan qayta tiklash orqali uning ma’noviy yukini aniqlash mumkinligini ko‘rsatadi.Blokhning fikricha, predikativ qismlarning tushirilishi sintaktik ixchamlik va semantik urg‘uni kuchaytiradi, lekin ma’no to‘liqligiga zarar yetkazmaydi. Bu usul, ayniqsa, taqqoslovchi ergash gaplarda stilistik soddalik va emotsional ta’sir kuchini oshiradi.Masalan, “*Nobody could find the answer quicker than John”[did]* jumlasida “*did”* fe’li tushirilgan bo‘lsa-da, asosiy ma’no o‘zgarishsiz saqlanadi; urg‘u esa “*Jondek hech kim tez topolmasligiga*” qaratilgan. “*[did]*” ortiqcha bo‘lib qoladi, chunki ma’no allaqachon kontekstdan anglashiladi.

Xuddi shunday, “*Elizabeth was as much at a loss to know what to think of him, as her companions” (were)* (Austen, Pride and Prejudice) misolida “*were”* fe’lining tushirilishi semantik markazni Elizabetning ichki holati bilan do‘stlarining o‘xshash hissiy kechinmalariga yo‘naltiradi.Blokh bunday holatlarda semantik markaz sintaktik strukturadan emas, balki kontekst va mazmuniy parallelizmdan kelib chiqishini ko‘rsatadi. Shu bois, predikativ zeroing badiiy matnda takrorni kamaytirish, ritmik ixchamlikni saqlash va emotsional urg‘uni markazlash uchun xizmat qiladi.

O‘zbek va ingliz matnlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, har ikkala tilda ham polipredikativ gaplar orqali fikrning izchilligi va ohang kuchi ta’minlanadi. Inversiya esa urg‘u berishning universal vositasi sifatida har ikki tilda faol ishlatiladi. Demak, sintaktik tuzilma nafaqat grammatik birlik, balki badiiy-estetik yuklama tashuvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Umuman olganda, badiiy diskursning ta’sirchanligi va estetik mukammalligi stilistik figuralar bilan sintaktik strukturalarning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Sintaktik konstruktsiyalar, xususan, polipredikativ birliklar va inversiv gaplar, matnda fikrning dinamik harakatini, voqelikning dramatik keskinligini va obrazlarning psixologik og‘irligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, stilistik figuralar — anafora, antiteza, gradasiya hamda ritorik so‘roq — matnning estetik qiymatini oshirib, mazmunni emotsional va badiiy jihatdan boyitadi. Demak, sintaktik va stilistik vositalarning o‘zaro uyg‘un qo‘llanishi badiiy diskursning semantik chuqurligini, ifodaviy salmog‘ini hamda ta’sirchanlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Halliday, M.A.K., & Matthiessen, C.M.I.M. An Introduction to Functional Grammar. Routledge, 2014.

2. Блох, М. Я. Теоретическая грамматика английского языка. Москва: Высшая школа, 1983.

3. Галперин, И. Р. Стилистика. Москва, 1977.

4. Бахтин, М. М. Эстетика словесного творчества. Москва, 1979.

5. Shomahmudov, A., Rasulov, I., & Rustamov, X. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1983.

6. Qilichev, E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

7. Розенталь, Д. Э. Практическая стилистика русского языка. Москва, 1965.

8. Sayfullayeva, R.R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2009.

9. Виноградов, В. В. О языке художественной литературы. Москва, 1959.

POETIK MATNDA PRAGMATIK OMILNING VOQELANISHI

Nematullayeva Gulandom,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Berdaq she'riyatida murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari tahlil qilingan, murojaat birliklarining poetik matndagi o'rni ochib berilgan.*

Kalit so'zlar*: poetik matn, pragmatika, pragmatik ma'no, emotsional-ekspressivlik, murojaat birligi.*

Аннотация*. В поэзии Бердака анализируются прагматические особенности единиц обращения, раскрывается роль единиц обращения в поэтическом тексте.*

Ключевые слова*: поэтический текст, прагматичность, прагматический смысл, эмоционально-выразительность, единство обращения.*

Annotation*. In Berdak's poetry, the pragmatic features of the units of address are analyzed, the role of the units of address in the poetic text is revealed.*

Keywords*: poetic text, pragmatism, pragmatic meaning, emotional expressiveness, unity of address.*

Kirish. Til birliklarini pragmatik yo'nalishda tadqiq etish asar mohiyatida anglanishi qiyin bo'lgan, bevosita ko'zga tashlanmaydigan faqat nutqiy jarayonda yuzaga chiquvchi ichki imkoniyatlarini anglashga yo'l ochadi. Natijada til birliklarining nutqiy faoliyat bilan bog'liq holda reallashuvchi pragmatik vazifalarini aniqlash muammosi yuzaga keladi. "Lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlari, bu xususisyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu lisoniy muloqotning ijtimoiy va ruhiy-psixologik qonuniyatlar bilan moslashgan holda ro'yobga chiqishi va shu asnoda til tizimi rivojlanishni tasdiqlovchi dalillar topish imkonini beradi. Til tizimi taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi (davri) pragmatikadan boshlanadi deyish mumkin." [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XXI asrning dastlabki yillaridan o'zbek tilshunosligida antroposentrik paradigma asosida bajarilgan tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu ishlar pragmalingvistika yo'nalishida ham ko'plab muammolarning hal qilinishiga hissa qo'shdi. S.M.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi pragmalingvistik yondashuvlarning dastlabkisi edi.

Mavzuni yoritishda pragmalingvistikaning o'rganilishiga doir ishlardan (N.Mahmudov, A.Nurmonov, S.M.Mo'minov, M.Hakimov) foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada murojaat birliklarining pragmatik qiymati diskursiv tahlil, pragmatik tahlil uusullarida aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Yirik tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov ta’biri bilan aytganda, “tilda xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, takomil tadriji, asrlarni qaritgan tarixi, istiqomatgohi bo‘lmish hududlarning o‘ziga xosliklari, qo‘yingki, millat otlig‘ qavmning butun bo‘y-basti-yu aqliy-ma’naviy olami qatrada quyosh aks etganiday o‘z tajassumini topadi. Shuning uchun ham til ilmining zukko bilimdonlari xalq tarixining suyaklar, qurollar va mozorlardan ko‘ra xolisroq ko‘zgusi til ekanligini bir necha asr ilgari qayd etganlar” [2]. Ijodining serqirraligi, asarlarining badiiy va g‘oyaviy yetukligi bilan qoraqalpoq adabiyoti tarixida alohida mavqega ega bo‘lgan ijodkor Berdaq she’riyatida murojaat vositalari va adresatga ta’sir etuvchi birliklarni tahlilga tortamiz:

***Quwan**, ey xalqım, zulım ayaqtadı,*
Endi baxtıñ şararlanadı tañda.
(Quvon, ***ey xalqim***, zulm yakun topdi,
Endi baxting charog‘lanar tongda.)

Berdaq she’riyatida ham murojaat shakllari poetik matnning asosiy pragmatik vositalaridan biri sanaladi. Bu vosita orqali shoir o‘z fikrini kimga qaratayotganini bildiradi va adresatda ma’lum kayfiyat hosil qiladi.

***Ey el**, qani oyan, bil – zulım nima qıladı?*
Öz xaqıñdı alıp, zamannı bunıd et.
***(Ey el,** qani uyg‘on, bil, zolim ne qiladi,*
O‘z haqingni olib, bunyod qil zamonani.)

Berdaq asarida ham xalq va elga murojaat orqali shoirning ijtimoiy faolligi, ma’naviy ogohlikka chaqiruvi ifodalanadi. Bu murojaat ijtimoiy-axloqiy pragmatik yuklama hosil qiladi. “Ey inson”, “Ey zolim podsho”, “Ey yosh avlod” kabi umumlashma adresatlarlar orqali zamondoshlariga, xalq ommasi, hokimiyat egalari yoki yosh avlodga bevosita murojaat qilinadi. Bu publitsistik ohaglardagi murojaatlar Berdaqda ijtimoiy-huquqiy norozilik, tanqid va nasihat, da’vat tarzida ifodalanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Berdaqning aksariyat asarlari, nafaqat o‘z zamonasi, balki o‘zidan keyingi zamonlar uchun ham xalqonaligi, dolzarbligi, ahamiyatliligi bilan alohida ajralib turadi.

Berdaq asarlarining pragmatik maqsadi va mazmunini xalqqa sidqidildan xizmat qilish, uning koriga yarash, doimo u bilan bir jon-u bir tan bo‘lishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mana shu fazilatning o‘ziyoq shoir ijodining abadiyligini, yashovchanligini belgilab beradi va barcha zamonlar uchun ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Mustaqillikka erishgan davrimizning bosh g‘oyasi ham xalq baxti, Vatan ravnaqi, millat kelajagi uchun fidoiy bo‘lishdir. Berdaq asarlarida jamiyatning axloqiy-ma’rifiy muammolari go‘zal badiiy ifodasini topadi va ular – ham bevosita, ham bilvosita – hozirgi qoraqalpoq xalqi ma’naviy-axloqiy masalalariga nihoyatda hamohang ekanligi bilan ajralib turadi. Bertdaq asarlarida aks etgan ijtimoiy muammolar hozirgi kunimiz bilan chambarchas ekanligi jihatidan ham qadrlidir.

*Sözley bil, **ey insan**, tuwri sözdi,*
Dünya bilsin – haq sadası bardır.
*(So‘zlay bil, **ey inson**, to‘g‘ri so‘zni,*
Dunyo bilsin haq sadosi bordir.)

Mazkur o‘rinda insoniyatga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatli murojaat qo‘llangan bo‘lib, ushbu ogohlikka chorlovchi murojaatning asosiy pragmatik maqsadi haq so‘zlashga, adolat tarafida bo‘lishga ruhlantirishdir.

Ey zulım padïsha, qılmagın zulum, Beşara halqıñ şığlaydı g‘am-qum.

Ya’ni

Ey zolim podsho, qilmagin sitam,

Bechora xalqing yig‘laydi alam.

Ushbu nutqiy parchada murojaat shakli va bechora, zolim kabi emotsional bo‘yoqli leksemalar pragmatik jihatdan ma’no yukini kuchaytiradi.

Barşanı jaratqan Qadir Xudayım,

Bul dünyada berseñ haqlıq jolin.

(Barchani yaratgan qodir Xudoyim,

Bersang bu dunyoda haqlik yo‘lin ber.)

Ma’lumki, “har qanday badiiy asar tili muayyan umumxalq tilini o‘zida aks ettiradi. Tildagi o‘zgarishlar, evrilishlar, rivojlanishlarning eng xolis ko‘zgusi chinakam san’at darajasidagi badiiy adabiyotdir” [3]. Shoir “Iltijo” she’rida barcha mavjudotlarni yaratgan Allohning qudratini tan oladi va uni yagona adolat manbai sifatida ko‘rsatadi. Bu orqali o‘quvchi ongiga ham Xudoning buyukligini singdiradi. Murojaatning asosiy pragmatik vazifasi – iltijo. Adolatli yo‘lni faqat Xudo berishini ta’kidlab, ilohiy yordamga tayanishini bildiradi. Murojaat faqat shaxsiy ibodat emas, balki xalqni adolat, haqiqat, halollikka da’vat etish vositasi sifatida xam xizmat qiladi.

Azamatlar, *dadıl-dadıl tawdan as.*

Dadılraq bolmasaŋ, közden aqar jaş.

Qayğığa joldos bolmasmız deysiŋler,

Bul zamanda küni köris qıyınraq boldy.

(Azamatlar, *dadil-dadil dovon osh,*

Dadilroq bo‘lmasang, ko‘zdan oqar yosh.

Bo‘lmayin desanglar qayg‘uga yo‘ldosh,

Kun ko‘rish qiyinroq bo‘ldi bu zamon.)

Berdaqning “Bu zamon” she’rida “azamatlar” murojaat shakli orqali shoir jamiyatning kuch-qudrat egalari, yigitlari, mard insonlariga yuzlanmoqda. Bu murojaatning pragmatik maqsadi – xalqni uyg‘otish, milliy ong va g‘ururni tiklash, mardlik va jasoratga chorlash.

Berdimurod, *köp oylanyp, bolma lal.*

Ulıqlardan ölgişiŋşe ögit al.

Ey jas avlod, sözlerime qulaq sal.

Arman menen öter boldıq bul zaman.

(Berdimurod, *ko‘p o‘ylanib, bo‘lma lol,*

Ulug‘lardan o‘lguningcha o‘git ol.

Ey yosh avlod, so‘zlarimga quloq sol,

Armon bilan o‘tar bo‘ldik bu zamon.)

Mazkur baytda mazmunan serqatlam murojaatlar qo‘llangan bo‘lib, bulardan biri – shaxsiy murojaat, ya’ni shoirning o‘z-o‘ziga murojaatidir. Bu orqali shoir shaxsiy tajribasini yaqinlariga, o‘z zamondoshlariga nasihat sifatida yetkazmoqda. Yana biri esa

yosh avlodga murojaat bo‘lib, pragmatik vazifasi yoshlarni uyg‘otish, ularni faol ijtimoiy hayotga undash, pand-nasihat, hayotiy saboq berishga qaratilgan.

Asiylik etpeyin, tawba qilayin.
***Ey ag‘alar**, jalğan aytıp neyleyin.*
Ölsem sözim qalar, aytıp öleyin.
Bir jayılıp aytıp ketey bul zaman.
(Osiylik etmayin, tavba qilayin,
***Ey og‘alar**, yolg‘on aytib naylayin,*
O‘lsam so‘zim qolar, aytib o‘layin,
Bir yoyilib aytib ketay bu zamon.)

So‘zlovchi nutqiga xos kommunikativ niyatni aniq va to‘g‘ri ifodalanishi uchun yana milliy urf-odatlar bilan bog‘liq ijtimoiy qonun-qoidalarni bilish ham talab etiladi. Shu jihatdan qamrab olingandagina nutq ishtirokchilarining o‘zaro muloqot jarayoni to‘g‘ri amalga oshiriladi. Lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari nutq subyekti, nutq obyekti, nutq vaziyati bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi. [4]

Berdaq "Ey og‘alar" tarbiyaviy-nasihatbop murojaat orqali xalqqa, jamiyat a'zolariga yuzlanmoqda. Bu murojaatning pragmatik maqsadi – haqiqatni baralla aytish, xalqni rostgo‘ylikka, jamiyatni uyg‘otishga, adolatli hayotga da'vat etadi.

Bul sözimdi esit, ***Nurmurod axun****.*
Sallañda köp bar uram wa tugun.
Mehnatkesti aldap köp yesen haqıñ.
Senden kóra ola qarğa jaqsıraq.
(Bu so‘zimni eshit, ***Nurmurod oxun,***
Sallangda ko‘p erur o‘ram va tugun.
Mehnatkashni aldab ko‘p eysan haqin,
Sendan ko‘ra ola qarg‘a yaxshiroq.)

Shoirning "Yaxshiroq" she'ridan keltirilgan nuyqiy parchada aniq shaxsga (Nurmurod – o‘sha davrda yashagan beklardan biri) murojaat qilish orqali ijtimoiy mas'uliyat eslatiladi, shaxsiy xatti-harakati tanqid qilinadi. She'rning keyingi o‘rnida bir qator amaldorlarga murojaat keltirilgan:

Orımbet, Nurımbet, Jálil, Sulayman,
***Sapar, Mırza, Arzıw, Erimbet** - shayan.*
Xalıqtıń qanın sorǵan súrbet, hújdansız,
Hámmeden mendey bir gedey jaqsıraq.
(O‘rimbet, Nurimbet, Jalol, Sulaymon,
***Safar, Mirza, Orzu, Erimbet** – chayon.*
Xalqning qonin so‘rgan surbet, bevijdon,
Hammangdan menday bir gado yaxshiroq.)

Ko‘rib o‘tganimizdek, pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos va mos kommunikativ niyat va nutqiy vaziyatning ta'siri bilan aloqador masalalarni tadqiq qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Baholash va hissiy ifoda vositalari. Baholash – poetik matnda hodisa yoki shaxsga nisbatan shoirning munosabatini bildiruvchi pragmatik vositadir. She'rlarda

ijtimoiy voqelikni baholash, hodisalarga munosabat bildirish kuchli leksik vositalar orqali amalga oshiriladi. Muqimiyning quyidagi she’rida buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Nodonga ko‘p gapirib arzir emas,
Suv bermoq toshga befoyda, ***ey birodar.***

Bu misrada “nodon” so‘zi baholash leksemasi sifatida qo‘llanib, inson sifatini past baholaydi. Bu esa matnning ma’naviy-estetik maqsadga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi.

Baho munosabati salbiy, ijobiy va neytral baho munosabati kabi turlaraga bo‘linadi. Mazkur parchada salbiy baho munosabatini aks ettirgan.

O‘zbek tilida so‘zlovchining baho munosabati nutqiy vaziyat, so‘zlovchi va tinglovchining umumiy bilish fondi, o‘zaro kelishuvi, matn asosida o‘zining asl mohiyatini topadi. Shunga ko‘ra baho munosabati pragmalingvistika obyekti sifatida o‘rganilishi maqsadga muvofiq. Matndan ajratib olingan birlik so‘zlovchi istagan ma’no va mazmunni bermasligi tabiiy, ya’ni o‘zining sof lug‘aviy ma’nosi bilan chegaralanib qolishi ham mumkin.

“Muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. Chunki har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog‘liqdir. Tanani ruh boshqarib turadi. Demak, ruhga ta’sir etgan har qanday narsa tanaga ham ta’sir etadi. Bularning hammasi muloqotning psixofiziologik aspektini tashkil etadi”. [5]. Berdaqning “Xalq uchun” she’rida “zolim” va “mo‘min” leksemasi orqali ham salbiy, ham ijobiy baho munosabatini ifoda etadi:

Zulımlar tıñlamas möminniñ zorın,
Ular oylar öz paydasın, xumorın,
Heş waqıt ta zulımlar quldag‘i barın
Sarf etpes şın jürekten xalq üşin.
(Zolimlar tinglamas mo‘*minning* zorin,
Ular o‘ylar o‘z foydasin, xumorin,
Hech vaqt ham zolimlar qo‘ldagi borin
Sarf aylamas chin yurakdan xalq uchun.)

Zolim – 1. Zulm qiluvchi, zulmkor, jabr qiluvchi. 2. Rahm-shafqatni bilmaydigan, berahm, jabr-zulm bilan to‘lib toshgan, qahrli kabi ma’nolarni bildiradi [6]. Zolim arab tilidan o‘zlashgan leksema bo‘lib, mumtoz manbalarda, xususan, Muqimiy va Berdaq asarlarida juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llangan. Zolim “zulm qiluvchi”, jobir esa arabcha “jabr qiluvchi” degan ma’noni anglatadi. Bu sifatlar shaxs faoliyati natijasida orttirilgan belgi-xususiyatni ifoda etadi.

Xulosa va takliflar. O‘zbek tilida baho munosabati so‘zlovchining muayyan narsa-buyum, voqelik va shaxsga bo‘lgan subyektiv munosabati, bahosi sifatida anglashiladi. So‘zlovchi muayyan shaxs, narsa-buyum, voqelikka tavsif berar ekan, bu tavsifda o‘z subyektiv munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Berdaq ham ijtimoiy voqelikni ochiq baholab, adresatda adolatparvarlik va dadillik tuyg‘usini shakllantirishga intiladi.

Pragmatik tadqiqotlar til birliklarining nolisoniy omillar bilan bog‘liq bevosita kuzatishda berilmagan imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Bu til

birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko’nikmalari bilan bog’liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyati o‘zida aks ettirgan presuppozitsiya bo‘lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslangan ko’rinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – T.: O‘zME, 2008. – B. 40.
2. Mahmudov N. Fan tili va til fani // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2013. №5. – B. 3-10.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B. 7-8.
4. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. –B.21.
5. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ... dis. avtoref. – Toshkent: O‘zR FA TAI, 2000. – B.19-20.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jild. – T.: O‘zME, 2008. – B.124-125.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI
ELEKTRON JURNALI

№ 3 (3),
2025-yil, OKTABR

O‘zbekcha matn muharriri: Sharopova Ra’no Jaxonovna
Ruscha matn muharriri: Boltayeva Gulchehra Shokirovna
Inglizcha matn muharriri: Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li
Musahhih: Sharopova Ra’no Jaxonovna
Texnik muharrir: Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

XXI ASR TILSHUNOSLIGI: TAHLIL VA TALQIN ILMIY-METODIK JURNALI

3-jild, 3-son

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL OF LINGUISTICS OF XXI CENTURY

VOLUME 3, ISSUE 3

Tahririyat bilan bog‘lanish:
Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko‘chasi, 45-uy
Web-site: http://lingej.nspi.uz
Tel: +998(97) 378 – 34 -45

Editorial staff of the journal:
Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city
Web-site: http://lingej.nspi.uz
Tel: +998(97) 378 – 34 -45